Respublika
ta’lim markazi

TARBIYA 10

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
10-sinf o‘quvchilari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan



Toshkent – 2021

UO‘K 373:17(075.3)
KBK 87.7ya72
T 23

Respublika
ta’lim markazi

Tarbiya [Matn]: 10-sinf uchun darslik / N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro‘ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova
Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

Mas’ul muharrir:
Dilshod Kenjayev – tarix fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Vahob Qo‘chqorov	-	O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, siyosiy fanlar doktori
Sherzodxon Mahmudov	-	O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori o‘rinbosari, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Otabek Bazarov	-	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi boshqarma boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Liliya Gaynutdinova	-	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori
Humoyun Rashidov	-	Xalq ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Shoira Raupova	-	“Ziyo-zukko umumta’lim maktabi” NTM o‘qituvchisi
Mohim Boboyeva	-	Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani 222-maktab o‘qituvchisi

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.

SHARTLI BELGILAR



Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-7519-8-9

© N. Ismatova, Z. Zamonov va b.
© Respublika ta’lim markazi, 2021

Respublika
ta'lim markazi

MUNDARIJA

I BOB. OILAVIY QADRIYATLAR

1-mavzu: Vatan yagona. 6
2–3-mavzu: Oila – Vatan ichra Vatan 10
4–5-mavzu: Oila – baxt qo'rg'oni 17
6–7-mavzu: Oiladagi burch va mas'uliyat 23
8-mavzu: Baxt manzillari 31

II BOB. INSON VA JAMIYAT

9-mavzu: Mahalla – qadriyatlar beshigi 38
10-mavzu: Jamiyatning ma'naviy asoslari 44
11–12-mavzu: Din va madaniyat 50
13–14-mavzu: Dunyo dinlarida insonparvarlik g'oyalari 57
15-mavzu: Eng katta meros 63

III BOB. IJTIMOIY TARMOQ: IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR

16–17-mavzu: Buzg'unchi g'oyalar 70
18–19-mavzu: Jaholatga qarshi ma'rifat 76
20-mavzu: Xavfsiz media ummoni 83
21-mavzu: Soxta xabarlar ortida nima bor? 87

IV BOB. MEHNATSEVARLIK, TADBIRKORLIK VA KASBIY KO'NIKMALAR

22-mavzu: Baxtli hayot poydevori 92
23–24-mavzu: Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati 96
25–26-mavzu: Kasb tanlash sirlari 104
27–28-mavzu: O'rganishdan to'xtamang 111
29–30-mavzu: Iroda. 119

Respublika
ta'lim markazi

QADRLI O‘QUVCHI!

Bu olam aslida ma’rifat va uning o‘zagini tashkil etuvchi tarbiya tufayli go‘zal va rang-barang. Tarbiya ziyosi tufayli ko‘ngillar ravshan, qalblar xotirjam, umrlar mazmundor. Chunki ilm kishining ko‘rki bo‘lsa, maqbul tarbiya uning odob kiyimi, zeb-u ziynati sanaladi. “Bola shirin, odobi undan shirin”, deb bejiz aytishmagan ulug‘larimiz.

Haqiqatan ham tarbiya inson tabiatiga xos fazilat. Go‘zal tarbiya va unga mos chuqur bilim vositasida inson jamiyatda alohida hurmat-izzat, obro‘-e’tibor topadi. Ishonch va mavqega ega bo‘lib, moddiy hamda ma’naviy boyliklar yaratib, kelgusi avlodga munosib meros qoldiradi.

Shoirlar sultoni Alisher Navoiy aytadilar: “Adab o‘rgangil-u ilm hosil qil, Ahli ma’nog‘a o‘zni vosil qil”. Ya’ni ilmni odob orqali o‘rgan va ma’rifat ahliga olingan natijani go‘zal axloq bilan namoyon qil.

Qo‘lingizga yetib turgan navbatdagi “Tarbiya” darsligida ham aynan maqsadli va mazmunli umr kechirishning mohiyati haqidagi rukn va mavzular, ularni faollashtiruvchi savol va javoblar, ijodiy topshiriqlar keltirilgan. Shuningdek, munavvar fikrli insonlarning ma’rifatga limmo-lim mulohazalari bilan boyitilgan.

Muhimi, aksariyat vaziyat va misollar tengdoshlaringiz hayotidan olingan bo‘lib, quyi sinflarda olgan ko‘nikmalaringizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aziz o‘quvchi!

Ushbu kitob bugungi tezkor globallashuv jarayonlarida sizning ma’naviy barkamol bo‘lib tarbiyalanishingizda, turli shakldagi tahdidlarga munosib kurashishingizda amaliy yordamchi, hayotiy qo‘llanma bo‘ladi, degan umiddamiz.

Mualliflar jamoasi

I BOB
OILAVIY QADRIYATLAR



Respublika
ta'lim markazi

1-MAVZU: VATAN YAGONA

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. "Yagona", "tanho" degan so'zlarni ota-ona, aka-uka va opa-singillarga nisbatan ishlatganingizda qalbingizni qanday tuyg'ular egallaydi?

2. Oilangizdagi tinchlik va oila a'zolaringizning baxt-u saodatidan qanchalik manfaatdorsiz? Nima uchun? "Baxtli oilada baxtli farzandlar voyaga yetadi va jamiyat ravnaq topadi" degan fikrga qo'shilasizmi?

3. Onangiz uchun biror-bir yaxshilik qilsangiz, minnat qilasizmi? Ona-Vatan uchun-chi? Misol keltiring. Nima uchun Ona va Vatan so'zlari birgalikda ishlatiladi?

4. "Vatan yagona" degan fikrni avvalgi bergan javoblaringiz asosida izohlashga harakat qiling.

5. Nima uchun O'zbekiston "jannatmakon diyor" deb ataladi? Misollar yordamida fikringizni asoslab bering.

Mulohaza uchun

SULOLALAR RAVNAQI

Xalqimizda "Vatan ostonadan boshlanadi" degan naql bor. Ostona bu – uy, xonadon, oila demak. Ma'lum bir oila avlodi sulola hisoblanadi. El-yurt manfaati yo'lida xizmat qilib, sulola a'zolari xalq orasida obro'-e'tibor topadi. Bu yo'l qolganlar uchun ibrat sanaladi.

Har qanday sulola o'z-o'zidan yuqori mavqega ega bo'la olmaydi. Buning uchun el-yurt orasida obro' topgan sulola vakili o'zining ibratli hayot yo'li va ezgu amali bilan taniladi, uning izidan kelayotgan avlodlar esa bu an'anani mazmunan boyitadi. Sulola obro'sini saqlab, oilaviy an'analarga sodiq bo'lgan zurriyotlarni voyaga yetkazish muhimdir...

Ijodiy faoliyat

1. Mulohaza uchun berilgan matndan kelib chiqib "Vatan", "oila", "sulola" tushunchalariga shaxsiy ta'rifingizni berishga harakat qiling.

2. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega keksalar ko'pincha: "Kimning farzandisiz? Ota-onangiz kim? Shajarangizni, katta bobolaringizni bilasizmi?"– deb so'rashadi.

3. Jamiyat ravnaqiga hissa qo'shgan qaysi sulolalarni bilasiz? Fikringizni asoslang.



Ma'naviyat xazinasidan

Vatan bor ekan, inson hech qachon o'zini yolg'iz his etmaydi, Vatan mehri va uning tafti ona mehridek issiq va tuganmasdir.

Ijodiy faoliyat

1. "Ma'naviyat xazinasi" ruknida berilgan Vatan mehri haqidagi fikrni boyiting.

2. *Ona, oila, Vatan* so'zlari qo'llanilgan hikmatlarni eslashga harakat qiling. Ularning qanchasi yodingizda qolgan? Bu hikmatlarni siz nima uchun eslab qolganingizni tushuntiring.

3. Quyidagi rasmlar asosida "Oila – Vatan ichra Vatan", degan hikmatni izohlang.

4. Rasmlar asosida *vatanparvarlik, mas'uliyat, burch* so'zlariga ta'rif bering.



















Respublika
ta'lim markazi

Tarixga nazar



Mardlik va shijoat tarixi

Bosqinchilar Xorazmga hujum boshlaganida Najmiddin Kubro shogirdlarini to‘plab, shunday deydi: *“Mashriqdan kelgan bu balo Mashriq-u Mag‘ribni yakson etadi, yondirib, kul qiladi. Sizlar yurtingizga boring, joningizni asrash payida bo‘ling”*.

Ular ustozlarini o‘zlari bilan ketishga ko‘ndirmoqchi bo‘lishadi. Bunga javoban shayx Najmiddin Kubro: “Men shu yerda qolaman. Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim!” – deydi.

Mo‘g‘ul askarlari Gurganjga kirganda shayx shogirdlari bilan jangga shaylanadi. U xirqasining ustidan belbog‘ bog‘lab, qo‘ynini tosh bilan to‘ldiradi, qo‘liga nayza olib, dushman qarshisiga chiqadi.

Dushmanga qarab tosh otadi, bir nechtasini nayza bilan urib yiqitadi. Ammo kamon o‘qi kelib ko‘kragiga sanchildi.

Alisher Navoiyning yozishicha, yetmish besh yashar mo‘ysafid – qalblarni nurlantirgan Shayxi Kabir holdan toyib, kuchi ketayotganini sezsa ham, jangni to‘xtatmaydi. So‘nggi nafasida dushman bayrog‘ini g‘azab bilan mahkam g‘ijimlab oladi.

Aytishlaricha, vafotidan keyin o‘nta odam uning mahkam qisilgan panjalari orasidan bayroqni zo‘rg‘a ajratib olgan. Najmiddin Kubroning bu qahramonligi, jasorati dushmanni ham hayratga solgan. Bu jasorat avlodlarga ibrat bo‘ldi.

Ijodiy faoliyat

Barchamizga yaxshi ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Shavkat Mirziyoyev

1. Yuqorida berilgan fikrning “Mardlik va shijoat tarixi” nomli matn bilan qanday bog‘liqligi bor?

2. Jamiyat ravnaq topishi uchun uning “ma’naviy asosi” mustahkam bo‘lishi kerak, deganda nimani tushundingiz?



Tarixga nazar



Bunday tuyg'uni ta'riflash qiyin

2016-yil avgust. Oilamiz bilan Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tayotgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarini kuzatamiz. Vazni 64 kilogramm bo'lgan yurtdoshimiz Fazliddin G'oibnazarov ozarbayjonlik Lorenzo Kollazo Sotomayor bilan boks tushmoqda. Fazliddinning bo'yi raqibidan ko'ra ancha pastroq ekanligi barchamizni xavotirga solardi. Mana, so'nggi raund ham tugadi. G'olib e'lon qilindi. Fazliddin shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Hammamiz xursand, oilamizdagi barchaning nigohi teleekranga qaratilgan. Mamlakatimiz madhiyasi ijro etilmoqda. Shu vaqt 2-sinfda o'qiydigan ukam Muhammadamin shasht bilan o'rnidan turib, hammamizga e'tiroz bildirdi:

– Nimaga butun dunyo bizning madhiyamizni ijro etayotganida sizlar choy ichib, televizorga qarab o'tiribsizlar, turinglar, – deb televizor ovozini yanada balandroq qilib qo'ydi.

Barchamiz o'rnimizdan turdik, qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, madhiya ijro etdik. Madhiya tugagach, hammamizning ko'zimizga yosh qalqidi... Ko'zlarimda yosh halqalanib, lablarim: "Olamni mahliyo aylagan diyor", deya pichirlar, qalbimni iftixor egallagan edi. Bunday tuyg'uni ta'riflash qiyin.

Iroda Obidova, 2017-yilda o'tkazilgan
"O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha esselar tanlovi" g'olibi

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. QR kodda berilgan lavhani diqqat bilan tomosha qiling. Mamlakatimiz madhiyasini eshitganingizda qalbingizdan nimalar o'tadi? Muhammadaminning o'rnida siz nima qilgan bo'lardingiz? Uning talabini qo'llarmidingiz? Nima uchun?

2. Yurtimizga tashqaridan qanday tajovuzlar xavf solishi mumkin?

3. Vatan taraqqiyotida oilaning tinchligi, osoyishtaligining ahamiyati qanday? Fikringizni asoslang.

4. Guruhlarga bo'linib "Vatan ostonadan boshlanadi" mavzusida loyiha ishi tayyorlang. Loyihani "O'zbekiston haqida tarixiy asarlar", "O'zbekiston geografiyasi", "O'zbekistonning qadimiy shaharlari", "O'zbekiston haqida filmlar", "O'zbekiston Qahramonlari" kabi ruknlarda tayyorlang va taqdimot qiling.

Respublika
ta'lim markazi

2–3-MAVZU: OILA – VATAN ICHRA VATAN

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Baxtiyor oilani qanday tasavvur qilasiz? Baxtiyor oilani kimlar yaratadi?
2. Baxtiyor oila qanday mezonlarga asoslanadi?
3. "Oila – mehr-oqibat maskani" degan tushunchaga ta'rif bering.
4. Baxtiyor oila shakllanishida milliy an'analarning qanday o'rni bor?

Mulohaza uchun

Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.

Oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki ayni paytda millatning ham iqtidori, obro' va e'tiborini belgilaydigan zanjir halqasidir. Millat esa Vatan, mamlakatning yuragi.

Abdurauf Fitrat, "Oila yoki oila boshqarish tartiblari"

1. Ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat "ichki intizomi va totuvligi" deganda nimani nazarda tutgan?
2. Oiladagi iqtidor va mas'uliyatning mamlakat obro' va taraqqiyotidagi o'rni haqida o'z fikringizni bildiring.

Tarixga nazar

Temuriy shahzodalarning tarbiyasi asosan ularning momolari zimmasida bo'lgan. Xususan, Saroymulkxonim Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'beklar tarbiyasi bilan shug'ullangan.

Ijodiy faoliyat

1. Bobo va buvilarning inson ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodi shakllanishida qanday o'rni bor?
2. "Oilada yozilmagan qonun-qoidalar asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, sayqal topib boraveradi" degan fikrni siz qanday izohlaysiz?
3. Sizning oilangizda qanday an'analar bor?

Mulohaza uchun

“Ovqatni suzaveraymi?”

1-voqea:

“Ovqatni suzaveraymi?” – oshxonadan Dilbar kelinoyining ovozi keldi. “Onajon, bobom hali dasturxonga kelmadilar”, – deb javob berdi Murodjon. Dasturxon atrofida barcha jam bo‘ldi va osh suzildi. Murodjonning bobosi: “Qani, olinglar, mana men boshladim...” – dedi.

Ijodiy faoliyat

Bu hikoyadagi vaziyat sizga tanishmi? Yuqoridagi vaziyatni oilaviy an’ana deyish mumkinmi? Bunday holatlar inson ma’naviyatining shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Har birimizning hayotda o‘z ijtimoiy vazifalarimiz bor. Ota-ona va farzandlarning ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat? Fikrlaringizni asoslash uchun yana qanday vaziyatlarni misol qila olasiz?

Mulohaza uchun

“Bunday ishlar telefonda emas, uyda hal etiladi!”

2-voqea:

Nodir universitetning 2-bosqich talabasi. Kursdoshlari Samarqand va Buxoro shaharlariga sayohatga chiqmoqchi bo‘lishdi. Boradiganlar ro‘yxati tuzildi.

– Nodir, sen nimaga bormaysan? Ro‘yxatda yo‘qsan? – deb so‘radi kursdoshlari.

Nodir:

– Men uydagilardan ruxsat so‘ray. Ularning shanba-yakshanbaga rejalari qanday ekanini bilmayman. Javobimni ertaga aytaman, – dedi.

– Voybo‘! Telefonda so‘rab qo‘ya qol! – deb norozi bo‘ldi o‘rtoqlar.

– Bunday ishlar telefonda emas, uyda hal etiladi! – dedi Nodir.



Ijodiy faoliyat

1. Hikoya nima uchun **“Bunday ishlar telefonda emas, uyda hal etiladi!”** deb nomlangan? Nodirning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lardingiz?

2. Do‘stlaringiz sizga shu kabi taklif bildirganida “Men uydagilardan ruxsat so‘ray. Ularning bu kunga rejalari qanday ekan, keyin javobini aytaman”, deb javob berganmisiz? Bunday javob berishingizning ortida qanday an’analar turadi? 4 ta fakt keltiring.

Respublika ta'lim markazi

Mulohaza uchun

“Mahallada duv-duv gap”

3-voqea:

Mehri aya hovliga kirib kelgan mehmonni iliq kutib oldi.

– O‘g‘lingiz Azimjon sizga salom dedilar, – dedi mehmon qiz, keyin qo‘shib qo‘ydi: – O‘g‘lingiz yozgandilar-ku, syurpriz deb...



– Ha, hozirgina qo‘shnim bilan shu haqida gaplashayotgandik.

– O‘g‘lingiz uylandilar...

– Nima?

Mehri xola ko‘ylagining bo‘yin tugmalarini yechdi, turgan joyida ko‘zlari jovdiradi, behalovat bo‘lib, titragan tovushda, shasht bilan dedi:

– Xotin olibdimi?... Nafasim qaytib ketyapti, dunyo tor bo‘lib ketyapti. Meni bunday bolam yo‘q... Xotin olibdimi? Qayoqqa olib borsa boraversin, men uyimga qo‘ymayman...

Mehmon narsalarini yig‘ishtirib, ketishga hozirlandi.

– Siz qayoqqa? – dedi Mehri aya taajjubda.

– Sizga dardisar bo‘lmay, mensiz ham qayg‘uyingiz oshib ketdi, – javob berdi qiz.

– Shunday vaqtda siz ham meni tashlab ketasizmi? – xafa bo‘ldi Mehri aya. Mahalla-ko‘y nima deydi? Mo‘ljallab yurgan qizlarim bor edi, bittasi Sayyora, yana biri anovi baland binolarning suratini chizgan arxitektor qiz...

Ijodiy faoliyat

1. Yuqoridagi uchta voqeada qanday oilaviy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar yashiringan? Ulardagi qaysi qadriyat yoki urf-odatlar sizga ma’qul bo‘ldi?

2. “Mahallada duv-duv gap” filmidagi Mehri ayaning o‘g‘li xato qildimi? Fikringizni asoslang.

3. Oila qurish, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi qadriyatlar saqlanib qolishi uchun nima qilish kerak?

4. Ma’nan yetuk, yangilikka intiluvchan, ezgu niyatli, jismonan baquvvat, irodasi kuchli, qat’iyatli insonlar kamol topishida oilaviy qadriyatlarning ta’siri qanday ekanini tushuntirib bering. Fikringizni misollar bilan izohlang.

Ma’naviyat xazinasidan

Oilangga qilgan yaxshiligingni Vataningdan ham ayama, undan oilang ham, jamiyat ham naf ko‘rsin.

Mulohaza uchun

Luqmoni Hakimdan “Nega o‘g‘lingizga juda ko‘p nasihat qilasiz?” deb so‘rashdi. U zot shunday javob berdi: “Yoshlarga nasihat qiladigan keksalar ko‘chatlarni voyaga yetkazadigan bog‘bon kabidir. U vaqti-vaqti bilan ko‘chatlarning ortiqcha shoxlarini kesadi, ular atrofidagi begona o‘t-o‘lanlarni tozalab tashlaydi.

Xullas, uning serhosil bo‘lib o‘sishi uchun bor kuch-quvvatini sarflaydi. Agar shunday qilsa, nihol yaxshi o‘sib, unadi. Zero, u hosilga kirgach, mevasi asaldek shirin bo‘ladi. Aks holda, bog‘bon beparvo bo‘lib, ko‘chatlarning ortiqcha shoxlarini kesmasa, ular baland o‘sib, yaxshi hosil bermaydi. Natijada, bunday niholdan bog‘bonga foyda yo‘q”.

Ijodiy faoliyat

Bog‘bon yerga ishlov bermasdan, ko‘chatni talab darajasida ekmasdan serhosil va ko‘p yillar hosil beradigan daraxt yetishtira oladimi? Daraxt parvarish qilinmasa, uning oqibati nima bo‘lishi mumkin? Mazkur matnni farzand, oila va jamiyat bilan bog‘lab tushuntiring.

Mulohaza uchun

O‘z mehnating qadriga yet!

Uyimizda hamisha o‘n-o‘n beshta qo‘y boqar edik. Har yili qish fasli kelgunga qadar qo‘ylarimizni cho‘ponga – qir-adirga berib yuborar edik. Bir kuni cho‘ponimiz qo‘yimiz ikkita tuqqani va uni uyga olib ketishimiz kerakligi to‘g‘risida xabar yuboribdi.



Katta yuk mashinasida olib kelayotganimizda qo‘zichoqlardan birining oyog‘i sindi. Men uning oyog‘iga taxtakach bog‘lab, roppa-rosa bir oy qaradim.

Kunlarning birida, sho‘xlikdan, albatta, uyimiz yonidan oqib o‘tadigan ariq quvurining ichidan boyagi qo‘zichoqni o‘tkazmoqchi bo‘ldim.

Respublika
ta'lim markazi



Lekin "tajribam" o'zini oqlamadi: qo'zichoq quvurning o'rtasiga kelib to'xtab qoldi. Uni chiqarib olish uchun ancha urindim. Shu payt ariqchaning suvi ko'payib, qo'zichoq suvning tagida qolib ketdi.

Hech yodimdan chiqmaydi: o'shanda otam rosa ta'zirimni berdi.

Bir hafta o'tgandan so'ng, otam yoniga chaqirib: "O'g'lim, men seni qo'zichoqni mayib qilganing uchun emas, balki o'z mehnatingning qadriga yetmaganing uchun jazoladim. Chunki sen o'sha qo'zichoqqa mehringni berib qarading, oyog'ini tuzatding, so'ng esa mehnating natijasini o'z qo'ling bilan yana yakson qilding.

Bundan buyon hayotda hech qachon bunday yo'l tutmagin", – dedi.

Ijodiy faoliyat

1. Nima uchun oilada mehr ustunlik qilishi kerak?
2. Bergan javobingizni "O'sha qo'zichoqqa mehringni berib qarading, oyog'ini tuzatding, so'ng esa mehnating natijasini o'z qo'ling bilan yana yakson qilding" degan fikr bilan bog'lang.
3. Siz oila a'zosi sifatida oilangizda doimo baxt ustunlik qilishi uchun qanday yo'l tutishingiz zarur?

Bilasizmi?

Oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 10-moddasidan.

Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi matndagi fayz-baraka, ibrat, tarbiya, to'kin-sochinlik, shod-u xurramlik tushunchalariga o'z ta'rifingizni bering.
2. "Farzand – go'zal tarbiya merosxo'ri" deganda nimani tushunasiz? Siz bu borada qanday merosga egasiz?

TOTUV OILA – JAMIYAT TAYANCHI

Oilada ota – fayz-baraka, ibrat timsoli, ona – mehr-muhabbat, tarbiya o'chog'i, farzand esa go'zal tarbiya merosxo'ridir. Oilada nuroniy bobo va buvilarning borligi to'kin-sochinlik, shod-u xurramlik, o'zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlaydi. Bunday muhitda voyaga yetgan farzand munosib tarbiya topadi. Oilalar kamoli oxir-oqibat jamiyat farovonligiga munosib hissa qo'shadi.

Ma'naviyat xazinasidan

Falokatga duchor bo'lishni istamasang, mag'rur va mutakabbir bo'lma. Xor-u zorlikni istamasang, tamagir bo'lma. Pushaymon bo'lishni istamasang, avval tajribali insonlar bilan kengashib, so'ngra ishga kirish. O'zingni hammaga sevdirishni istasang, fe'l-atvoringni tuzat, odobli, tarbiyali bo'l. Obro'ga, izzat va hurmatga ega bo'lishni xohlasang, halol mehnat qil, yolg'onchilikdan saqlan, chaqimchi, ig'vogar bo'lma, ma'nisiz so'zlarni aytib yurishdan hazar qil. Mabodo o'ng'aysiz holga tushsang, ishingda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, qayg'u-hasrat ichida qolsang, dod-faryod qilib yurma, sabr qil...

Ijodiy faoliyat

1. Abdurauf Fitratning "*Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar*" degan fikrini tahlil qiling va o'z munosabatingizni bildiring.

2. Agar oilaning baxti va saodatini ta'minlash sizga topshirilganda, qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz? Fikringizni yozma bayon eting.

3. Alisher Navoiy aytgan ishlarni qila olasizmi? Savolga javob berishda har bir xatti-harakatingizning ota-onangizga qanday ta'siri bo'lishi mumkinligini ham inobatga oling.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
Ikki jahoninga tilarsan fazo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.



Respublika ta'lim markazi

Mulohaza uchun

QO‘SHNI

Lutfiyaxon zarurat tufayli ishxonasidagi dugonasidan qarz oldi. O‘ylay-o‘ylay turmush o‘rtog‘i to‘yida sovg‘a qilgan bilaguzugini sotishga qaror qildi. Qo‘shnisi Farida opaning oldiga bilaguzugini olib chiqib sotmoqchi bo‘ldi. Farida opa ro‘parasida yashaydigan qo‘shnisi Lazizaxon bilan suhbatlashib o‘tirgan ekan. Lutfiyaxon qo‘shnilarining ikkalasi ham o‘ziga to‘q oilalardan, unisi bo‘lmasa, bunisi olar narsamni, degan xayol o‘tdi boshidan.

– Nega bilaguzugingizni sotmoqchisiz? – ajablanib so‘radi qo‘shnisi.

– Qarz olib qo‘ydim, shuni to‘lashim kerak, – yerga qarab javob berdi Lutfiyaxon.

– Ko‘p o‘ylamang, qo‘shni, – unga taskin berdi Farida opa. Siz bilaguzukni sotmang, mening ozgina yig‘ib qo‘ygan pulim bor, beraman, topganingizda qaytararsiz. Agar qiynalsangiz, buni qarz deb bilmang, qo‘shnichilik – ming yilchilik, deyishadi, – dedi Farida opa. Lazizaxon Farida opaning ishidan norozi bo‘lib, qoshlarini chimirib og‘iz juftladi, lekin Faridaning o‘tkir nigohi uni fikridan qaytardi. Lutfiyaxon minnatdorchiligini yashira olmadi, ko‘zlariga yosh qalqidi.

1. Nima deb o‘ylaysiz, Lutfiyaxon nima uchun bilaguzugini aynan qo‘shnilariga sotmoqchi bo‘ldi?
2. Farida opaning “qo‘shnichilik ming yilchilik” degan gaplarini qanday izohlaysiz?
3. Lazizaxon nimadan norozi bo‘ldi? Lazizaxonning qo‘shnisiga munosabatini qanday baholaysiz?

Ma’naviyat xazinasidan

Ota-onangizning aytgan so‘zlari sizga yoqmasa, ularni jerkib, ko‘ngillarini og‘ritmang, ularga yomon so‘z aytib, behurmat qilmang. Bemor bo‘lib qolganingizda qoshingizda parvona bo‘lib, sizdan ko‘ra ko‘proq g‘am-alam chekib, qayg‘urganlar ham ulardir. Ozroq kechikib qolsangiz, intizorlik bilan kutadilar. Ular sizning diydoringizni ko‘rib quvonishadi. Ularning oldida hatto uf ham demang. Ulg‘ayib, kelajakda oila qursangiz ham, ular uchun bolasiz.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. “Oilam, mahallam, Vatanim mening taqdirimda” mavzusida o‘rtoqlaringizdan intervyu oling. Tengdoshlaringizga “Agar oila boshlig‘i bo‘lsangiz...”, “Agar mahalla raisi bo‘lganingizda...”, “Agar hokim bo‘lganingizda...” kabi savollar bilan murojaat qiling.
2. O‘zingiz yashaydigan mahallaning 10 yildan keyingi kelajagini tasavvur qiling. Mahallaning kelajagini tasvirlab bering.

4–5-MAVZU: OILA – BAXT QO‘RG‘ONI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Oilangizda kimga qanday muomalada bo‘lasiz?
2. “Nutq madaniyati dastlab oilada shakllanadi va rivojlanadi” degan fikrga qanday qaraysiz? Fikringizni asoslang.
3. Baxtli inson deganda qanday inson ko‘z oldingizga keladi? Qanday insonlarni baxtli deb atash mumkin?
4. Nima uchun baxtni hamma har xil tushunadi? Baxtli bo‘lish uchun nima qilish kerak?

Mulohaza uchun

Xorijlik mehmonning hayrati

Jahon tillari universitetida o‘qirdim. Universitetga kelgan xorijlik mehmonning o‘zbek tilida biyron-biyron gapirishi e’tiborimni tortdi. Mehmon o‘zbek xalqi urf-odatlarini o‘rganayotgan ekan, uni uyga taklif qildim.



Mehmon:

– Men tushunmayapman, Sizlarning oilangizda ham xuddi bizdagidek, ota-bolaga bir xil ism qo‘yar ekan-da?

– Nega bunday deyapsiz?

– Hozir onangiz dadangizni Murod deb chaqirdilar-ku!? Sizning ham ismingiz Murod-ku?..

Ijodiy faoliyat

1. Siz nima deb o‘ylaysiz? Ota-bolaning ismi bir xilmi? Murodjon nima deb javob bergan?
2. Buning asosida qanday qadriyat yoki urf-odat bo‘lishi mumkin?

Ma’naviyat xazinasidan

Eshitib ota-onangni, so‘zlarini qadrla,
Mol-u mulking ko‘paysa, mag‘rurlanib quturma.

Mahmud Koshg‘ariy

Respublika ta'lim markazi

Mulohaza uchun

Xonadonga kelin tushdi

– Gulshan qizim, dadang keldi, chiqib kutib olmaysanmi?

– Oyi, men shu yerdaman-ku!

Ona qiziga ma'noli qarab qo'ydi-da:

– Iye, shu yerdamiding? Ko'rmay qolibman.

Xonadonga tushganiga bir hafta bo'lmagan kelin yugurib chiqdi-da:

– Assalomu alaykum, dadajon, yaxshi keldingizmi? – dedi.

...

Kelin hovli supuryapti. Ona:

– Gulshan qizim, chiq, hovlini supurishga qarashib yubor.

– Voy, oyi...

Gulshanning gapini onasi yana bo'lib:

– Sen hovlini tepadan pastga qarab supur, hovli ko'cha eshigiga qarab supuriladi.

Ertasi kuni kelin hovlini ona aytganidek supura boshladi...

Ijodiy faoliyat

Bunday voqealarning guvohi bo'lganmisiz? Nima uchun Gulshanning onasi qiziga tanbeh berdi? Bu tanbehdan kelin qanday xulosa chiqardi? Bunday muomala zamirida qanday qadriyatlar yashiringan? Fikringizni xalq maqollari bilan bog'lab tushuntiring.

Mulohaza uchun

Yangi mehmon

Bobo chaqaloqni erkalab: "Polvon bolam, botir bolam katta bo'lsin. Otasining tayanchi bo'lsin", – deb duo qila boshladi.

Uni eshitib turgan Zarifa: "Bobo, meni ham botir deb aytmaysizmi?" – dedi.

"Voy, shirin qizim, oppoq qizim, sen mening ona qizimsan", – deb erkalay boshladi bobosi.

Ijodiy faoliyat

1. Sizning oilangizda kattalar qizlarga va o'g'il bolalarga qanday muomala qiladilar?

2. Nima uchun qizlarga "ona qizim" deb murojaat qilinadi?

3. Jamiyat ravnaqi uchun uning negizi bo'lgan oilalarda tarbiya qanday yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak?

Ma'naviyat xazinasidan

Ey farzand! Har kim bilan muomalada bo'lganingda o'zingni shunday tutginki, bunga qarab insonlar sening qanday oilada tarbiya topganingni ham, aql-u idroking va fahm-u farosatingni ham e'tirof etishsin...

Til insonning jisman eng kichik, ammo mas'uliyat va vazifasi jihatidan katta e'tiborga loyiq a'zosidir. Uni faqat xayrli, yaxshi so'zlar uchun ishlatish va yomon, dilozor so'zlarni aytishdan saqlash lozim. Shu sababli faqat yaxshi narsalarni gapir, yoki jim turishni o'zingga odat qil!

Ijodiy faoliyat

1. Yuqorida berilgan matn asosida esse yozing.
2. Oilada to'g'ri muomala madaniyati shakllanishida oila a'zolarining o'zaro ta'siri qanday bo'lishi kerak? O'z oilangiz misolida izohlab bering.
3. Tilning qanday mas'uliyatli vazifasi bor? Siz bu mas'uliyatga qanday qaraysiz?
4. Sinfdoshingiz g'ashingizga tegadigan so'zlar bilan jahlingizni chiqardi, deylik, siz bu holatda o'zingizni qanday tutasiz? Fikringizni asoslang.

Mulohaza uchun

1890-yillarning oxirlarida Detroytdagi elektr kompaniyasi haftasiga 11 dollar evaziga yosh mexanikni ishga yolladi.

U kuniga 10 soat ishlar, uyga qaytgach, tonggacha omborxonada yangi turdagi dvigatelni ixtiro qilishga urinar edi.

Otasi unga vaqtini behuda o'tkazayotganini aytsa, qo'shnilar uning aqldan ozgani haqida mish-mish tarqatdi.

Turmush o'rtog'idan boshqa hamma uning urinishlariga shubha bilan qarardi.

Faqat ayoli uning g'oyasiga ishondi. Kechalari soatlab davom etgan tajribalari chog'ida kerosin lampasini ko'targancha, ishlashiga yordam berar edi.

Ayolning qo'llari ko'karib ketar, oyoqlari tolar, sovuqdan tishlari taqillab qolganida ham uning yonidan jilmas edi...



Respublika
ta'lim markazi

Yillar o‘tdi. Bir kuni ombordan noodatiy shovqin eshitildi. Otsiz aravada ketayotgan telba va uning rafiqasini ko‘rgan qo‘shnilar aqldan ozay deb qoldilar. Temir aravadagi Henri Ford va uning rafiqasi edi.





Bir necha yillardan so‘ng, keksayib qolgan Henri Fordga jurnalist savol berdi: “Qayta tug‘ilsangiz, kim bo‘lishni xohlar edingiz?” Henri Ford jilmaydi va soddagina javob qaytardi: “Kim bo‘lsam ham, qayerda tug‘ilsam ham, rafiqam yonimda bo‘lsa bo‘lgani...”

Ijodiy faoliyat

1. Bolalikdan kattalikka nimani olib o‘tish muhim?
2. Henri Fordning javobi haqida nima deya olasiz?
3. Baxtni siz nima deb tushunasiz? Nima uchun?
4. So‘zlash va tinglay bilish ham muloqot madaniyatining asosiy qismini tashkil etadi. Bu haqda Yusuf Xos Hojib: “O‘ynab so‘zlasang ham, o‘ylab so‘zla”, boshqa bir alloma: “Shunday gapirginki, so‘zlaring sadaf qadriga teng bo‘lsin, shunday sukut saqlaginki, u dur-u gavharga aylansin”, – degan.

“O‘ynab so‘zlasang ham, o‘ylab so‘zla” degan hikmatda qanday ma’no yashiringan? Inson qanchalik to‘g‘ri o‘ylay oladi deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.

Nima uchun insonning so‘zlari sadafga o‘xshatiladi? So‘zni yana qanday qimmatli toshlarga o‘xshatish mumkin?



Ijodiy faoliyat

Bobom doim ta'kidlaydilar: "Aziz nabiram, bir kishi bilan muloqot qilganda zinhor qattiq gapirma va suhbatdoshingning so'zini bo'lma. Insonning go'zal xulqi uning tavozesi, shirinsuxanligi va samimiyligi bilan o'lchanadi. Bunday sifatlarga ega bo'lgan inson haqiqiy ma'rifatli insondir".

1. Muomala madaniyati rivojlangan insonlar bilan ma'rifatli insonning farqi nimada? Fikringizni asoslang.
2. Muloqot madaniyatiga ega bo'lmagan kishi qanday ezgu xislatlardan bebahra qoladi?
3. "So'zlash ma'rifatdan, tinglash madaniyatdan, anglash ma'naviyatdandir" degan fikrni sharhlashga harakat qiling.

Mulohaza uchun

Ona haqida uch hikoya



Mahalla idorasiga yoshi qirqlardan oshgan kishi kirib keldi. Mahalla raisi uning bezovtaligini sezib:

– Nima bo'ldi? – deb so'radi.

– Kampirni berib qo'ydik!

– Qaysi kampir?

– Onamni... – deb javob berdi kishi.

***

Ustozimnikiga bir zarur ish bilan bordim. Tushlik vaqti edi.

– Siz o'tirib turing, men hozir, – deb ichkariga kirib ketdi.

Ichkarida uning kimnidir erkalab-erkalab ovqatlantirayotganini eshitdim. Ha, nabiralaridan biri bilan gaplashyapti meni kuttirib, deb xafa bo'ldim.

– Onajonim, mehribonim, yana bir qoshiq yeng, iltimos, keling, men yordam beraman..." degan ovoz eshitildi.

Bilsam, ustozimning sakson yoshdan oshgan onalari bo'lib, u kishi yaqinda insultdan tuzalgan ekanlar.

***

Maktab hovlisida 10-sinfda o'qiydigan qiz telefonda kimgadir do'q qilib gapirardi.

Respublika ta'lim markazi

– Meni tinch qo‘yasizmi, yo‘qmi? Siz o‘zi nimani tushunasiz? Men bilmayman, bugun dugonalarim bilan kafeda o‘tiramiz, menga pul kerak. Qachon pul so‘rasam, doim pulim yo‘q deysiz... Men sizdan xafaman.

Yonida turgan dugonasi bir telefonga, bir dugonasiga qaradi-da, yig‘lab yubordi. Qiz go‘shakni qo‘yar ekan:

– Ha, nima bo‘ldi? Nega aza ochasan?

– Onam esimga tushdilar.

– Onangga nima qilgan?

– Vafot etganlar... Sen juda baxtlisan. Baxtingning qadriga yet!

Ijodiy faoliyat

1. Berilgan hikoyalardan qanday xulosa qildingiz?
2. Birinchi va uchinchi voqeaning guvohi bo‘lsangiz, nima degan bo‘lardingiz?
3. Yaqinlaringizga qachon oxirgi marta yoqimli so‘z aytgansiz?
4. Oila a’zolaringizga aytadigan yoqimli so‘zlaringizning ro‘yxatini tuzing. Nechta so‘z bo‘ldi? Bu so‘zlarni bir kunda necha bor takrorlaysiz?
5. **“Men qadrlayman...” o‘yini.** Quyidagi fikrlarni to‘ldirib davom ettiring va daftaringizga yozing: “Men o‘zimdagi ... ni qadrlayman”, “Men oila a’zolarimning ... fazilatlarini qadrlayman”, “Men hayotda ... ni qadrlayman”.

Ma’naviyat xazinasidan

Agar men hayotda qandaydir muhim kashfiyot qilgan bo‘lsam, asosan sabrim va e’tiborim tufayli qilganman, boshqa qandaydir iste’dodim tufayli emas.

Isaak Nyuton

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Qachon inson baxt-saodatga erishadi?
2. Kattalar yoshlarni duo qilib: “Baxtli va saodatli bo‘linglar”, – deganda nimani nazarda tutadilar?
3. “Otam – davlatim, onam – boshimdagi tojim” degan fikrni qanday tushunasiz? “Oila – baxt qo‘rg‘oni” mavzusida yoshi kattalar ishtirokida video intervyu tayyorlang:

a) qahramoningizni tanlang; b) savollarni shakllantiring; d) har bir savolga berilgan javobni diqqat bilan tinglang va xulosa qiling.

6–7-MAVZU: OILADAGI BURCH VA MAS'ULIYAT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. "Har bir insonda burch va mas'uliyat dastlab oilada yuzaga keladi" degan fikrni qanday asoslaysiz?

2. Nima deb o'ylaysiz, oilangiz oldidagi burchlaringiz kimlar tomonidan o'rnatilgan? Siz ularga qay darajada amal qilyapsiz? Ularga amal qilmaslikning oqibatini o'ylab ko'rganmisiz? Fikringizni izohlashga harakat qiling.

Mulohaza uchun

Umid qilma, qaror qil!

O'sha kuni xorijdan qaytayotgan akamni kutib olish uchun aeroportga chiqqandim. Men kutayotgan samolyotning kelish vaqti kechiktirilgani bois turli-tuman shaharlardan kelayotgan yo'lovchilarni kuzatib, o'zimni chalg'itishga urinayotgan edim.

Yonimda jajji qizalog'ini ko'tarib olgan o'rta yoshlardagi ayol ham ikki o'g'li bilan kimnidir kutib turibdi. Ko'p o'tmasdan oila jonlanib qoldi va bolalar aeroport terminalidan shoshib chiqib kelayotgan, yelkasiga osma yuk xaltasini ilib olgan erkakka qo'l silkiy boshlashdi.

U kishi oila oldiga kelib, qo'lidagi yuklarni o'rindiqqa qo'ydi va bolalarni birma-bir o'pib, bag'riga bosdi. Uning bu harakatlaridan oila boshlig'i ekani ko'rinib turardi.

– Mensiz qiynalib qolmadingizmi? Hammangiz sog'-salomat ekaningizdan xursandman, – dedi u.

Keyin ota bolalarning yoshi kattasiga yuzlandi va kafti bilan uning sochlarini to'zg'itib erkaladi.

– O'g'lim, katta yigit bo'lib qolibsan! Safardaligimda onang va ukalaringga g'amxo'rlik qilganing uchun sendan xursandman, – dedi.

– Sen-chi, o'g'lim, maktabga boryapsanmi? Mana, yana birgamiz. Seni kechki sport mashg'ulotlaringga o'zim olib boraman, – deb kichkina o'g'lini o'ziga yaqinroq tortdi.

Keyin esa ko'tarib olgan chamasi ikki yoshlardagi qizalog'ini erkalab bag'riga bosdi.

Bu manzarani tomosha qilar ekanman, oiladagi mehr-muhabbat rishtalaridan butkul ta'sirlandim. Oila qurganimga ikki yildan oshgan bo'lsa-da, oilaviy munosabatlarda bunaqangi holatni ko'rmagandim.



Respublika
ta'lim markazi

– Kechirasiz, – dedim oila boshlig‘iga beixtiyor. U kishi uzoq parvozdan keyin toliqqan ko‘zlarini menga tikdi.

– Anchadan buyon safarda bo‘lgan ko‘rinasiz? – dedim qiziqsinib.

– Ha, uch kunlik xizmat safarida edim, – degan javobi meni yanayam shoshirib qo‘ydi. Ishongim kelmasdi, lekin u rost so‘zlayotgani aniq. Keyin turmush qurishganiga qancha bo‘lganini so‘radim. U kishi turmush o‘rtog‘iga qarab jilmaydi va shu bahorda nikohlariga o‘n to‘rt yil to‘lganini aytdi. Hayratim yanada oshdi.

– Qoyil, umid qilamanki, mening ham oilamga, ayolimga bo‘lgan e’tiborim o‘n yillardan keyin xuddi shunday yuqori bo‘ladi, – dedim savollarimni izohlagan bo‘lib.

Shunda meni tushungan oila boshlig‘i miyig‘idagi tabassum o‘rnini jiddiylik egalladi, menga o‘tkir va xotirjam nigoh bilan boqdi.

– Umid qilma, qaror qil, do‘stim! Zero, erkakning o‘z oilasini farog‘atga boshlashi uning umidlariga emas, qarorlariga daxldor masala, – dedi u va bu yo‘lda menga omad tilab xayrlashdi.

Ijodiy faoliyat

Topshiriqni mustaqil bajarishingiz tavsiya etiladi.

Berilgan fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri, qaysi biri noto‘g‘ri ekanligini “Ha” yoki “Yo‘q” tarzida ifodalang.

Farzandlarning burchlari

1. Ota-onani hurmat qilish, ularning nasihatlariga quloq solish.
2. Agar ota-onasi aytayotgan yumushlarni ko‘ngildagidek bajarishiga ko‘zi yetmasa, bunday holatda vaziyatdan kelib chiqib ish tutish.
3. Ilm olish, kasb-hunar egallash va vaqti-soati kelib ota-onasining roziligi bilan turmush qurish.
4. Ota-ona, aka-uka, opa-singillarga imkon qadar moddiy va ma’naviy yordam berish.
5. O‘zining arzimas tashvish va muammolarini faqat ota-onasiga aytish.
6. Uy-ro‘zg‘or ishlarida ota-onasiga ko‘makchi bo‘lish.
7. O‘z yaqinlariga ozor bermaslik.
8. Har ishda ota-ona bilan maslahatlashish.

1	2	3	4	5	6	7	8

Mulohaza uchun

El-yurt orasida yuksak hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan tabarruk bir ota-xondan "Siz bunday martabaga qanday erishdingiz?"– deb so'rashibdi. U kishi shunday javob beribdi:

1) yoshligimdan yuksak orzularni maqsad qildim;
2) ota-onam xizmatidan bo'yin tovlamadim;
3) ustoz-murabbiy va yaxshi niyatli insonlarning o'gitlariga og'ishmay amal qildim;
4) tug'ilib o'sgan joyimni o'z oilamdek muqaddas bildim;
5) oilam qadriyatlariga sodiq qoldim;
6) so'zimda to'g'ri, ishimda halol bo'ldim;
7) do'stlarim muvaffaqiyatlariga o'zimning muvaffaqiyatimdek sevindim;
8) birovning yaxshiligini unutmadim;
9) boshqalar haqqiga ko'z olaytirmadim;



10) kitob o'qish va ilm olishdan erinmadim;
11) kasbimga oid yangiliklarni o'rgandim va tatbiq etdim;
12) jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanib, sog'lig'imga e'tibor qaratdim;
13) doimo oldinga intilib yashadim;
14) farzandlarim ta'lim-tarbiyasi, oilamning sha'nini hayotimning bosh masalasi deb bildim.

Ma'naviyat xazinasidan



Ey farzand, bilg'ilkim, aql yuzasidan farzandg'a ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim, uning asli ota-onadur. Ota-onani nima uchun hurmat qilurman, deb ko'nglingg'a kelturmag'il, bilg'ilki, ular sening uchun o'limg'a ham tayyor turaturlar.

Har bir farzand, oqil va dono bo'lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqqini ado qilmoqdin xoli bo'lmag'usidur. Ey farzand, shul vajdin ota-onangni ozgina ham ranjitmag'il.

Kaykovus

Respublika ta'lim markazi

Ijodiy faoliyat

1. “Oiladan boshlangan mas’uliyat jamiyatning fidoyi a’zosiga aylanatiradi” degan fikrni yuqoridagi matn bilan bog‘lab tushuntiring.
2. O‘zingiz yashayotgan joy, mahallangizdagi shunday hurmatli insonlarni bilasizmi? Ularning qaysi fazilatlari sizga yoqadi va nima uchun?
3. Siz ham hayotda ularga o‘xshashingiz uchun o‘zingizda qanday fazilatlar bo‘lishini istar edingiz?
4. Yuksak hurmat-e’tiborga sazovor bo‘lish uchun yuqoridagi o‘n to‘rtta qoidaning har biriga ta’rif bering.
5. “Oilam qadriyatlariga sodiq qoldim” degan fikrni qanday tushundingiz?
6. Kelajakda qanday kasb tanlamoqchisiz? Tanlagan kasbingiz yangiliklarni o‘rganish va ularni tatbiq etishni taqozo qiladimi?
7. Siz tanlamoqchi bo‘lgan kasb oiladagi mas’uliyatingizga qanday ta’sir qilishi haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? “Mening kasbim va oiladagi mas’uliyatlarim” mavzusida Venn diagrammasi tuzing.
8. Kaykovus ibn Iskandarning “Qobusnoma” asaridan keltirib o‘tilgan fikrlarni farzandlik sadoqati va mas’uliyati bilan bog‘lashga harakat qilib ko‘ring. Siz ham bunga amal qilasizmi?

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Oila oldidagi burchlaringizni sarhisob qiling.
2. Oila a’zolarining *qonunda yozilmagan burch va majburiyatlari,* deganda nimani tushunasiz? Bu *qonunda yozilmagan burch va majburiyatlaringizning* qay biriga amal qilinishi zarur deb o‘ylaysiz?
3. Quyida berilgan rasm soyasiga e’tibor bering. Mavzu bilan qanday aloqasi bor? Fikringizni mavzu asosida chiqargan xulosangizga tayanib izohlang.



Ma’naviyat xazinasidan

Qilinadigan yaxshilikning eng afzali kishining o‘z oilasiga qilganidir. Bunday yaxshilikning bir uchi o‘zingizga ham yetib turadi.

“Ey Rabbim! Meni (ular) go‘daklik chog‘imda tarbiyalaganlaridek, Sen ham ularga rahm qilgin!”

Qur’oni karim, Isro surasi, 24-oyat.

Mulohaza uchun

O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin!

Bugun pensiya olgan Sanobar aya nabiralariga u-bu olish uchun do‘konga bormoqchi bo‘lib qo‘shnisi Nazira xolani chaqirdi. Nazira xola pensiyasining kamligidan nolidi.

– Mening pensiyam juda yaxshi, bolalarimdan pul so‘ramayman, – dedi Sanobar aya.

– Voy, qanday qilib?! Ikkimizning ish joyimiz ham bir joyda edi, stajimiz ham bir xil-ku? – deb ajablandi Nazira xola.

– Bilmasam, o‘g‘lim borib qayta hisoblatib, ko‘paytirib kelgan. Pensiyamning bir qismi plastik kartamga tushadi, ozrog‘ini qo‘limga olib kelib berishadi...

Ijodiy faoliyat

1. Nima deb o‘ylaysiz, Sanobar ayaning o‘g‘li qanday qilib onasining pensiyasini ko‘paytirgan bo‘lishi mumkin?
2. Pensiyani qanday ko‘paytirish mumkin?

Mulohaza uchun

Nazira xola uyga keldi-da darhol o‘g‘lini chaqirib:

– Sanobar ayaning o‘g‘li pensiyasini ko‘paytirib beribdi. Sen ham bir gaplashib ko‘r, balki, mening ham pensiyam ko‘payar? Menimcha, o‘g‘lining tanishi bor bo‘lsa kerak.

– Ey onajon, nima deyapsiz?! Kimgadir nimadir berish kerak.

– Mayli, o‘g‘lim, bir oylik pensiyamni berarman.

– Xo‘p, ona. ...

Ijodiy faoliyat

Nazira xolaning: “... bir oylik pensiyamni berarman”, – deyishi qanchalik to‘g‘ri? Nazira xolaning o‘g‘lining o‘rnida qanday yo‘l tutardingiz?



Respublika ta'lim markazi

Ikki o‘rtoq uchrashishdi.

Nazira xolaning o‘g‘li:

– Sanobar ayamning pensiyalari ko‘proq ekan, kim bilan gaplashding?

– Hech kim bilan gaplashmadim.

– Mayli, xarajatini beramiz, onamning ham pensiyalarini ko‘paytirishga yordam ber.

– Xo‘p. Agar onamga aytmasang, senga yordam beraman.

Sanobar ayaning o‘g‘li qanday javob bergan bo‘lishi mumkin?



Sanobar ayaning o‘g‘li harakatlari va “Minnatli osh tatimas” maqoli qay jihatdan aloqador?

– Yur, bankka kiramiz.

– Nima uchun?

– Onangning nomiga karta ochtirasan, har oyda pensiya keladigan kun o‘zing pul tushirib turasan.

– Qo‘llariga bersa bo‘lmaydimi?

– Yo‘q, unday qilsang minnatli bo‘lib qoladi...

Sanobar ayaning o‘g‘li nima uchun bunday qilgan deb o‘ylaysiz?

Ma’naviyat xazinasidan

Ey aziz farzand! Ota-onang bilan birga ovqatlanganingda ulardan oldin ovqatga qo‘l cho‘zma. Choylarini quyib ber. Chunki xizmat yoshdan ekanini unutma. Ota-onang bilan yurishga to‘g‘ri kelib qolsa, ularning oldilariga tushib yurma, chunki bu ularga nisbatan hurmatsizlik, odobsizlik sanaladi. O‘tirgan joyingga ota-onang kelib qolishsa, albatta, o‘rningdan turib salom ber, ularni ochiq chehra bilan qarshi ol. To ota-onang o‘tirmagunlaricha ulardan oldin o‘tirma. Mabodo jahllari chiqib, seni noo‘rin koyishsa ham, zinhor ularga qarshi gapirma. Men haqman deb ularga qarshi gapirsang, ko‘ngillarini ranjitib qo‘ygan bo‘lasan.

Zohidjon bobo va nabirasi Azimjon shaxmat o'ynab o'tirar edi.

– Bobojon, sizni mahallada hamma hurmat qiladi va doimo namuna sifatida ko'rsatadi. Bunday hurmat va mavqega qanday erishgansiz? – deb so'radi Azimjon.

– Avvalo, yaxshi niyatli, samimiy bo'ldim, eng muhimi, halol yashadim. Ota-onam va oilam oldidagi mas'uliyatni his qildim va ularning hurmatini joyiga qo'ydim. Ukalarim va singillarimga doimo o'rnak bo'lishga harakat qildim, – deb javob berdi bobosi.

Ijodiy faoliyat



1. Oiladagi burch va vazifalaringiz ro'yxatini tuzing. Fikrlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.
2. Oila oldidagi burchlaringizni bajarishda shaxsiy manfaatlaringizdan voz kecha olasizmi? Nima uchun?
3. Oila oldida mas'uliyatli bo'lish haqida 10 ta fakt keltiring.
4. Taqdimot shaklida quyidagi daraxt shoxlariga o'z shajarangizni joylashtiring. Shajarangizni sharaf bilan davom ettirish uchun qanday burch va mas'uliyatingiz bor? Oila daraxtingiz chuqur ildiz otishi uchun nimalarga e'tibor berishingiz kerak?
5. Yigit kishining oila oldidagi asosiy mas'uliyati nimada deb hisoblaysiz?
6. "Haromga qarama, halolingga ko'z tegadi" degan maqolning oila tinchligi bilan qanday aloqasi bor? Bu hikmatda aytilgan fikrning oila oldidagi mas'uliyat bilan qanday bog'liqligi bor?



Respublika
ta'lim markazi

Mustaqil faoliyat

1. “Kelin ham, qiz ham farzand, oilaning davomchisi, ertangi iqboli hisoblanadi” degan fikrni asoslab bering.

2. Qadriyatlarni saqlab qoluvchi va boyitib boruvchi oila a’zolariga kimlarni kiritish mumkin? O‘z oila a’zolaringiz misolida bunga izoh bering.

3. O‘z davrining buyuk shaxslari: “Jannatga yo‘l onaning oyog‘i ostidadir”, deb aytishgan. Shu mazmundagi yana qanday hikmatlarni bilasiz? Bu singari hikmatlarning asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelishining siri nimada deb o‘ylaysiz?

4. “Jamiyat a’zolari yuksalmasa, jamiyat ham yuksalmaydi. Jamiyat a’zolari yuksalishi uchun ularning aqllari yuksalishi lozim. Aql esa kitob mutolaasi bilangina yuksaladi”. Ushbu jumlani qanday izohlaysiz, misollar bilan tushuntiring.

5. “O‘g‘il bolani o‘qitish bir oilaning savodli bo‘lishiga, qiz bolani o‘qitish butun avlod savodli bo‘lishiga olib keladi” degan fikrning mohiyatini ochib bering.

6. Quyida berilgan rasmlarga diqqat bilan qarang. Rasmlarni nomlang. Ularni izohlashga harakat qiling.






8-MAVZU: BAXT MANZILLARI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Baxtni qanday tasavvur etasiz?
2. Nazaringizda baxtning shakli, ko‘rinishi, xususiyat va belgilari qanday namoyon bo‘ladi?
3. Yaqinlaringizga qanday baxt ulasha olasiz?
4. O‘zingizni baxtli his etgan kuningizni eslab ko‘ring.






Baxtni har kim o‘zicha, har xil tasavvur qiladi, biroq bu tushuncha qamrovi bizning tafakkur doiramizdan ancha keng va uni birgina so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Aytaylik, insonning dunyoga kelishi – baxt! Kim uchundir sevgan insoni bilan oila qurish – baxt! Farzandli bo‘lish – baxt! Kimgadir mehr qo‘ygan kasbi bilan shug‘ullanish – baxt! Ota-ona duosini olish – farzand uchun baxt! Avtoulovga, o‘z uyiga ega bo‘lish, to‘y qilish, boshqa orzusiga erishish... Bular ham kimlar uchundir baxt. Odamlar baxt deb biladigan bu holatlarni istalgancha davom ettirish mumkin.

Ijodiy faoliyat

Chizmaga e’tibor bering va uni davom ettirib daftaringizga yozing. Yana nimalarning mavjudligi bilan inson o‘zini baxtli his etishi mumkin?



Respublika
ta'lim markazi

Ma'naviyat xazinasidan

Inson yolg'iz o'zi hech qachon baxtiyor bo'lolmaydi, barcha insonlar baxtli bo'lgandagina u baxtli bo'ladi!

Lev Tolstoy

Bilasizmi?

Baxt – ma'naviy-axloqiy tushuncha. Baxt insonda o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetishi, orzu-umidining ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi.

Ijodiy faoliyat

1. Aytaylik, hamma narsangiz bor, lekin baxtingiz tugal bo'lishi uchun nimadir yetmayapti. Bu nima bo'lishi mumkin?

2. Baxtni to'liq his etishingiz uchun nimalar to'siq bo'ladi?



Mulohaza uchun

Inson o'zida bor narsani qadrlashi kerak. Baxt bu – boshqariladigan tuyg'u. Bu insonning idroki bilan bog'liq.

Baxt bu – ota-ona, aka-uka va opa-singil, chin do'stlarning borligi.

Baxt bu – bilim olish imkoniyatiga ega bo'lish, chunki bilim yetuk inson bo'lib voyaga yetishga yordam beradi. Keyin boshqa maqsadlar paydo bo'ladi va ularga erishish ham insonni baxtli qiladi. Shuning uchun insonning kelajakdagi hayoti faqat o'ziga, o'zining intilish va harakatiga bog'liq.

Ma'naviyat xazinasidan

Donolar aytadi: "Hayotda uchta mehmon va'dalashmay ham kelaveradi – rizq, muhabbat, baxt".

Mulohaza uchun

Og'ir ko'prik...

...Mo'jazgina bo'lsa-da, lekin mustahkam qurilgan bu ko'prikning asosiy vazifasi olis bir hududni dunyo bilan bog'lash edi.

Qachon va kim tomonidan qurilgani noma'lum bo'lgan ushbu ko'prik o'z "gardani"dan nelarni o'tkazmadi deysiz. Yigirmanchi asrning o'ttizinchi yillardan buyon bu yerdan ot-aravalardan tortib yuk mashinalarigacha o'tdi. Bu yillar davomida qanchadan qancha odamlar u yoqdan bu yoqqa o'tib-qaytmadi. Qancha yaxshi-yomonni ko'rmadi bu qo'hna ko'prik. Kimdir uni farzandlariga "hayot ko'prigi" deb ta'riflasa, yana kimdir olis hududning "xaloskori"-ga o'xshatar edi. Yana kimlardir uni buzib tashlash payida yurardi. Xullas, hayotning barcha "achchiq-chuchugi"ni ko'rgan bu qadim ko'prik hamma davrda o'z "vazminligi"-yu salobatini saqlab qoldi.



Insonlar o'rtasida nizo chiqsa, keksalar yoshi kattasiga: "Sen ko'pni ko'rgansan, biroz bosiqroq bo'lgin, sen axir katta, og'ir ko'priksan", deya bejiz aytishmas ekan.

Ijodiy faoliyat

1. Bu ko'prik insonlarning baxtli bo'lishlariga sababchi bo'lgan degan fikrga munosabat bildiring.
2. Nima uchun bu ko'prikni kimlardir buzib tashlamoqchi bo'lishgan, sabablarini sanab bering.
3. "Baxt bu – ... " degan fikrni davom ettiring. Fikringizga asos keltiring.

Ma'naviyat xazinasidan

Inson hayoti ham uzun ko'prikka o'xshaydi. Uni munosib bosib o'tish har kimning o'ziga bog'liq. Munosib bosib o'tilgan yo'l mustahkam ko'prikdek inson taqdirini ham go'zal qilib boradi.

Respublika
ta'lim markazi

Mulohaza uchun

Baxt haqida rivoyat

Bir kuni uch aka-uka o'rmonda sayr qilib yurib chuqur o'rani ko'rib qolibdi. Unga Baxt tushib ketgan edi.

Katta aka chuqurga engashib, debdi:

– Agar pulim ko'p bo'lganda edi, juda baxtli bo'lar edim.

Baxt unga juda ko'p pul beribdi, aka xursand bo'lib yo'lida davom etibdi.

Ikkinchi aka chuqurga engashib, debdi:

– Agar butun umr yonimda qoluvchi sadoqatli do'stim bo'lsa, o'zimni baxtli his etar edim.

Baxt uning ham tilagini amalga oshiribdi, u o'zini baxtli his etib do'sti bilan ketib qolibdi.

Kenja uka chuqurga engashganda, Baxt undan:

– Sening tilaging nima? – deb so'radi.

– Sening tilaging nima? – qaytarib so'rabdi uka Baxtdan.

– Meni shu chuqurdan ozod etishlarini istayman, – debdi Baxt.

Kenja uka uni chuqurdan ozod etib, o'z yo'lida davom etibdi. Baxt quvonganicha uning ortidan ergashibdi…

Ijodiy faoliyat

1. "Baxtli bo'lishni istasang, atrofindagilarni baxtli qil" degan fikrni qanday izohlaysiz?
2. Siz atrofingizdagilar (ota-onangiz, oila a'zolaringiz, sinfdoshlaringiz) o'zlarini baxtli his etishlari uchun nimalar qilgan bo'lar edingiz?

Bilasizmi?

Baxt hech qayerdan qidirilmaydi. O'zingizni shu yerda, shu ishda, shu uyda, shu shaharda baxtli his qila olmaguningizcha, siz umid bilan kutib yashayotgan vaqt kelganda ham baxtli inson bo'la olmaysiz. Shunday ekan, yoningizdagi insonlar bilan ayni paytdagi holatingizda baxtni his eting.

Baxt sizning ichingizda, shunday ekan, hoziroq ichingizdagi baxtni toping va baxtli bo'ling.

Baxtni doim his eting...

Ma'naviyat xazinasidan

Kim baxt kelganda undan foydalanishni bilmasa, u o'tib ketganda shikoyat qilmasligi kerak.

Migel de Servantes

Mulohaza uchun

Baxt kaliti

Bir donishmanddan shogirdlari:

– Nima qilsak, tinch va rohatda umr kechiramiz? – deb so'radilar.

Donishmand:

– Hech qayerda hech kimga birorta so'z aytmang, sukut eting, – deb javob berdi. Shogirdlar:

– Axir doim sukut saqlab bo'lmaydi-ku! Boshqacha yo'l ko'rsating, – deyishdi.

Donishmand shunday maslahat berdi:

– Sukut eta olmasangiz, qisqa va ma'noli so'zlang, og'zingizdan sira ham no-jo'ya so'z chiqmasin. Yomon so'z tinglovchining ko'nglini xira qiladi, bundan o'zingizning qalbingizga ham g'ashlik tushadi.

Ijodiy faoliyat

1. Lug'at zaxirangiz qanchalik boy va xilma-xil, shu haqda hech o'ylab ko'rganmisiz?
2. "Inson baxti aytgan so'zi bilan ham shakllanib boradi" degan fikrga qo'shilasizmi?
3. "Ko'ngil xotirjamligi insonga baxt keltiradi" degan fikrga munosabat bildiring.

Mulohaza uchun

UCH LAVHA

Aqlli kishilar o'z ish stollari ustiga uch lavhani joylashtirib qo'yadilar:

Birinchisiga: "Buguning haqiqiy kundir" deb yozilgan. Ya'ni bu kun che-garasida yashang.

Ikkinchisiga: "Fikr yurit va shukr qil!" deb yozilgan. Ya'ni sizga berilgan ne'matlar haqida tafakkur qiling va uning shukrini ado eting.

Uchinchisiga: "G'azab qilma!" iborasi yozilgan. Bu lavha sizni eng yaqin va oson tarzda baxtga yetaklaydi. Ular sodda, ammo juda foydalidir.

Doktor Oiz Qarniy, saudiyalik olim, jamoat arbobi

Respublika
ta'lim markazi

Ma'naviyat xazinasidan

Bir tikan botsa oyoqqa shunchalar,
Ne bo'lar, ayt, qalbga botsa u agar?

Jaloliddin Rumiy

Mulohaza uchun

Kunlarning birida onam qoshiga keldim va ularning tizzalariga boshimni qo'ydim-da, bir nafas tin oldim, dunyo tashvishlaridan bir muddatga forig' bo'ldim. So'ng xayolotning cheksiz kengliklariga sayr qilish barobarida mehribonimdan eng baxtli kunlari haqida gapirib berishlarini so'radim.

Volidam, azizam bir lahzaga sukut qildilar-da, so'ng nigohlarini bir nuqtaga tikkanicha, vazminlik bilan so'zlay boshladilar: ...

Ijodiy faoliyat

1. Ona nima degan bo'lishi mumkin?
2. Ona baxtni qanday his qilgan deb o'ylaysiz?
3. "Mulohaza uchun" ruknida berilgan matnni o'qiganingizda ichingizdan qanday kechinmalar o'tdi?

Darsdan ijobiy saboq chiqarib:

1. Mazkur gapni mavzuga bog'lab bering: "Inson hayotidagi eng maqtovli holat bu – yiqilganidan keyin o'zini o'nglay olishi".
2. Inson o'z yo'lini topganda baxtni his eta oladimi?
3. O'zingiz hurmat qilgan insonlardan birining baxtli onlarini eslang va daftaringizga bu haqda yozing.

Misol uchun:

Mening otam yoki onam (yaqinlarim, do'stim)... baxtli insonlar. Chunki ...

4. O'zingizning baxt formulangizni yarating (formula yaratishda shakllar soni ko'payishi mumkin).

II BOB
INSON VA JAMIYAT





Respublika
ta'lim markazi

9-MAVZU: MAHALLA – QADRIYATLAR BESHIGI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Quyidagi suratlarda qanday qadriyatlar tasvirlangan? Bu qadriyatlarni kim o'ylab topgan?

2. Sizning ham mahallangizda shunday an'analar bormi? Berilgan suratlar orqali fikringizni asoslang.

3. Mahallangizda bo'ladigan hasharlarda ishtirok etasizmi, bunga sizni nima majbur qiladi?

4. Nima sababdan mahalla "qadriyatlar beshigi", "demokratiya maktabi" deya ta'riflanishi haqida o'z fikringizni ayting.











Tarixga nazar

Tarixchi olim Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruv uslubi bo'lganligini yozgan edi. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Ali–sher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida shunday bayt bor:

Shaharlar otini mahalot etib,
Bo'ldi chu yuz shahar Hiri ot etib.

Mahallaning "shahar ichidagi shaharcha" degan mazmuni yuqoridagi ta'rifdan ko'rinib turibdi. O'rta asrlarda "Hiri" deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik "shaharcha" – mahalladan tashkil topgan ekan.

Mulohaza uchun

O'tkir Hoshimov

TOMSUVOQ

1) Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo'lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg'iz o'zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo'li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi.



Ijodiy faoliyat

1. "Uning yozilmagan qoidasi bor", deganda nima nazarda tutilmoqda? Siz yashaydigan mahallaning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bormi?
2. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun eng avval beva-bechora, qo'li qisqa xonadonning uyi tomsuvoq qilingan?
3. Mahalladagi qadriyatlarga yana qanday misol keltira olasiz?

Mulohaza uchun

2) O'qituvchimizning hashariga ayniqsa ko'p odam yig'ildi. Uyi katta yo'l yoqasida edi. Shundoq ko'cha chetidan loyxandaq qazilgan ekan. Somon katta yo'lning ko'pchib yotgan tuprog'iga qovushib, obdan yumshabdi. O'qituvchimizning Azim aka degan qo'shnisi ishboshi bo'ldi. Birov xandaqqa tushib, loy solib berib turibdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomdan turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Respublika
ta'lim markazi

Ijodiy faoliyat

1. Qo‘ni-qo‘shnilarning ahilligini qanday ta’riflash mumkin. Ularni nima birlashtirib turibdi?
2. Hasharning qanday yozilmagan qoidalari bor?
3. Nima uchun o‘qituvchining hashariga ayniqsa ko‘p odam yig‘ildi?

Mulohaza uchun

3) Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchining keksa onasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, bir hafta avval ko‘zi yorigan qizinikiga ketgan ekan.) Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchimning oldiga bordi. O‘g‘lining salomiga alik ham olmay:

– Nima qilding? – dedi. – Nima ish qilib qo‘yding?!

Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida ayniqsa mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi.

Ijodiy faoliyat

1. O‘qituvchining keksa onasi nimadan xafa bo‘lgan?
2. Nima uchun muallim o‘quvchilarining oldida mulzam bo‘ldi?

Mulohaza uchun

4) ... – Nima qipman, oyi? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

– Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Senga qachon aql kiradi, nodon bola!

Keyin Azim akaga yuzlandi.

– Bu-ku ahmoqlik qilishga qipti, siz qayoqda edingiz? Nega ko‘chadan loy qildilaring?! Ko‘chaning tuprog‘iga tegib bo‘ladimi, nobakor! Ko‘pchilikning haqqi-ku bu?! Bir zum harsillab turdi-da, to‘satdan yig‘lab yubordi.

– Men yurtning haqqiga suvalgan tom tagida turmayman! – shunday dedi-yu, supa labiga borib ters o‘tirib oldi...



Ijodiy faoliyat

1. O‘qituvchinig onasi tuproqni “ko‘chaning haqqi” deb aytdi. Nima deb o‘ylaysiz, ko‘chada yotgan tuproq ham birovlarning haqqi bo‘lishi mumkinmi?

2. Ona: “Men yurtning haqqiga suvalgan tom tagida turmayman!” deganida nimani nazarda tutgan?

3. “Ko‘pchilikning haqqi”, “birovning haqqi”, “yurtning haqqi” degan iboralarni yana qayerlarda va qanday vaziyatlarda ishlatish mumkin?

Mulohaza uchun



5) ...Hammamiz qaytadan tomga chiqdik. Suvoq qilishdan ko‘ra loyni ko‘chirish qiyin bo‘larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko‘chadagi loyxandaqni to‘ldirib qo‘ydik.

Oradan yillar o‘tib, kampir ko‘z yumganida tumonat odam uni o‘sha ko‘chadan so‘nggi manziliga ko‘tarib bordi.

Ko‘cha tuprog‘i iliq edi. Mayin edi.

Ijodiy faoliyat

1. Agar siz shu voqeada ishtirok etganingizda qanday yo‘l tutardingiz?

2. Quyidagi voqeani diqqat bilan o‘qing. Yuqoridagi voqealar bilan bog‘liqlik joyi bormi?

Mulohaza uchun

Qo‘shnining haqqi



Ko‘p qavatli uyning 6-qavatida yashaymiz. Uyimiz markazlashgan isitish tizimiga ulangan bo‘lsada, qishda sovib ketadi. Otam uyni bir amallab isitish uchun mutaxassisni chaqirdi. O‘z ishining ustasi bo‘lgan Murodjon amaki hamma quvurlarni birma-bir ko‘zdan kechirdi-da: “Qo‘shnilar isitish moslamasiga qo‘shimcha qovurg‘alar o‘rnatgan. Shuning uchun uyingizga issiq yaxshi yetib kelmayapti”, – deb tashxis qo‘ydi. Shu kuni otam va Murodjon amaki zarur bo‘lgan quvurlar va qo‘shimcha qovurg‘alarni o‘rnatishdi. Orada

Respublika
ta'lim markazi

onam: “Dadasi, balkonni ham bir yo‘la isiydigan qilib olaylik”, – deb taklif berdi. “Ha, bo‘ladi, kelin, shundoqqina katta uydan quvur tortsak bo‘ldi”, – dedi Murodjon amaki, onamning gaplarini ma’qullab. Otam biroz o‘ylanib qoldilar-da: “Yo‘q, bo‘lmaydi, qo‘shnining haqqi”, – deb javob berdi.

Men esa: “Ayvonga issiq suvni katta uyimizdan o‘tkazsak, qanaqasiga qo‘shnining haqqi bo‘lishi mumkin?” deb o‘ylanib qoldim.

Ijodiy faoliyat

1. Qo‘shnining haqqi nimada ekanini izohlang.
2. QR kodda berilgan lavhani diqqat bilan tomosha qiling. Lavhadagi “omonat” iborasini siz qanday tushundingiz? Istat xola: “Omonatingni o‘zingga topshiray”, – deganda nimani nazarda tutgan?

Mulohaza uchun

Bozorga kirib, bir matoni so‘radim. Do‘kondor o‘sha matoni topgunga qadar oldimga 20 tacha o‘ramdagi gazlamani to‘kib soldi. Ularning ichidan bittasi menga ma’qul tushib, shuni sotib olmoqchi bo‘ldim. Narxiyam ma’qul keldi. Sotuvchi:

– Sizga shu ma’qul keldi-a? – deb so‘radi.

– Albatta, ma’qul keldi.

– Unda yo‘lning u yog‘iga o‘tsangiz, huv anavi do‘konda ham shu gazlamadan bor. O‘sha yerdan sotib oling.



– Iye, nega endi? Hamma narsani shu yerda savdo qildim, sizning ham qancha vaqtingizni oldim. Nega endi undan sotib olarkanman? Nima uchun o‘zingizda bor matoni boshqa birovdan olishimni istayapsiz? Buning siri nimada?

– To‘g‘ridagi sotuvchi mening qo‘shnim, ko‘r- yapmanki, ertalabdan beri hech narsa sotmadi. Men esa ancha narsa sotib qo‘ydim…”

Ijodiy faoliyat

“Qo‘shnining haqqi” hikoyasi va QR kodda berilgan lavhaning “Hovli olma, qo‘shni ol” degan maqol bilan qanday bog‘liqligi bor?

Ma'naviyat xazinasidan



Bilasizmi, qo'shnining haqqi nima? Yordam so'rasa, yordam, qarz so'rasa, qarz berasiz. Kambag'allashsa, ro'zg'origa ko'maklashib turasiz. Xastalansa, ziyoratiga borasiz. Vafot etsa, janozasiga qatnashasiz.

Omadi kulsa, uni qutlang. Boshiga ayriliq musibati tushsa, ta'ziyasida birga bo'ling. Undan ruxsat bo'lmasa, uyingizni qo'shnining uyidan baland qilib qurmang. Chunki uyingizni baland qilib qursangiz, uning nimasigadir to'sqinlik qilgan bo'lasiz. Biron meva olgan paytingizda qo'shningizga ham bering. Agar buning iloji bo'lmasa, uyga olib kelganingizni ko'rmasin. Bolangizning qo'liga meva berib, tashqariga chiqarib yubormang, qo'shningizning bolasi ko'rib ko'ngli o'ksimasin. Qozoningizda qaynagan go'sht hidi qo'shnining uyiga ham taraladi. Bu holat maqbul emas. Agar keltirgan go'shtingizdan bir parchasini unga bergan bo'lsangiz, buning aybi yo'q.



Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi matnni o'qib, mavzuga bog'lab tushuntiring:

Qo'shnimizning hovlisida to'y taraddudi boshlandi. Dadajonim vaqtliroq chiqib, kattalarga yordam berishimizni tayinladi. Singlim Shohista beliga etak (fartuk) bog'lab, yordamga shoshildi. Men stullarni tashishga qarashdim.

– Sizlar to'yga keldingiz! Mehmon bo'ling, kelinglar, dasturxonga marhamat! – xijolat ohangida gapirdi qo'shni ayol.

2. Nima uchun qiz yoki yigitning xulqi-odobi mahalladan surishtiriladi?

3. *"O'z uyingni o'zing asra", "Xavfsiz hudud", "Namunali mahalla"* shiorlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni qanday?

Darsdan ijobiy saboq chiqarib:



1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan mahalla bilan bog'liq moddalarni toping. Unda belgilangan qoidalarga mahallangizda qanchalik amal qilinishini tushuntiring.

2. Nima uchun aynan o'zingizning mahallangizga mehringiz bo'lakcha? Hech o'ylab ko'rganmisiz, sizni mahallangiz bilan nima bog'lab turadi?

3. Mahallangizning tadbirlarida ishtirok etasizmi? Kattalardan mahallaning qadriyatlariga oid yoshlik davri esdaliklari haqida intervyu oling.

Respublika
ta'lim markazi

10-MAVZU: JAMIYATNING MA'NAVIY ASOSLARI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga nimalar kiradi? Jamiyat ma'naviyatining shakllanishiga ta'sir o'tkazadigan omillarga-chi? Fikringizni asoslang.
2. Inson va jamiyat diniy qadriyatlarsiz yashay oladimi?
3. Milliy va jahon dinlari haqida quyi sinflarda olgan bilimlaringizni eslab ko'ring. Dinning qanday shakllari mavjud?
4. Din insonlar dunyoqarashining shakllanishiga qanchalik ta'sir etadi?
5. Sizning hayotingizda qanday qadriyatlar mavjud?

Mulohaza uchun

Jamiyatimizning ma'naviy asoslari asrlar davomida ajdodlar o'giti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligida shakllangan va rivojlangan. U insonning qon-qoniga ona suti, oiladagi tarbiya orqali singib boradi.

Ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan milliy madaniyatimiz va turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizsiz hayotimizni tasavvur qilib bo'lmaydi.


1


2

Ijodiy faoliyat

1. Berilgan rasmlardan foydalanib inson ma'naviyati shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating.
2. Mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, qo'lyozmalar, multfilm qahramonlari ma'naviyatning asosi bo'la oladimi? Ularga yana nimalarni qo'shgan bo'lardingiz?
3. 5-rasmdagi hunarmandlarning ishlariga baho bering.
4. 1-, 3- va 4-rasmlarning qanday bog'liqligi bor? Ularni nima birlashtiradi.
5. 1-, 4- va 5-rasmlarning jamiyat ma'naviy asoslari rivojiga qanday ta'siri bor?


3


4


5


6


7

Tarixga nazar








1. Mazkur suratlardagi umumiylik va o'ziga xos jihatlarni aniqlang. Ularni jahon va milliy dinlarga doirlarini ajrating.

2. Suratlar asosida dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatiga tavsif bering.

Mulohaza uchun

Din arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida **ishonch, e'tiqod** qilish ma'nolarini anglatadi. Din azaldan kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlagan. Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilib kelgan.

Fan va din har doim bir-birini qo'llab-quvvatlab kelgan. Tarixda ularning munosabati turli shakllarda namoyon bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Aflotun, Arastu uchun fan va din deyarli bir soha – falsafa bo'lib, u "Fizika" va "Metafizika" qismlariga bo'lingan. Keyinroq matematika, astronomiya va tibbiyot rivojlana boshlaganda ham fan va din o'zaro uyg'unligini saqlagan. Xuddi shunday fan va din orasidagi uyg'unlik Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa Sharq mutafakkirlari faoliyatida ham kuzatiladi.

Ma'naviyat xazinasidan

Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb oxiratni, oxiratni deb dunyo ishini tark qilmaydigan va odamlarga og'irligini tushirmaydiganlaringizdir.

Hadisdan

***

Ehtiyojing tushadigan ilmni o'rganishdan o'zingni olib qochma!

Imomi A'zam Abu Hanifa

Respublika ta'lim markazi

Insoniyat tarixidan yaxshi bilamizki, dunyoning hech bir mintaqasi, xalqi ma'lum bir din va e'tiqodlar tizimisiz o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotini tasavvur qila olmagan.

Tarixiy davrlarning barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy bo'g'inlari o'z faoliyatlarini yuritish uchun u yoki bu diniy e'tiqod tamoyillariga tayanganlar. Mazkur holat barcha xalq va millatlarga xosdir.

Din avvalambor mazlum, ko'ngli shikasta va ijtimoiy ko'makka muhtoj kishilarni himoya qilgani tufayli jamiyatning kiborlar tabaqasi uni darhol qabul qilmagan.

Mulohaza uchun

"Garchi kishilar turli dinlarga e'tiqod qilib, turli mamlakatlarda yashasalar, turli qabila va millatlarga mansub bo'lsalar-da, ular baribir inson avlodlaridirlar... Ularning barchasi bir-birlarini sevishlari, qadr-qimmatlarini hurmat qilishlari va umumiy saodat asrini yaratishlari lozim".

Diniy bag'rikenglik va boshqa dinlar bilan murosa qilish mavzusini rivojlantirgan A. Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida musulmon diniy ta'limoti islomga e'tiqod qilmaydigan kishilarga nohaq jabr yetkazish, xususan, ularning qadr-qimmati, mol-mulki yoki hayotiga qasd qilishni taqiqlashini qayd etib o'tadi.

Bilasizmi?

Din jamiyatda ezgulikka intilish, o'zini ruhan va jismonan poklash, atrofdagilarga manfaat yetkazish, hayotni qadrlash kabi ijobiy xislatlarni targ'ib qiladi. Din insonlarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan.

Dunyodagi deyarli har bir xalq muayyan dinga e'tiqod qiladi, shu asosda shakllangan o'z urf-odat va an'analari bor.

Ma'naviyat xazinasidan

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, insonning asosiy vazifasi o'zini o'rab turgan olam sirlarini o'rganishdan iborat. Fanlarning holati ham ana shunday. Ularni kishining turmushidagi bo'lgan ehtiyoj dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan tarmoq yoydi.

Respublika ta'lim markazi

Ijodiy faoliyat

Quyidagi matnni o‘qing. Ulardan din qanday vazifalarni amalga oshirayotganini aniqlang:

– yahudiylikda ushbu din vakillari bir mafkura atrofidagi yagona millat va maslak egalari bo‘lib, yakka xudo Yahvening sevimli bandalari ekani uqtiriladi;

– xristianlikda diniy-me’moriy, tasviriy, musiqa san’atidan foydalaniladi, ikona chizuvchilar maktablari faoliyat olib boradi.

Bilasizmi?

Barcha dinlar ezgulikka xizmat qiladi



Ba’zi kuchlar dindan g‘arazli niyatda foydalanmoqdalar





Respublika
ta'lim markazi

Ijodiy faoliyat

1. Aziz imtihondan qoniqarsiz baho oldi. Bahosini tuzatish uchun o'qituvchiga sovg'a taklif qildi.

2. Umid shifokor ko'rigiga bordi. Ko'rik yakunida shifokorning cho'ntagiga pul solib qo'ydi.

3. Dilnoza yo'l harakati qoidasini buzdi.

Har bir voqeaga munosabat bildiring. Bunday voqealar jamiyatning ma'naviy asoslariga qanday ta'sir ko'rsatadi? Jamiyatning rivojiga-chi? Sizning oilangiz uchun-chi? Har bir voqea rivojlanib borsa, qanday oqibatlar kelib chiqishini taxmin qilib ko'ring.

Mulohaza uchun

Din insonlar dunyoqarashini shakllantirish, tasalli berish, birlashtirish, boshqarish, kommunikativlik, ruhiy-ma'naviy tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Din dunyo va insoniyatning qanday paydo bo'lganini ilohiy tarzda tushuntirib beradi.

Dinning tasalli beruvchilik vazifasi: inson bolasi boshiga biror musibat, qiyinchilik tushganida o'ziga dindan ovutuvchi, ko'ngliga taskin beruvchi, yupatuvchi kuch topgan.



Din birlashtirish vazifasini bajarib, insonlar orasida hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir din e'tiqod qiluvchilarini o'z qoidalariga amal qilishga chaqiradi. Ularni bu qoidalarga sodiqlikka undaydi va shu yo'l bilan insonlarni birlashtiradi.

Din o'ziga e'tiqod qiluvchilarning turmushini **tartibga solish** vazifasini ham bajaradi. Bu vazifa axloq normalari asosida amalga oshiriladi. Din axloq normalarini tartibga soladi hamda halol va harom, savob va gunoh nima ekanini belgilab beradi.


1

Dinning kommunikativlik vazifasi: diniy urf-odat, marosim va bayramlarni birgalikda o'tkazishga, qarindoshlik, birodarlik, dindoshlik aloqalarini mustahkamlashga chaqiradi.

Din inson hayotining ezgulik mohiyatini ochadi. Bu uning insonlarni **ruhiy-ma'naviy tarbiyalash** vazifasida aks etadi.

Din madaniyat rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.


2


3


4

Ijodiy faoliyat

1. Yuqoridagi 1- va 2-suratlar asosida dinning vazifalarini izohlashga harakat qiling.
2. Mazkur suratlar asosida ibodatxonalar muhtasham, salobatli qilib qurilishining sabablarini sanang.
3. "Din umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega" degan fikrga munosabat bildiring.
4. Din jamiyatda yana qanday vazifalarni bajaradi?

Darsdan ijobiy saboq chiqarib:

1. Komil insonni tarbiyalashda dinning o'rni qanday?
2. "Jamiyat rivoji va ravnaqi uchun insonlar doimo ezgu amallarni bajarishi talab qilinadi" degan fikrni asoslang.
3. Din va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
4. "Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lib kelgan". Mazkur jumlaga o'z munosabatingizni bildiring.

Respublika
ta'lim markazi

11–12-MAVZU: DIN VA MADANIYAT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. XX–XXI asrlarda qurilgan quyidagi ibodatxonalarning arxitekturasiga e'tibor qarating va dinning madaniyat rivojiga ta'siri haqida ma'lumot bering.

2. Din e'tiqod qiluvchilarning ma'naviy hayotiga, ijtimoiy turmush tarziga kirib borishi haqida ma'lumot bering.

3. Fikringizni dinning madaniy qadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy-ma'naviy merosni nasldan naslga qoldirish kabi vazifalari bilan bog'lab tushuntiring.



Mulohaza uchun

Madaniyat inson va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Din e'tiqod qiluvchilarning ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotiga ta'sir o'tkazadi. Bu esa dinning dunyo xalqlari madaniyati, adabiyoti, san'ati kabi sohalariga kirib borishida ko'rinadi.

Ijodiy faoliyat

Tarix fanidan olgan bilimlaringiz asosida "Islom madaniyati poytaxti" nomini olgan shaharlar ro'yxatini shakllantiring.

Ularning tarixi haqida ma'lumot bering. Bunda shaharlarning ISESCO tomonidan "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishiga oid talablardan foydalaning.

Ijodiy faoliyat

1. Din yozuv, kitob bosish, san'atning rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?
2. "Sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan", "Sen ulug' mutafakkirlar, allomalar yashab o'tgan diyorda tug'ilgansan" degan gaplarni eshitganingizda qalbingizga shu Vatanda, shu yurtda yashayotganingizdan faxrlanish tuyg'usi kechadimi? Fikringizni asoslang.



3. E'tibor bersangiz, bundan 1000 yillarcha oldin yashagan ajdodlarimizning ilmiy merosi haqida ko'p gapiriladi. O'ylab ko'ring-chi, yuz yildan keyin siz haqingizda avlodlaringiz qanday eslashlari mumkin?

Ma'naviyat xazinasidan



Yevropaning barcha sohalardagi taraqqiyotida Islom madaniyatining xizmati beqiyos va uning Yevropa taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan keskin asarlari bor... Yevropaga hayot bag'ishlagan nafaqat tabiat ilmlari, balki Islom madaniyati bu o'lkaga ilk nurini yuborganidayoq har tomonlama o'z ta'sirini o'tkazgan edi.

Robert Briffault, "Insoniyatning yaralishi" ("The Making of Humanity") nomli kitobidan.

Tarixga nazar

Buyuk Britaniya Parlamentining lordlar palatasi vakili lord Muhammad Iltaf Shayx: "Agar Ulug'bek hozir hayot bo'lganida, o'zbeklar birinchi bo'lib Oyga safar qilgan bo'lardi. Al-Xorazmiy bo'lmaganida, zamonaviy texnologiyalar ham bo'lmas edi. Ibn Sino asarlari asosida hozir Yevropa tibbiyotni o'rganmoqda. Biz radikallashuvga O'zbekiston madaniyati bilan qarshi kurashishimiz kerak. Sizlar Imom Buxoriy hadislarini ingliz tiliga tarjima qilib, sharhlab bering. Biz bu kitoblar bilan jaholatga qarshi kurashamiz".

O'zbekiston va Buyuk Britaniya ziyolilari, diniy soha namoyandalari–ning uchrashuvidan. 2018-yil 1-mart, London.

Respublika
ta'lim markazi

Mulohaza uchun

Xristianlik dinida musiqa san'atiga o'ziga xos yondashuv mavjud. Pravoslav, katolik va protestant ibodat marosimlarida jo'r bo'luvchi vokal, akapella va instrumental musiqa "Cherkov musiqasi" sifatida ijro etiladi. Bu dinda musiqaning maqsadi insonni ezgulikka chaqirishdan iborat bo'lishi, musiqa uslubi inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, qo'shiqning mazmuni diniy aqidalarga zid bo'lmasligi muhim hisoblanadi. Musiqa diniy ruhdagi matnlar bilan bog'liq bo'lib, ular cherkov xizmatlari paytida ham, kundalik hayotda ham ijro etish uchun mo'ljallangan.

Yahudiylik dinida ham musiqa alohida o'ringa ega. Rivoyatlarga ko'ra, Muso payg'ambar qavmi Qizil dengizni kesib o'tgandan so'ng, dushman qo'shinining halok bo'lganini ko'rgach, Muso (a.s.) boshchiligida barcha qavm "Dengiz qo'shig'i"ni kuylaganlar. Bu dinga ko'ra, musiqaning inson ruhiy holatiga ta'siri katta. Xususan, musiqa insonni Xudo va uning Kitobiga yaqinlashtirishi yoki aksincha, undan uzoqlashtirishi mumkin.

Bilasizmi?



O'zbekiston xalq artisti, akademik, bastakor, xonanda va sozanda, o'zbek musiqa merosi to'plovchisi **Yunus Rajabiy** bir qancha qadimiy o'zbek xalq kuy va ashulalarini qayta ishlab tiklagan. Xalq kuyi va ashulalarini notaga yoza boshlagan.

Yunus Rajabiy 5 jildli "O'zbek xalq musiqasi" to'plamini nashr ettirgan. Unga mingga yaqin turli janrdagi kuy va ashulalari kiritilgan. Shashmaqomning yangi nashrini hamda grammplastinka yozuvlar mukammal to'plamini yaratdi.



Iogann Sebastyan Bax taniqli bastakorlardan biridir. Baxning 300 ga yaqin diniy kantata, xoral va oratoriyalari („Ioann bo'yicha ehtiroslar", „Matvey bo'yicha ehtiroslar", „H-moll katta messasi", „Magnifikat") alohida o'rin tutadi. Bularning mavzulari Injil kitobidan olingan bo'lib, mazmunida insoniylik, hayotdan zavqlanish, yuksak go'zallikka intilish, shodu xurramlik bilan dard-alam hissiyotlari o'z aksini topgan.

Tarixga nazar



Abu Nasr Muhammad Forobiy – Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri. U "qonun" hamda "g'ijjak" musiqa asboblarini ixtiro qilgan. Forobiyning estetik qarashlari asosan musiqa san'ati nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish doirasiga qaratilgan edi. U "Musiqa haqida katta kitob", "Musiqa haqida fikrlar", "Ritmlarni klassifikatsiya qilish haqida kitob" kabi asarlarni yaratgan, musiqa estetikasi bilan bog'liq muammolar esa "Ilmlar klassifikatsiyasi kitobi"da yoritilgan. U o'z davrida mavjud hamma musiqa cholg'ularini chalishni bilgan. Ayniqsa, kuylarni nay va tanbur cholg'ularida katta mahorat bilan ijro etgan.



Ma'naviyat xazinasidan

Islom dini ilm-fan, madaniyat va san'at ravnaqiga hech qachon to'sqinlik qilmagan, hatto muayyan cheklovlar o'rnatilganida ham yangi-yangi g'oyalar va uslublar, san'atning o'zgacha yo'nalishlari rivojiga yo'l ochib bergan.

Alloh taolo bandalariga ko'rish uchun ko'z berdi, hid bilish uchun burun ato qildi, qo'l berdi, oyoq berdi. Ko'z ham, quloq ham dunyodagi ne'matlardan foydalanadi, quloqning rohati esa go'zal ohanglarni, yaxshi suhbatlarni eshitishdadir, quloqning ne'mati yaxshi nag'malar, yaxshi ashulalardir, shunday ekan, nima uchun biz musiqani harom deb hisoblaymiz?

Imom G'azzoliy, "Ihyou ulumid din" kitobi, II jild

Ijodiy faoliyat

1. Insonlar faoliyati bilan bog'liq qanday qo'shiqlarni bilasiz? Nima uchun aksariyat insonlar mamnunligini bildirish uchun qo'shiq xirgoyi qilishadi? Sizda ham shunday holatlar bo'lganmi? Siz odatda qaysi qo'shiqni xirgoyi qilasiz?
2. Ukangizga aytilgan alla ta'sirida uxlab qolganmisiz? Allaning so'zlarini eslay olasizmi?
3. Nima uchun dunyo davlatlarining o'z madhiyasi bor va ular nega kuyga solib ijro etiladi? Madhiyada nimalar tarannum etiladi?
4. Qanday musiqalar insonning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi?



Respublika ta'lim markazi

Mulohaza uchun



Ibn Sino musiqani matematik bilimlar toifasiga kiritgan. U musiqaga tovushlarni o‘rganuvchi, ularning mutanosib jo‘rligi natijasida kuy hosil qiluvchi fan sifatida qaragan. Pifagor ta’limotiga ko‘ra, u musiqa sonlarga tegishli va ular bilan uzviy bog‘liqdir, deb bilgan.

Ibn Sino musiqani jamiyatshunoslik, ruhiyat, she’riyat, nafosat va fiziologiya fanlari nuqtayi nazaridan ham o‘rganadi.

Forobiy hamda Ibn Sinoning musiqiy asboblarni o‘rganishga doir ishlari natijasida musiqiy asbobshunoslik faniga asos solingan.

Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“ asarida aytilishicha, g‘ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo‘lgan.

1. Qaysi musiqa asboblarida kuy chalishni bilasiz? Musiqa eshitganingizda o‘zingizda qanday o‘zgarishlar sezasiz?
2. Ibn Sino nima uchun musiqani matematika, jamiyatshunoslik, ruhiyat, she’riyat, nafosat va fiziologiya fanlari bilan bog‘lab o‘rgangan, fikringizni asoslang.
3. Qo‘shimcha manbalardan Forobiyning musiqashunoslikka qiziqishini asoslovchi ma’lumotlar toping.
4. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganing. Manbalar bilan o‘rtoqlashing.
5. Musiqa insonga salbiy ta’sir qilishi mumkinmi? Fikrlaringizni asoslang.

Ijodiy faoliyat

1. Hech qiziqib ko‘rganmisiz, yana qaysi allomalarimiz faoliyati musiqa bilan bog‘liq?
2. Siz qanday musiqalarni tinglashni yoqtirasiz?
3. Shashmaqom haqida eshitganmisiz? Uning o‘zbek musiqa san’atida tutgan o‘rni qanday?

Ma’naviyat xazinasidan

Hishom ibn Urva rivoyat qiladi: “Oisha roziyallohu anho bir kelinni bir ansoriy kuyov huzuriga uzatib qo‘ydilar. Janob Rasulullоh: “**Ey Oisha, musiqa chalib, o‘yin-kulgi bilan kuzatib qo‘ydingizlarmi? Ansorlar musiqa chalib, o‘yin-kulgi qilishni xush ko‘radilar**”, dedilar.

Imom Buxoriy, “Nikoh kitobi”, 5162-hadis

Mulohaza uchun

Imom Abu Hanifaning bir qo‘shnisi bo‘lgan ekan. U har kuni musiqa chalib qo‘shiq kuylar ekan. Bir kuni qo‘shiq aytmay qo‘yibdi. Bundan hayron bo‘lgan Imom Abu Hanifa xavotir olib so‘roqlabdilar. Qo‘shnisi qandaydir bir muammo bilan qamalib qolgan ekan. Imom Abu Hanifa darhol unga kafil bo‘libdilar va uni qutqarib olibdillar.

Abu Hanifa, “Tazkiratul hamduniya” kitobidan

Ijodiy faoliyat

1. Alisher Navoiyning fikrlarini yuqoridagi ma’lumotlar bilan bog‘lab tushuntiring.

“Alar der ermishlarki, rubob uni behisht eshigining sariridir, agar andin qalbimizga xushnudlik yetsa, jihat budur”.

“Nasoyim ul-muhabbat”dan.

2. Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino yashagan davrlardagi jamiyatda dinning o‘rniga baho bering hamda aynan shu davrda insonlarning musiqa va san’atga bo‘lgan munosabatlarini sharhlashga harakat qiling.

Mulohaza uchun

Rivoyat qilishlaricha, Forobiyning nihoyatda chiroyli musiqa chalishini eshitgan shahar hukmdori allomani o‘z huzuriga chaqirib:

– Sen shunday musiqa chalginki, biz o‘tirganlar xoxolab kulib yuboraylik, tanalarimiz ham larzaga kelsin.

Forobiy ichak uzdi musiqa chalib, hammani kuldiradi.

– Endi, – deydi hukmdor, o‘zini kulgidan zo‘rg‘a to‘xtatib, – sen bizlarni yig‘latib yuboradigan musiqa chalib ber.

Forobiy shunday mungli musiqa chaladiki, o‘tirganlarning barchasi yig‘lashga tushadi. Yig‘idan o‘zini zo‘rg‘a to‘xtata olgan hukmdor ko‘zlarini artib, endi musiqa chalib, hammani uxlatishini so‘raydi. Forobiy boshqa bir mo‘jazgina musiqa asbobini qo‘liga olib, shunday mayin, nafis tovushda musiqa chaladiki, o‘tirganlarning barchasi uyquga ketganidan foydalanib, saroydan chiqib ketadi.

Bilasizmi?

Xorazm lazgisi YUNESKO Nomoddiy madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hukumatlararo qo‘mitasining qaroriga ko‘ra, Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.



Respublika
ta'lim markazi

Mulohaza uchun

Alisher Navoiy kitobat ahli bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan, keyinchalik shaxsiy kutubxonasida zamonaning eng mashhur naqqosh-rassomi ustod Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari, Sultonali Mashhadiy va uning izdoshlari ijod qilgan bo'lib, buyuk shoirdan bizga bitta "Zanjirband sher" rasmi yetib kelgan. U o'z davri kitobat ahlining homiysi bo'lishdan tashqari, bu soha bilimdoni ham edi.



O'rta asrlarga oid Sharq miniatyura san'ati

Bilasizmi?

Samarqand muftiysi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari birinchi o'zbek dramasi edi. Bu asar XX asr boshidagi ma'naviy muhitga doir muammolarni aks ettirib, o'qimagan, johil va nodon bolaning o'z otasini o'ldirgani haqida edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy bu asar janrini "milliy fojia" deb atagan. Drama 1914-yil 25-yanvarda Samarqandda, keyinchalik Toshkentda qayta sahnalashtirilgan.

Ijodiy faoliyat

1. O'z davrida muftiy bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr bu ibratxonadir" degan fikrini asoslang. Bugungi kunda teatrdan qanday bunyodkor g'oyalarni ifodalashda foydalanish mumkin? Teatr san'atiga dunyo dinlarida qanday munosabat bildirilgan?
2. Din bunyodkor g'oyalarga qarshi chiqishi mumkinmi?

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Suqrotning quyidagi fikrini o'qing va ma'naviy merosning milliy an'analar bilan bog'liqligini asoslang: *"Men qadimgi donishmandlar o'z asarlarida bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko'zdan kechiraman; agar biz ularda nimadir yaxshi narsaga duch kelsak, uni o'zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan hisoblanamiz".*
2. Din va madaniyat mushtarakligi haqida o'z xulosangizni ayting.

13–14-MAVZU: DUNYO DINLARIDA INSONPARVARLIK G‘OYALARI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Insonparvarlik nimada namoyon bo‘ladi? Jamiyatda insonparvarlikning yo‘qligi nimalarga olib keladi?
2. Insonparvarlik va tinchlikni asrash mas’uliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik nimada deb o‘ylaysiz?
3. “Bir kun urush-janjal bo‘lgan joydan qirq kun baraka ketadi” degan hikmatli gapning ma’nosini bilasizmi?
4. Urush va buzg‘unchilik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida o‘z fikringizni bildiring.

Mulohaza uchun



Ma’naviyat xazinasidan

Kamchilik va nuqsonlaringni ko‘rsatib, seni koyigan donishmandning etagidan mahkam tut. Zero, u zot xazinaga eltayotgan yo‘lboshchiga o‘xshaydi va sen sira kam bo‘lmaysan.

Budda

Respublika
ta'lim markazi

Bilasizmi?



Xristianlik dunyoda eng keng tarqalgan din hisoblanadi. Tarixda mazkur dinni niqob qilib buzg‘unchilik, xunrezlik maqsadlarida foydalanilgani, “Salib yurishlari”, “Inkvizitsiya” nomlari ostida ko‘plab shaharlar vayron qilingani, minglab odamlarning halok bo‘lgani ma’lum.

Holbuki, xristianlikda hech kimga yomonlik qilmaslik haqida ta’lim beriladi.

Bu din ham barcha dinlar kabi tinchliksevarlik, yaxshilik qilish va ezgulikka chaqiradi.

Islom dinida xristianlarni nasroniylar deb atashadi. Bu nom Iso payg‘ambarning Nazaret qishlog‘ida tug‘ilgani bilan bog‘liq.

Ma’naviyat xazinasidan



Hech kimga yomonlik evaziga yomonlik qaytarmanglar. Barcha odamlarning ko‘zi oldida yaxshilik qilishga intilinglar. Agar iloji bo‘lsa, qo‘lingizdan kelganicha barcha odamlar bilan tinch-totuv hayot kechiringlar.

Yangi Ahd. Rimliklarga maktub, 12-bob.

Mulohaza uchun

Xalq orasida fitna qo‘zg‘atish, tuhmat va ig‘vo tarqatish yo‘lidagi urinishlar, tinchlik va xotirjamlikni izdan chiqaruvchi hodisalar yoki harakatlar islomning mohiyatiga mutlaqo zid.

Bilasizmi?

Buddaviylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashni targ‘ib etish, aql ko‘rsatmalariga qat’iy bo‘ysunish va hissiyotga berilmaslikdir. Insonparvarlik va ezgulik g‘oyalari buddaviylikning “Pancha shila” (sanskritcha – besh nasihat) qoidasida ham aks etadi.

Unga ko‘ra, buddaviy qotillik, o‘g‘rilik, gumrohlik, yolg‘on so‘z, mast qiluvchi narsalardan saqlanishi lozim. Bu dinga e’tiqod qilgan har bir rohib o‘zgalar mulkiga ko‘z olaytirmasligi, birovga nafrat bilan qaramasligi, adolat haqida o‘ylashi, munosib insonlardan yaxshiligini ayamasligi, axloq qoidalariga amal qilishi zarur hisoblanadi.



Mulohaza uchun

Milliy dinlardan bo‘lgan hinduiylik va jayniylikda tinchlikparvarlik g‘oyalari “ahimsa” – kuch ishlatmaslik ta’limotida o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra, yer yuzida buzg‘unchilik qilish, nafaqat insonlar, balki barcha jonzotlarga ozor berish taqiqlanadi. Mazkur ta’limot zo‘ravonlikka zo‘ravonlik bilan javob berish, urush qilganga qarshi urushishni ham qoralab chiqadi.

Ahimsa nafaqat odamlar, balki barcha jonli mavjudotlarga nisbatan ham zo‘ravonlik qilmaslikdir.

Ekologik madaniyat va qadimgi hindlarning Ahimsa g‘oyasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Misol keltiring.

Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan zardushtiylik dini ham o‘zining insonparvarligi bilan alohida ajralib turgan. Bu “Avesto”dagi “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” ta’limotida ham o‘z aksini topgan. Unda tinchlikning muhimligi borasida fikrlar bildirilgan. Zardushtiylikda har bir zardushtiy tiyilishi lozim bo‘lgan narsalar qatorida chorvani talon-toroj qilish, talafot va vayronagarchilik keltirishdan tiyilish ham sanab o‘tilgan.

Uch guruhga bo‘lining. Zardushtiylarning “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasini ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga bog‘lab 5 tadan misol keltiring.

Masalan:

1-guruh. Ijtimoiy hayotda – qo‘shnichlik munosabatlari, ...

2-guruh. Iqtisodiy hayotda – tadbirkor sun’iy ravishda narx-navoni oshirib yubormasligi, ...

3-guruh. Siyosiy hayotda – mintaqada tinchlikni saqlash, ...

Taqdimot qiling.

Eshitganlaringiz asosida “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasini zamonaviy hayotga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqing. Bu vazifani bajarishda insonparvarlik tamoyillariga asoslaning.

Respublika
ta'lim markazi

Mulohaza uchun



Tinchlik g‘oyasiga eng katta e’tibor qaratgan dinlardan biri islom dinidir. “Islom” so‘zining ma’nolaridan biri ham *tinchlik* demakdir.

Tinchlikni qadrlash, osoyishta hayot uchun shukronalik uni saqlab qolish va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Islom dinining muqaddas manbalarida tinchlikni birgalikda ta’minlashga targ‘ib qilinadi.

Islom ta’limotida masalaning bu jihatiga ham alohida e’tibor berilgan. Islom ta’limoti ulug‘ ne’matlardan biri bo‘lgan tinchlik va xotirjamlikning qadriga yetish, hushyor va e’tiborli bo‘lishga chaqiradi.

Loqaydlik, e’tiborsizlik, befarqlik, noshukurchilik emas, balki berilgan ne’matni e’tirof etish, uning qadriga yetish, e’zozlash, asrab-avaylash shukronalikning mohiyatini tashkil etadi.



O‘zaro nizolarni yarashish, kelishish yo‘li bilan hal etish, jamiyatdagi tinchlikka tahdid, tajovuzkorlik va zo‘ravonlikni davom etadiganlarga nisbatan qat’iy va tezkor choralar ko‘rish zarur.

Ijodiy faoliyat

1. “Tinchlikni saqlash uchun har bir kishi mas’ul, uni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har kim o‘z hissasini qo‘shishi lozim” degan fikrni partadoshingiz bilan muhokama qiling va bu jarayonga siz qanday hissa qo‘sha olishingizni aytib bering.

2. Quyidagi matnni o‘qing va mavzu bilan bog‘liqligini tushuntirib bering. Ayrim hududlarda notinchlik, beqarorlik, xunrezliklar hukm surayotgani mamlakatimizdagi tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash o‘z-o‘zidan bo‘lmayotganini anglashga, o‘zaro yanada inoq va ahil bo‘lib yashashga undaydi.

Ijodiy faoliyat

1. Agar jamiyatda loqaydlik, e'tiborsizlik, befarqlik, noshukurlik, o'zaro nizolar, tajovuzkorlik va zo'ravonlik avj olib ketsa, bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Siz bunday holatlarning oldini olish uchun nima qila olasiz?
2. "Bir kun urush chiqqan uydan qirq kun baraka qochadi". Bu maqolni jamiyatga nisbatan qo'llab ko'ring-chi?

Bilasizmi?

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMTning 72-sessiyasidagi nutqidan

Ijodiy faoliyat

1. "Ikki ne'mat borki, ko'pchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. U xotirjamlik va sihat-salomatlikdir" degan hikmatning mavzuga qanday bog'liqligi bor?
2. Mamlakatimizda tinchlik va salomatlikni saqlash uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Yoshlar tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashning muhim omili sifatida dinning ham o'z o'rni bor. Sizningcha, din, ma'rifat va tarbiya tushunchalari mohiyatan bir-biriga yaqinmi? Fikringizni asoslang.
4. Quyidagi suratlarni insonparvarlik g'oyalari bilan bog'lang.





Respublika
ta'lim markazi

Mulohaza uchun

Dunyoda urush olovi yoqilib turgan mamlakatlarda qanchadan-qancha begunoh kishilar halok bo‘layapti. Birgina Afgonistonda mutaxassislarning hisobiga ko‘ra oxirgi yetti yil ichida 15 mingdan ziyod begunoh kishilar nobud bo‘lgan.

Oxirgi to‘qqiz yil ichida Iroqda 162 ming kishi qirilib ketgan.

Suriyadagi qonli to‘qnashuvlarda 120 ming kishi janjallar qurboni bo‘ldi, 6.5 million kishi uy-joyini tashlab ketishga majbur bo‘ldi. Ikki milliondan ziyod fuqarolar o‘zga mamlakatlarga qochib ketgan.

Bunday misollarni Afrika mamlakatlari misolida ham keltirish mumkin. Bu raqamlar og‘izdan zumda chiqib ketayotgandek, ammo, o‘ylab, chuqur mulohaza qilinsa, har bir raqam ortida insonlar taqdiri turibdi.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. “Tinchlikni saqlashda har bir kishi mas’ul, uni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har kim o‘z hissasini qo‘shishi lozim” degan fikrni izohlang.

2. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, sizning xotirjam yashashingiz, maktabga borishingiz, dam olishingiz, televizor qarshisida o‘zingiz yoqtirgan ko‘rsatuvlarni maroq bilan ko‘rib o‘tirishingiz uchun qancha odam o‘z rohatidan kechishi kerak?

3. Loqaydlik, e’tiborsizlik, befarqlik, noshukurlik kabi illatlar tinchlikka raxna solishi mumkinmi? Fikringizni misollar bilan asoslang.

4. Berilgan rasmlar asosida tinchlik va xotirjamlikning bahosini aniqlang.








15-MAVZU: ENG KATTA MEROS

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Siz uchun eng katta meros nima?
2. Ota-onadan farzandga nimalar meros bo‘lib qolishi mumkin? Siz ota-onangizdan nimani meros qilib olgan bo‘lar edingiz?
3. “U shunday meroski, uni qancha ishlatsangiz, shuncha ko‘payadi, ishlatmasangiz, o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketadi...” Nima deb o‘ylaysiz, ushbu ta’rifni inson tarbiyasiga nisbatan qo‘llay olamizmi?
4. Inson hayoti davomida o‘rganib, mehnat qilib, hayotiy tajribasi natijasida o‘zidan kelgusi avlodlarga qoldiradigan meros ichida eng keraklisi qaysi? Fikringizni asoslang.
5. Yoshlar baxti va farovonligi uchun eng zarur bo‘lgan fazilatlar qaysilar? Ularning zarurligi nimada?

Mulohaza uchun

Inson ma’naviyati uning tarbiyasi qay darajada ekanligini anglatadi. Tarbiyali va ma’naviyatli inson o‘zining sa’y-harakatlari va fidoyiligi bilan jamiyatga foyda keltiradi va uning faol a’zosiga aylanib boradi. Chinakam ma’rifatga ega bo‘lgan insonlar bunday ezgu ishlarni qilishga qodir bo‘ladi. Ma’rifat yo‘lida har kim o‘z iqtidori, iste’dodi, qobiliyati, intilishiga yarasha ma’lum bir darajaga erishadi. Axloq me’yorlarini o‘zlashtirgan kishilargina haqiqiy tarbiya xazinasiga ega bo‘ladilar.

Ijodiy faoliyat

1. Biz qanday insonni go‘zal tarbiyali inson deb ataymiz?
2. Agar inson juda boy, chiroyli, oliynasab bo‘lsa, u insonni samimiy, dono deb aytish mumkinmi? Javobingizni asoslang.
3. Sinfdoshlaringiz bilan sinfingizning “Axloq me’yorni”ni ishlab chiqing.

a) Har biringiz daftaringizga o‘zingizga ma’qul bo‘lgan 10 ta me’yorni yozing.

b) Partadoshingiz bilan muhokama qilib, 5 ta umumiy va 2 ta zarur deb hisoblagan me’yorlarni qoldiring.

v) 6 kishilik guruhda muhokama qiling va 7 ta umumiy va 3 ta zarur deb hisoblagan me’yorlarni qoldiring.

Respublika
ta'lim markazi

d) Uchta katta guruhga birlashing 10 ta umumiy va 5 ta zarur degan me'yorlarni ajrating.

e) Har bir guruhning taqdimotini tayyorlang. Guruhlar tomonidan bildirilgan takliflarni umumlashtiring. 10 ta asosiy deb topilgan me'yorlarni qoldiring. Ovoz berib tasdiqlab qo'ying.

4. Qabul qilgan me'yorlaringizga amal qila olasizmi? Qanday to'siqlar bor?



Ma'naviyat xazinasidan

Hikoya

Podshohning ikki xizmatkori bor edi. Biri husn bobida tengsiz bo'lib, ikkinchisi uning batamom aksi edi. Bir kuni podshoh ularni sinash maqsadida huzuriga chorladi va chiroyli xizmatkorga qarata:

– Sheriging haqida nima deysan? – dedi.

Shunda u:

– Uning fe'li juda yomon. Ishonchli emas. Qo'lidan har qanday razillik kelishi mumkin, – deb javob berdi.

Podshoh ikkinchi xizmatkorini yoniga chorlab:

– Sheriging haqida nima deysan? – deb so'radi.

– Podshohim! Men sherigim haqida bir og'iz so'z aytishga qodir emasman. Men faqatgina uning yaxshiligini ko'rdim, – deb javob berdi.

Shunda podshoh yana so'rabdi:

– U sen haqingda yomon fikrda, bunga nima deysan?

– Podshohim! Hech bir banda aybsiz bo'lmas. Men o'z kamchiliklarimni tan olaman.

Keyin podshoh husndor xizmatkorini chaqirib, unga shunday dedi:

– Qalbing toza emas ekan. Menga yordamchi bo'la olmaysan. Tezda saroyimdan ket!

Ikkinchi xizmatkoriga esa:

– Qalbing tashqi ko'rinishingdan go'zal ekan. Sen mening ishonchli kishim bo'lasan, – deb ishonch bildirdi.

Ijodiy faoliyat



1. Quyidagi matnga asoslanib savollarga javob bering.

O'z davrining katta savdogarlaridan biri farzandiga boshlang'ich ta'lim berish uchun ustoz yollab, o'g'lining xat-savodini chiqarishini iltimos qildi. Ustoz bolani o'qitishni boshladi. Bola otasiga kitobni chiroyli o'qib berdi. Shunda savdogar cho'ntagidan 500 dinor olib, ustozning oldiga qo'ydi. O'sha davrda 1 dinor tanga 5 gramm oltinga yoki katta bir qo'yning qiymatiga teng edi.

Ustoz biroz xijolat bo'ldi, savdogarga juda ko'p pul bergani, bitta dinor ham ko'plik qilishini aytdi.

– Ustoz, xizmatingizni yengil sanamang. Bu shunchaki yonimda bori. Agar yonimda butun molim bo'lganida ham, poyingizga qo'ygan bo'lar edim. Siz o'g'limga ilm o'rgatdingiz, – dedi minnatdorchilik bilan savdogar.

2. Savdogarning "Ustoz, xizmatingizni yengil sanamang" degan fikrini ustozlaringizning ilm o'rgatish mashaqqati bilan bog'lab tushuntiring.

3. Abu Hanifa Imomi A'zamning "O'n yil och yursang ham, ilm yo hunar izlash yo'lidan qolma" degan fikrlarini kelajagingiz bilan bog'lab tushuntiring. Ilmsiz va qo'lida hech qanday hunari bo'lmagan insonning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

4. Mavjud imkoniyatlardan qay darajada foydalanyapsiz?

5. O'zingizdagi qaysi xislatlar uchun ota-onangizdan minnatdorsiz?

6. Jamoa bo'lib "Mening eng katta boyligim" mavzusida klaster tuzing.

Ma'naviyat xazinasidan

Ilm o'rganing, zero, u faqirlikda davlat, boylikda ziynatdir.

Hikmat

Bilasizmi?

Buxorodagi Abdullaxon madrasasining peshtoqiga *"Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'ladimi?"* hamda *"Ilm shunday narsaki, unga butun umringni baxshida qilmaguningcha senga o'zining bir qismini ham bermaydi"* degan so'zlar bitilgan.



Mulohaza uchun

Yaxshi tarbiya insonning intellektual salohiyati, ma'rifiy kuchi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, go'zal xulqi mujassamidir. Uning negizida insonlar o'rtasida ijobiy muhit shakllanadi, ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar saqlanib qoladi. Xulq, odob, axloq, madaniyat, ma'rifat, din va ta'lim tizimi o'zaro bog'liq holda o'rganiladi.

Respublika ta'lim markazi

1. Siz havas qilgan insonlar erishgan yutuqlarining asl sababi nimada deb o'ylaysiz? Ularda qanday xislatlar ustun?

2. "Inson bilimi va salohiyati, tafakkur darajasi oshib borishi uchun o'z tarbiyasiga tayanadi va mehnat qiladi" degan fikrni kundalik faoliyatingiz bilan bog'lab tushuntiring.

Ijodiy faoliyat

1. Ispaniyadagi Kordova (Qurtuba) masjidi VIII asrda, Buxorodagi Somoniylar maqbarasi esa IX asrda qurilganligini eslab, ularning arxitekturasiga e'tibor qarating.



Ispaniya. Kordova (Qurtuba) masjidi. VIII asr





Buxoro. Somoniylar maqbarasi. IX asr

2. O'zingiz yashaydigan uyning rejasini chizing va uning qancha kvadrat metrni tashkil etishini aniqlang. Har bir xonaning chizmasini chizishga harakat qilib ko'ring. Ushbu chizmani chizishda sizga qanday bilimlar zarur bo'ldi? Qanday vositalar, o'quv qurollaridan foydalandingiz?

3. Endi mulohaza qilib ko'ring-chi, Kordovadagi masjidni yoki Somoniylar maqbarasini qurish uchun qanday bilimlar zarur bo'lgan? Ushbu masalaga o'sha davrdagi ijtimoiy hayot nuqtayi nazaridan baho bering.

Ijodiy faoliyat

Yaxshilik ortida ulkan xazina yashirin

Agar bir kishi boshqa birovga birinchi bo'lib va hech bir tamasiz yaxshilik qilsa, albatta, bu yaxshilikning ajr-u savobi unga boshqa tomondan yetadi.

Hech bo'lmaganda ana shu yaxshilik tufayli u duch kelishi mumkin bo'lgan balo-ofatdan xalos bo'ladi. Bu gapda hech qanday shubha yo'q va uni amalda sinab ko'rish uchun sizda imkoniyat bor: birovga yaxshilik qiling va uni unuting! Tarbiyasi mukammal inson har qanday holatda ham o'zgalarga yaxshilik qiladi, mehr-oqibatlilik asosiy yumushiga aylanadi.

1. Donishmandlarning “Senga yaxshilik qilganlarni unutma. O‘zing qilgan yaxshilikni va senga qilingan yomonlikni unut” degan hikmatini izohlab bering.
2. “Yaxshilik ortida ulkan xazina yashirin” degan fikrning mohiyatini tushuntiring.
3. “Bu dunyo lazzati va rohati – insonning to‘g‘ri va zarur tarbiyani o‘z vaqtida olishi, uni boshqalarga ulashishi hamda samarali mehnati orqali o‘zligini anglashida bilinadi...” degan fikrni yuqoridagi matnga bog‘lab tushuntiring.
4. Nega “Tarbiya – xazinalar ichida eng qimmatlisidir”, deyiladi?

Ma’naviyat xazinasidan

Johillik yo‘lidan qaytib, ma’rifat yo‘lini tanlagan inson qalbi toza suv bilan chayilgan kosaga o‘xshar. Ey inson, keyin pushaymon chekmay desang, odil bo‘l, ezgu ishlarga bel bog‘la, saxovat to‘nini doim egningga ilib yur.

Mustaqil faoliyat

1. Allomalarning quyida berilgan hikmatli so‘zlaridan tarbiya bilan bog‘liq tushirib qoldirilgan so‘zlarni toping:

Ilmdan yaxshiroq ... bo‘lmas,
Qo‘lingdan kelgancha qila olsang, bas!

Abu Abdullo Rudakiy

...dagi eng katta xato o‘ta shoshqaloqlikdir.

Jan Jak Russo

Tarbiya ...dan ustun turadi, insonni tarbiya voyaga yetkazadi.

Herbert Spenser

... qaytarish va takrorlash mevasidir.

Abu Rayhon Beruniy

(Bilim; tarbiya; ta’lim; xazina)

2. Ma’naviyatli va ma’rifatli insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni yozing.
3. Komil inson bo‘lishingiz uchun sizga qanday sifatlar zarur? O‘z odatlaringiz va faoliyatingizni tahlil qiling. Nimalardan voz kechishingiz kerakligini o‘ylang. Bu ishingizning natijasidan kimga ko‘proq foyda bo‘lishi mumkin? Nima uchun? Fikringizni asoslang.
4. *Shaxs, jamiyat, meros, tarbiya* so‘zlari o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Biri boshqasisiz ham mavjud bo‘lishi mumkinmi?

Respublika
ta'lim markazi

Ma'naviyat xazinasidan

Ilm Chin-Mochin (Xitoy)da bo'lsa ham, uni izlab topib, egallangiz. Zero, ilmni talab qilish har bir musulmonga farzdir.

Hadisdan

Ijodiy faoliyat

1. Nima deb o'ylaysiz, hadisda qanday bilimlar nazarda tutilgan?
2. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, VII asrda Xitoyda ilm-fan rivojlanlanganligi haqidagi ma'lumotlarni eslang. Ularni maktabda olayotgan bilimlaringiz bilan qiyoslang. Xulosangizni quyida berilgan matn bilan solishtiring.

Mulohaza uchun

Yuqoridagi hadisda dunyoviy ilmlarni ham o'rganishga ishora qilinganligini tushunish mumkin. Islom dini dunyoviy ilmlarni, ya'ni oila qurish, tijorat, dehqonchilik bilan shug'ullanish, kundalik uy-ro'zg'or ishlari va jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni ham o'rganishga chaqiradi. Ali ibn Abu Tolib: "Bolalaringizga o'zlari yashayotgan davr ilmlarini o'rgatinglar, chunki ular sizning davringizdan boshqa davrda dunyoga kelganlar", – deb ta'kidlagan.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Qomusiy olim Ibn Sino: "(Aql) tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim chin bilim bo'la olmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas", – deganida nima uchun bilimlarni aql tarozisida o'lchash kerak, deb ta'kidlaydi?
2. Quyidagi matnni o'qib, munosabatingizni bildiring.

Tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina, ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari rivojlanadi.

3. "Ilm – saodat kaliti, ilmsizlik esa jaholatdir" degan hikmatning ma'nosini ochib bering.
4. Bugungi kunda mamlakatimizda qanday yangi ilm dargohlari tashkil etilmoqda? Ularni qanday maqsad birlashtirgan? Bu ta'lim muassasalari haqida taqdimot tayyorlang.

III BOB
IJTIMOIY TARMOQ: IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR







Respublika
ta'lim markazi

16–17-MAVZU: BUZG‘UNCHI G‘OYALAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Buzg‘unchi g‘oya nima? Nima deb o‘ylaysiz? Nima uchun bugun jahonda ko‘plab buzg‘unchi guruhlar o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishda dindan niqob sifatida foydalanadilar?

2. Ekstremistlar, terroristlar va missionerlar kimlar? Ularning asosiy maqsadlari nima deb o‘ylaysiz?

3. Ma’naviy hayotga tahdidlar insoniyat rivojiga qay darajada ta’sir ko‘rsatadi?

4. Qachon inson ongida bo‘shliq paydo bo‘ladi? Bo‘shliq paydo bo‘lmasligi uchun nimalar qilish kerak? Fikringizni asoslang.

Mulohaza uchun

Keyingi yillarda Yevrosiyo qit’asi va Afrikada joylashgan qator mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan ekstremistik va terroristik tashkilotlarning faollashuvi kuzatilmoqda. Bularni quyidagicha izohlash mumkin.

Turli din vakillari orasida	Hindistonda musulmonlar, hinduiylar va sikxlar, Myanmadagi musulmonlar va buddistlar orasidagi nizolar
Bir dinga e’tiqod qiluvchilar o‘rtasida	Pokiston, Afg‘oniston, Iroq va Sudanda
Mojaroli munosabatlar, dunyoviy tuzumga qarshi kurash	Suriya, Iroq, Afg‘oniston...
Xalqaro darajadagi qarama-qarshiliklar	“Al-Qoida”, “Al-jihod al-islomiy” va “Hizbulloh” tashkilotlari

Ma’naviyat xazinasidan

Jahon dinlari insoniyatni ezgulik va tinchlikka, doimo asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etib kelgan.

Ijodiy faoliyat

1. Diniy va millatlararo bag'rikeng insonda qanday sifatlar mujassam bo'lishi kerak? Siz o'zingizni bag'rikeng inson deb hisoblaysizmi? Fikringizni asoslang.

2. "Jamiyatdagi buzg'unchiliklar dinning mohiyatini to'g'ri anglamaslik, Vatan tarixini bilmaslik, oila va mahallasiga nisbatan fidoyi bo'lmaslikdan kelib chiqadi" degan fikrga qanchalik qo'shilasiz? Insonda turli xil buzg'unchi illatlardan yiroq bo'lishi uchun qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak? Bunday sifatlar va buzg'unchi g'oyalarga kamida 20 ta misol keltiring.

3. Matnni diqqat bilan o'qing. Undagi xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari haqida fikr bildiring:

O'zbekiston ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda.

Ezgu sifatlar
bilim egallash
oilasi, mahallasi va yurtdoshlarini qadrlash
...

Buzg'unchi g'oyalar
terrorizm
ekstremizm
...

Mulohaza uchun

Samarqand shahrida sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan Doniyol payg'ambar maqbarasi islom, xristian va yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek e'zozlanadi...

Shu birgina misolning o'zi oliyjanoblik, ezgulik va tom ma'nodagi bag'rikenglik fazilatlari xalqimizning tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi.



Respublika
ta'lim markazi

Mulohaza uchun

O‘zini Islom nomi bilan bog‘laydigan ekstremistik tashkilotlarning iddaolari:

– dunyoviylik tamoyiliga keskin qarshi turgan holda davlat va jamiyatga murosasiz munosabatda bo‘lish orqali “xalifalik” qurish;

– dinning davlatdan ajratilishini rad etish va jamiyatning barcha a’zolarini diniy talablar asosida hayot kechirishga chaqirish;

– islom dinini dunyoning boshqa jamiyatlariga qarshi qo‘yish;

– o‘z maqsadlari yo‘lida davlat va jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan xatti-harakatlarni olib borish;

– o‘z g‘oyalariga ergashmagan musulmonlarni dindan chiqqanlikda, “kofir”-likda ayblash;

– an’anaviy islom tarafdori bo‘lgan ulamolarni obro‘sizlantirish, ularga tazyiq o‘tkazish va hayotiga suiqasd qilish;

– terror usullaridan foydalangan holda o‘z maqsadiga erishish;

– musulmon dunyosi mamlakatlaridagi energetik zaxiralar ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatish;

– sunniylar va shialar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni davlatlararo munosabatlar darajasiga ko‘tarilish va noqonuniy qurolli tuzilma kuchlarini qo‘llab-quvvatlash.

Ijodiy faoliyat

1. Yuqorida berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Ushbu ro‘yxatga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz?

2. Ekstremistik g‘oyalar ta’siriga tushib qolmaslik uchun nimalarga e’tibor berish kerak? Tavsiyalaringiz bilan o‘rtoqlashing.

3. Ekstremistik harakatlarga qarshi qanday me’yoriy hujjatlarni bilasiz? Fuqarolar necha yoshdan shu kabi huquqbuzarliklarning subyekti bo‘lishi mumkin?

4. Quyida berilgan qonunchilik hujjatidan olingan moddani mavzu bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiling.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ekstremistik faoliyatning har qanday ko‘rinishlari taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni 6-moddasidan

5. Guruhlarga bo'lining. O'zbekiston har qanday ko'rinishdagi nizolarga aralashmaslik, buzg'unchi g'oyalarni yoqlamaslik, tinchlik tarafdori bo'lish, diniy bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surish singari qanday xalqaro hujjatlarga qo'shilgan? Rasmiy saytlardan foydalangan holda ma'lumot bering.

A. 2018-yil 12-dekabrda O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» maxsus rezolyutsiyasi.

B. ...

Bilasizmi?

Terrorizmni targ'ib qilish; terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi; terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi; tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni yashirish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni 5-moddasidan

Tarixga nazar

Adolatli yechim: urushning oldi olindi



605-yili Ka'bani ta'mirlash jarayonida qabilalar o'rtasida "Hajarul Asvad" ("Qora tosh")ni o'z o'rniga qo'yish borasida janjal chiqdi. Bu janjal jiddiy tus olib, urush darajasiga ham yetdi. Mazkur masalaga Muhammad (s.a.v.) oqilona yechim topdi.

U kishi bir matoni yerga solib, unga "Hajarul Asvad"ni qo'ydilar va qabila boshliqlariga matoni chetidan ushlab baravar ko'tarishga buyurdilar.

Ular toshni shunday qilib ko'tarib borib, o'z joyiga qo'ydilar. Butun kelishmovchiliklar bir zumda bitdi, bema'ni urushning oldi olindi, hamma bu adolatli hukmdan rozi bo'ldi. "Al-Amin adolatli, oqilona hukm chiqardi", – dedilar.

Ijodiy faoliyat

1. Oqilona hukm nimadan iborat bo'lganini izohlang.

2. Bu voqeani hamjihatlik, tenglik, muammolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi tamoyillar bilan bog'lang.

Respublika ta'lim markazi

Bilasizmi?



Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida yiliga 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etilmoqda. 70 mingdan ortiq inson bunday harakatlar oqibatida hayotdan bevaqt ko'z yummoqda va ularning 80% ini yosh bolalar tashkil etadi. Dunyo miqyosida 500 dan ortiq terrorchilik tashkilotlari mavjud.



Mulohaza uchun

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ijodiy faoliyat

1. Fuqarolarning teng huquq va erkinliklari kafolati qanday yo'l bilan amalga oshirilmoqda?

2. Fuqarolar o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini amalga oshirishda qanday majburiyatlarni zimmasiga olishi kerak? O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlaridan kelib chiqib, fikringizni asoslang.

Bilasizmi?



Buyuk olim Abu Mansur Moturidiyning (870-944) asarlarida diniy bag'rikenglik, barcha dinni birdek hurmat qilish uqtirilgan.

Uning Qur'on tafsiriga bag'ishlangan, islom olamida juda keng tanilgan "Ta'vilotu ahlus sunna" asaridagi "Haj" surasining 40-oyati tafsirida: "Cherkov va sinagogalarni vayron qilish man etiladi. Shuning uchun ham musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yo'qdir", deyiladi.

Ma'naviyat xazinasidan

Qachon qora bayroqlarni ko'rsangiz, uyingizdan jilmang. Qo'llaringiz va oyoqlaringizni qimirlatmang. So'ng zaif bir qavm chiqadi. Ular e'tiborga sazovor emaslar. Ularning qalblari temirning zangiga o'xshaydi. Ular mol-mulk sohiblaridir. Ahdga ham, va'daga ham vafo qilmaslar. Haqqa chaqirurlar, lekin o'zlari haq ahlidan emaslar. Ismlari laqablardan iborat. Nisbatlari esa qishloq va shaharlargadir. Sochlari ayollarining sochiga o'xshab osilib turadi. Ular oxiri borib, o'zaro ixtilof qiladilar va haqiqat qaror topadi.

Ali ibn Abu Tolib

Ijodiy faoliyat



1. Suratlar asosida ekstremizm va terrorizmga ta'rif bering.
2. Suratlardagi ayollar va bolalarni shu ahvolga solganlarning harakatlari umuminsoniy va diniy qadriyatlarga mos keladimi?
3. Ana shunday holatlarning oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Sizdan nima talab etiladi?
4. Guruhlarga bo'lingan holda ekstremizm, terrorizm va missionerlikning buzg'unchi g'oyalarni targ'ib qilishi hamda bugungi kunda dunyo hamjamiyatiga keltirayotgan zarari xususida taqdimot tayyorlang.

Ma'naviyat xazinasidan

Agar o'qisang-u, o'ylamasang, chalkashib qolasan. Agar o'ylasang-u, o'qimasang, shubha-gumonlar tagida qolib ketasan.

Konfutsiy

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Nima uchun xalqaro terrorizm hozirgi davrning dolzarb global muammolaridan biriga aylandi?
2. Din niqobidagi ekstremizmning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Jamiyatni har qanday ko'rinishdagi buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoya qilish uchun qanday takliflar bildirgan bo'lar edingiz?
4. Ma'naviy qadriyatlarni asrash uchun nima qilish kerak?

Respublika ta'lim markazi

18–19-MAVZU: JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Internet manbalari bilan ishlashni bilasizmi?
2. Inson ongida bo‘shliq qachon paydo bo‘ladi va shu holat yuz bermasligi uchun nimalar qilish kerak?
3. Turli ko‘rinishdagi mafkuraviy buzg‘unchi g‘oyalarga nimalar kiradi va ular qanday paydo bo‘ladi?
4. Inson ma’rifatli bo‘lishi uchun qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?
5. Jaholat qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?

Mulohaza uchun

... Ma’rifatli xalq shijoatli bo‘lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, ilm-fan va madaniyatdan mahrum bo‘lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, fe’l-atvori zamirida ham o‘z nafsining yoqasini bo‘shata olmas... Zeroki, jaholat va qo‘rqinch faqirlik va muhtojlikdan ziyoda dahshatli bir musibatdir.

Abdulla Avloniy

Ijodiy faoliyat

1. Jamiyat ma’rifatsiz rivojlanadimi? Tarixdan shunga o‘xshash misollar keltiring.
2. “Agar jamiyatda ilmsizlik, jaholat mavjud bo‘lsa, u yerda qadriyatlar zavol topadi, insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, samimiyat, ma’naviyat, madaniyat o‘z mazmun-mohiyatini yo‘qotadi. Oqibatda bunday jamiyat taraqqiy etishdan to‘xtaydi” degan fikrni Abdulla Avloniyning yuqoridagi gaplari bilan bog‘lang. Sizningcha, jaholatning kushandasi nima?
3. “Bilim va hunarni puxta egallagan yoshlar qancha ko‘p bo‘lsa, davlatning tinch-osoyishtaligi, jahonda tutgan mavqei va obro‘-e’tibori, jamiyat farovonligi ziyoda bo‘ladi” degan fikrni mavzuga bog‘lab tushuntiring.

Ma’naviyat xazinasidan

Insonlarning butun saodati uchun ikki narsa shart: birinchisi – ilm, ikkinchisi – amal. Insonning baxtli bo‘lishi uchun ilmning o‘zigina yetmaydi, balki kishi ilmi yordamida tana va ruhini tarbiya qilishga burchlidir.

Imom G‘azzoliy

Mulohaza uchun

Hikoya

Bir kecha Ayyub toat-ibodat qilib, ko‘zidan shamdek yoshlar to‘kib o‘ltirar edi. U durdek ko‘zyosh dengiziga g‘arq bo‘lib, kuyib-yonishda shamga qo‘ldosh edi. Xilvatda bir burchakni o‘ziga maskan qilgan, go‘yo bir qutichaning ichidan eng toza dur o‘rin olgandek edi.

Shu kecha bir kissavur uning uyiga lahm kavlay boshladi. Kechasi bilan yer ostini o‘yib, yo‘l qilib chiqqanda uyda bir odamning boshini ko‘rdi. Ayyub ham buni tushunib, indamadi; ibodatda davom etib, buni o‘ziga olmadi. O‘g‘ri esa o‘sha teshikning ichidan chiqib, uydan nima topsa, hammasini to‘plab, qanchasini ko‘tara oladigan bo‘lsa, mo‘ljallab, orqasiga mahkam tang‘ib bog‘ladi. Lahmga kirmoqchi bo‘lganida, teshik kichkina, yuk esa juda ham katta ekanidan unga sig‘madi. “Inining torligidan xafa sichqon dumiga g‘alvirni ham bog‘lab olibdi” (degan gap bor). Uning qiynalib qolganini ko‘rgan Ayyub o‘rnidan turdi-da, eshikni ochib, yo‘l ko‘rsatdi:

– Yuking katta bo‘lib ketibdi, teshiging esa kichik. Chiqa qol, mana, eshik ochiq.

O‘g‘ri qancha gumrohlik ko‘rsatgan bo‘lsa, shayx unga shu xilda yo‘l ko‘rsatdi. Kishi birovga shu xilda yo‘l ko‘rsatgandan keyin, u bunday yo‘ldan chetga chiqishi mumkinmi?! Bu ahvol o‘g‘rini ojiz qilib qo‘ydi, og‘ir yuk esa qaddini bukdi. Vujudini bir o‘t yondirib dard berdi, bundan lojuvard osmonning ham isitmasi chiqib ketdi. Yelkasidagi yukni shu o‘tga tashlab, o‘z vujudining yukini ham kuydirishga tayyor edi. Bu ranj-u malomatdan muztar bo‘ldi, xijolat uni xasdek o‘rtantirdi. Na’ra tortib, seldek ko‘z yoshi to‘kdi. Shayxning oyog‘iga boshini urdi. Shayxning yaxshiligi, gunohini afv etgani tilini lol etdi, marhamatining yuki esa jismini behol qildi. Shayx marhamat qilib uning ko‘zidagi yoshini artdi, lutf ko‘rsatib boshini yerdan ko‘tardi…

Alisher Navoiy, “Hayrat ul-abror”dan

Ijodiy faoliyat

1. “Bir odam johillik yo‘liga kirib, tezda uni anglab yetsa, uning mushkuli oson bo‘ladi” degan fikrni matnga bog‘lab tushuntirib bering.
2. To‘g‘ri yo‘ldagi insonni yo‘lidan adashtirish qiyin bo‘ladi, lekin egri yo‘ldagi insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash osonmi yoki murakkab? Fikringizni asoslang.
3. Egri yo‘ldan to‘g‘ri yo‘lga o‘tishda matonat, iroda, qat’iyatning o‘rni qanday bo‘ladi?

Respublika ta'lim markazi

Mulohaza uchun

2013-yilning aprel oyida Iroqda tashkil etilgan Iroq va Shom islom davlati (ISHID) tomonidan so‘nggi yillarda 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etildi. ISHID terrorchi tashkiloti uning g‘oyalarini ma’qullamagan ulamolarni qatl etishgacha bordi. Masalan, 2014-yilning 14-iyun kuni ISHIDchilar jinoiy ishlarini ma’qullamagan 12 nafar ulamoni Mosul shahridagi “Al-Isro” masjidi yonida namoyishkorona qatl etganlar.





Ijodiy faoliyat

1. Quyida berilgan matnda inson huquqlarini himoya qilishga oid bo‘lgan jihatlarga e’tibor qarating.

2. Matndagi “Ey insonlar! Har bir jinoyatchi o‘z aybiga faqat o‘zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazoga tortilmaydi...” jumlasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 9-moddasidagi qoidalar bilan solishtiring.

3. ISHIDning faoliyati quyida berilgan matn mohiyatiga qanchalik zid ekanligi haqida mulohaza yuriting.

“Vido xutbasi”dan

“Ey insonlar!.. Bu kuningiz (qurbonlik kuni) qanday muqaddas bo‘lsa, bu shahrimiz qanday muqaddas shahar bo‘lsa, bilingizki, jonlaringiz va mollaringiz ham shu kabi muqaddasdir. Bularga qilingan har qanday tajovuz haromdir.

Hushingizni yig‘ib oling! Bilingizki, zinhor-bazinhor mendan keyin eski adashuvga qaytib, bir-biringizning bo‘yningizni kesmang!..

Eski johiliyat davridan qolgan hamma qon da’volari batamom bekor qilindi.

Kimning yonida bir omonat bo‘lsa, uni egasiga qaytarib bersin.

Ey insonlar! Ayollarning haqlariga rioya eting. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo‘ling. Ularning haqlari xususida Allohdan qo‘rqing! Ayollar sizga Allohning omonatidir...”

Hijriy 10-yilning 9-zulhijjasi
(milodiy 632-yilning 8-marti)

Mulohaza uchun

Musulmon qo'li va tilidan boshqa birovlarga aziyat va ozor yetmaydigan kishidir. Muqaddas kitoblarda urush chiqarish yo'lidagi fitna qotillikdan ham yomon jinoyat hisoblangan.

Dunyo dinlarida zulm, qotillik, odam o'ldirish qoralangan, aksincha, mehr-oqibatli, sulhparvar, insonparvar, rahm-shafqatli bo'lishga chaqirilgan.

Ijodiy faoliyat

Jumlani o'qing. Undagi "fitna" so'zini qanday tushundingiz, mazkur tushunchaga munosabatingizni bildiring (fitna – aldash, tinch aholi orasida mojaro keltirib chiqarish).

Fitna qotillikdan ham kattaroq gunohdir.

Qur'oni karim, Baqara surasi, 217-oyatdan

Bilasizmi?

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atish

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,

– bazaviy hisoblash miqdorining olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab, aholi guruhlariga nisbatan adovat, murosasizlik yoki nifoq keltirib chiqarish maqsadida milliy sha'n-sharaf va qadr-qimmatni kamsitishga, diniy e'tiqodiga yoki daxriyligiga qarab, fuqarolarning his-tuyg'ularini haqoratlashga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar, shuningdek, milliy, irqiy, etnik mansubligi yoki dinga munosabatiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash yoxud ularga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish,

– ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

Respublika ta'lim markazi

a) boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli usulda;
b) badanga og'ir shikast yetkazgan holda;
v) fuqarolarni doimiy yashash joyidan zo'rlik ishlatib ko'chirgan holda;
g) mansabdor shaxs tomonidan;
d) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, – **besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.**

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 156-modda

Mulohaza uchun

Berilgan matnni o'qing. Urush qanday oqibatlarga olib kelishini mulohaza qiling.

Urushda g'olib va baxtli podshoh, g'olib va baxtli qo'shin, g'olib va baxtli davlat, g'olib va baxtli tuzum bo'lishi mumkin. Ammo g'olib va baxtli odam bo'lmaydi. Negaki, urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo'lmaydi.

O'tkir Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"dan

Bilasizmi?



2021-yilda Yaponiyada o'tkazilgan 53-xalqaro kimyo olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 1 oltin hamda 3 ta bronza medalini qo'lga kiritdi:

Sobirjon Amanov – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Akademik litseyi o'quvchisi, oltin medal;

Firdavs Sobirov – Buxoro shahridagi 35-maktab o'quvchisi, bronza medal;

Durdona Muxtorxo'jayeva – Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar maktab-internat o'quvchisi, bronza medal;

Ikromiddin Boymahammadov – Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar maktab-internat o'quvchisi, bronza medal.

Ijodiy faoliyat

1. Tengdoshlaringizning yutug'ini jaholatga qarshi ma'rifatga qiyoslash mumkinmi?
2. Siz jaholatga qarshi qanday kurasha olasiz?
3. Bilimingiz va iqtidoringizni oshirish uchun qanday harakat qilyapsiz?
4. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun bilimning o'zi yetarli bo'ladimi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

Mulohaza uchun

Bobo va nabiraning savol-javobi:

– Bobojon, ayting-chi, nimalar kishini jaholatga eltadi?

– Bular asosan uchta: ilmsizlik, sabrsizlik va tajovuzkorlik.

– Ularning salbiy natijalari qanday?

– Ilmsizlik kishida umidsizlik, ertangi kunga ishonchsizlik urug'ini ko'paytiradi. Sabrsizlik, ya'ni boriga shukr etmaslik, o'z taqdiridan hadeb nolish kishining xalq, el-u ulus nazaridan qolishiga sabab bo'ladi. Va nihoyat, uchinchisi, boshqalar haqqiga tajovuz qilib, haddidan oshishdir.

Ijodiy faoliyat

1. Hayotingizga qanday informatsion tahdid yoki xavf ta'sir ko'rsatishi mumkin? Javobingizni asoslang.

2. Internet manbalari bilan ishlashning afzalliklari nimada deb o'ylaysiz?

3. Telegram tarmog'i orqali "Ishlaringiz yaxshi bo'lishini xohlasangiz, ushbu xabarni o'nta odamga yuboring, aks holda..." degan xabar oldingiz. Bu xabar va topshiriqqa munosabatingiz qanday bo'ladi?

4. Moliyaviy firibgarlik haqida eshitganmisiz? Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan shunday holatlarga munosabatingiz qanday?

Ma'naviyat xazinasidan

Tinchlik tarafdori bo'lgan til bir og'iz so'z bilan yuzlab mushkul tugunni yecha oladi. Bemahal aytilgan fitna qo'zg'atuvchi so'z esa so'zlovchining ziyoniga ishlaydi.

Xoji Samandar Termiziy

Ijodiy faoliyat

1. Quyida berilgan holatni tahlil qiling.

Anchadan beri bir-biri bilan ko'rishmagan Adham va Anvar ismli do'stlar uchrashib qolishdi. Adham do'stiga shu yaqin o'rtada shinamgina milliy taomlar oshxonasi borligini, internet ham tekin ekanini aytib, do'stini birgalikda tushlik qilishga taklif etdi. Ularni orasta kiyingan oshxona xodimi kutib oldi.

Adham oshxona xodimidan internet yoqib berishini so'radi. Telefonlar jahon axborot tarmog'iga ulandi. Buyurtirilgan taom keltirildi. Har ikkala do'st

Respublika ta'lim markazi

taom ustida telefonlariga jo'natilgan rasmlarni ko'rish, latifalarni o'qish bilan band bo'lib o'tirishdi. Telefon bilan band bo'lishib, ovqatlanishni ham unutishdi. Ular tamaddi qilib bo'lib, ko'chaga chiqishar ekan, telefon raqamlarini yozib olishdi va bir-birlariga telegram tarmog'i orqali xabar yozib turishga ahdlashishdi...

2. Siz ham yaqinlaringiz bilan uchrashganingizda shunday qilasizmi?

3. Bugungi ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan xabarlar, ma'lumotlar yoshlarni qay darajada jaholatga yetaklashi mumkin?

4. Ushbu hikoyada qanday qadriyatlar unutilib borayotgani aks ettirilgan?

5. Siz o'z bilimingiz bilan har qanday ko'rinishdagi jaholatga qarshi tura olasizmi? Qanday qilib?

Bilasizmi?

Agar inson o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanadigan hayotiy milliy qadriyatlarga, bunyodkor dunyoqarashga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli g'arazli niyatdagi mafkuralarning bosimiga, tazyiqiga dosh berishi mushkul bo'ladi. Bu kabi ochiq yoki pinhona xurujlarga nisbatan yuksak ma'naviyatli insonlargina ziyraklik bilan qarshi tura oladi.

Unutmang!!!
Ekstremizm va terrorizm din tanlamaydi.

Ma'naviyat xazinasidan

Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang,
keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman.
Edmund Berk, irlandiyalik siyosatchi



Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Jaholatga qarshi kurashish uchun ma'rifatdan boshqa yana qanday kuch bor?

2. "Jamiyatni halokat yoqasiga olib keluvchi eng o'tkir qurol jaholatdir" degan fikrga qanday qaraysiz?

3. Jamiyatni har turli ko'rinishdagi jaholatdan asrash uchun qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?

4. Terrorchilikning jamiyatga tahdidi nimalarda namoyon bo'ladi?

5. Davlatimiz qonunchiligida ekstremistik yoki terrorchilik harakatlarini sodir etganlik uchun qanday jazo choralari belgilangan?

20-MAVZU: XAVFSIZ MEDIA UMMONI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Xavfsizlik nima? Siz uni qanday tushunasiz?
2. Xavf qayerda yoki qachon, qanday shaklda yuzaga kelishi mumkin?
3. "Hayot barmoqlarimiz uchida joylashgan" iborasini tahlil qiling.
4. Internet sizning hayotingizda qanday rol o'ynaydi?
5. Xavfsiz media ummoni deganda nimani tushunasiz?
6. Yolg'on axborotni tarqatish mumkinmi? U qanday oqibatlarga olib keladi?

Ijodiy faoliyat

1. Partadoshingiz bilan o'zaro 3 ta ma'lumot almashing (o'zingiz haqingizdagi bitta ma'lumotni xato ayting).

O'qituvchi ko'rsatgan o'quvchi haqida uning partadoshi ma'lumot beradi va ma'lumotlarning to'g'riligini asoslaydi. Qaysi ma'lumot yolg'onligini topadi.

Masalan: yoshi, kelajakdagi kasbi haqidagi ma'lumot. Qolgan o'quvchilar ma'lumotlarning qanchalik to'g'riligini tekshirib borishadi.

Mulohaza uchun

"Yetib keldik"

Andijon viloyati Baliqchi tumanidagi "Oqqo'rg'on" masjidi imomi Rustamjon domla Hamidov o'zining ibratli ishlari bilan ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'lgan. U homiylik mablag'larini jalb qilgan holda ko'plab yetim va boquvchisini yo'qotgan bolalarning moddiy ta'minotidan boxabar bo'lib turar edi. 2021-yilning 28-iyul kuni Rustamjon domlaning shaxsiy feysbuk sahifasiga "Yetib keldik" sarlavhasi ostida video joylandi.

Videoda aytilishicha, ba'zi kishilar YouTube, Instagram, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda "Rustamjon domla" nomi ostida kanallar ochgan va bu kanallar orqali turli reklamalar berib, xayriya bahonasida pul ishlash payiga tushgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, bunday "xayriya kanallari" 170 dan oshgan. Shu sababli Rustamjon domla ushbu xayrli ishni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan homiylarga o'z minnatdorligini bildirgan holda mazkur faoliyatni yakunlaganini e'lon qildi.



Respublika ta'lim markazi

Ijodiy faoliyat

1. “Kishilarning muhtojligidan, bemorlarning kasalligidan foydalanib boylik orttirish” deganda nimani tushunasiz? Bunday noto‘g‘ri ishning oqibati nimalarga olib kelishi mumkin?

2. Firibgarlik yo‘li bilan pul topishga qonunchiligimizda qanday jazo choralari belgilangan?

Mulohaza uchun

Axborotning yashin tezligida tarqalishi, o‘z navbatida, haqiqiy axborotni yolg‘onidan ajrata olmaslikka, turli xil salbiy mazmundagi ma’lumotlarning yoyilishiga, agressiv, zo‘ravonlikka undovchi saytlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Ijodiy faoliyat

Otasi olamdan o‘tganidan keyin oila tebratish R. ismli qizning zimmasiga tushadi. Ijtimoiy tarmoq orqali S. ismli ayol bilan tanishib qoladi. R.ning oilasidagi ahvoldan xabar topgan S. unga tez-tez moddiy ko‘mak berib turishni odatga aylantiradi. Ma’lum vaqt o‘tib, S. unga chet eldan daromadli ish taklif qiladi va “Qachongacha qiynalib yurasan, men yordam berib chet elga ishga jo‘natgan qizlarim allaqachon mashina olishdi”, – deydi go‘yo rahmdillik ohangida.

Qiynalib qolgan oilasi – onasi va ukalariga yordami tegishini o‘ylagan R. hech ikkilanmay S.ning taklifiga rozi bo‘ldi...

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali aldanib qolishning oqibati inson taqdiriga qanday salbiy ta’sir etishi mumkin?

2. «Odam savdosi», moliyaviy firibgarlik kabi ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan jinoyatlarning oldini olishga oid tavsiyalaringizni shakllantiring.

Bilasizmi?

Axborot maydonida xabarlar oqimi kuchaygani sari ishonchli va to‘g‘ri manbalarni aniqlash dolzarblashmoqda. Shunday vaziyatlarda “feyk” ekan degan so‘zlar quloqqa chalinadi. Feyk (ing. fake) – “soxta”, “qalbaki” degan ma’nolarni anglatadi. Bunday ma’lumotlarga haqiqatga juda o‘xshab ketadigan yolg‘on xabarlar, o‘zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar (odatda, mashhur insonlar) nomidan ochilgan “yolg‘on akkauntlar” misol bo‘la oladi.

Bilasizmi?

Mediabozorda tayyorlovchi, axborot (mahsulot) yetkazib beruvchi va iste'molchi ishtirok etadi. Tayyorlovchi bu – g'oya muallifi – materiallarni to'playdi, tahlil qiladi, mediamatnni tayyorlaydi, uzatadi; mahsulot (axborot) – matn, belgi, surat va ramzlarda ifodalangan ma'lumot; yetkazuvchi (kanal) – axborotni uzatish vositasi (media); iste'molchi – axborotni oluvchi, o'rganuvchi, talqin qiluvchi shaxs.

Ijodiy faoliyat

1. Daftaringizga quyida berilgan tushunchalarning media ummonda shakllanish jarayoni ketma-ketligini to'g'ri qo'yib chiqing. Biz suzayotgan media ummon xavfsiz bo'lishi uchun bu tushunchalar odatda qanday tartibda turishi kerak?



2. Nega aynan bu tartibda qo'yganingizni asoslab bering.

Media mentalitet, Media immunitet, Media bilim, Mediasavodxonlik







Ma'naviyat xazinasidan



Men uyimning eshik va derazalarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida, eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlaydigan darajada ochib ham qo'ya olmayman.

Mahatma Gandi

Respublika ta'lim markazi

Ijodiy faoliyat

Quyidagi topshiriqni to‘rt jamoaga bo‘lingan holda bajaring.



Mustaqil faoliyat

Quyidagi rasmlarga izoh bering. Ulardan qaysi birining ta’siri va oqibati katta yo‘qotishlarga olib keladi. Nima uchun? Fikringizni asoslang.





Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan yolg‘on xabarni tanlang. Bu xabar nima uchun yolg‘on ekani asoslarini yig‘ing va tahlil qilib, isbotlab bering.
2. Yolg‘on xabarni aniqlash uchun nima qilish kerak? Fikringizni asoslang.
3. Siz xavfsiz media ummonidan o‘z kelajagingiz, ezgu maqsadlaringiz uchun qanchalik kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni olasiz?

21-MAVZU: SOXTA XABARLAR ORTIDA NIMA BOR?

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Inson qachon ishonchli va ishonchsiz, soxta xabarlarni ajrata oladi? Buning uchun qanday bilimlarga ega bo‘lish kerak, deb o‘ylaysiz?

2. Mutafakkir Alisher Navoiyning “Agar ogohsen sen, shohsen sen” degan bebaho hikmatida qanday ma’no mujassam bo‘lgan?

3. Tez fursatlarda butun dunyoga tarqayotgan axborot oqimining jamiyatga ta’siri qanday kechmoqda? Fikringizni asoslang.

Ma’naviyat xazinasidan

Aqlli insonning alomati shuki, yolg‘onga ishonmaydi, o‘zi ham qo‘llamaydi; hiylaga uchmaydi, o‘zi ham hiyla qilmaydi; yaxshi so‘zlar eshitadi, o‘zi ham yaxshi so‘zlaydi; mug‘ombirlik qilmaydi, donolar bilan birga yuradi; shubhaga bormaydi, o‘zi ham soxtalikdan yiroq bo‘ladi.

Ijodiy faoliyat

1. Quyidagi fikrga munosabatingizni bildiring.

Biz yuqori texnologiyalar davrida yashayapmiz: istalgan ma’lumotni, o‘zimizga zarur bo‘lgan har qanday axborotni izlashda internet manbalaridan ko‘proq foydalanyapmiz. Bu ma’lumotlar qay darajada ishonchli deb hisoblaysiz? Uni qanday aniqlash mumkin?

2. Internetdagi ma’lumotlar tez-tez yangilanib turadi, undan foydalanishimiz hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi, lekin uning ishonchlilik darajasini yuqori deb ayta olamizmi? Fikringizni asoslang.

Mulohaza uchun

Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan sharoitda axborot xavfsizligi shaxs, jamiyat, davlatning milliy manfaatlarini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning milliy manfaatlarini ikkinchi darajali deb hisoblaydigan axborot manbalari o‘zining g‘arazli maqsadlariga erishish uchun zo‘ravonlik, qo‘poruvchilik harakatlariga sababchi bo‘ladi. Bunday axborotlar xalqaro terroristik tashkilotlar qo‘lida asosiy va dahshatli qurolga aylanib bormoqda.

1. Buning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz?

2. Yolg‘on axborot qurboniga aylanmaslik uchun qanday yo‘l tutish kerak?

Respublika ta'lim markazi

Ma'naviyat xazinasidan

Munofiqning alomati uchta: gapirsa yolg'on gapiradi, va'da bersa, ustidan chiqmaydi, omonat qo'yilsa, xiyonat qiladi.

Hadisdan

Mulohaza uchun

Yoshlarning ijtimoiy-ma'rifiy savodxonligini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Ularda turli xil ko'rsatuvlar tashkil etib borish, dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar haqidagi fikrlarini o'rganish, tahlil qilish orqali yoshlarda tafakkurni to'g'ri yo'naltirib borishning eng samarali yo'li hisoblanadi. Bunda yoshlar internetdan foydalanishda, rasmiy va ishonchli saytlardan ko'proq foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Hozirda ijobiy axborot bilan bir qatorda, salbiy axborotni yoshlar ongiga singdirishning usul va vositalari aynan internet orqali amalga oshirila boshlandi. Buning oldini olishning birgina yo'li bor, bu – keng tafakkur, yuksak bilim va tarbiyali bo'lishdir.

Ijodiy faoliyat

Hurmatli +998 93 ... ... 25 raqam egasi, sizni tabriklaymiz! Siz *"Boyib ket"* o'yinining g'olibi bo'ldingiz! Sovrin – 300 000 so'm! Ushbu emailga xat yuborishingizni so'raymiz: ...@...com. Xatda g'olib bo'lgan kuningizni, telefon raqamingizni, F.I.SH.ni albatta ko'rsating va kerakli hujjatlarni: plastik karta, INN, INPS raqamlarini ilova qiling. Batafsil ma'lumot http://... da.

1. Shu kabi xabar sizga ham jo'natilganmi?
2. Bunday vaziyatlarda qanday yo'l tutish kerak deb o'ylaysiz?
3. O'zingizga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish kerakmi?
4. Shaxsiy ma'lumotlar kimlarga va qayerga berilishi mumkin?

Mulohaza uchun



Bugungi kunda o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularni turli oqimlardan himoya qilish, internet tarmog‘i orqali kirib kelayotgan turli xil axborot xurujlaridan ogoh etish asosiy vazifaga aylanib ulgurdi.

Media madaniyatga ega bo‘lib borish ma’naviy qadriyatlar va axloq normalarini o‘zlashtirish asosida insonlarning bir-biriga, oilasiga, jamoasiga, Vataniga va butun insoniyat taqdiriga insonparvarlik munosabatlarini namoyon qiladi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Ijodiy faoliyat

1. Quyida berilgan ustoz va shogird suhbatini mavzu mohiyatidan kelib chiqib asoslang:

– Fozil kishilar hamisha rost so‘zlaydi. Buning siri nimada, ustoz?

– Chunki yolg‘on so‘zlash uchun ularga imkon topilmas.

– Buning sababi nedir?

– Negaki, imkon topish uchun yolg‘on so‘z axtarmaslar...

2. Agar insonlar ziyrak, tarbiyali va ma’rifatli bo‘lsa, ularni soxta xabarlarga ishontirib bo‘ladimi? Ular qay tarzda har qanday axborotning ishonchli yoki soxta ekanini ajratib oladilar?

3. Siz begona kompyuterdan foydalandingiz. Foydalanilgan oynalardan chiqishni, ya’ni o‘z profilingiz va pochtangizni o‘chirishni unutdingiz. Bu ishingiz qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?



Respublika ta'lim markazi

Soxta xabarlardan xoli bo‘lish va uni tarqatuvchilar domiga tushib qolmaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish muhim:

- imkon qadar kerakli ma’lumotni olish uchun “.uz” domenidagi rasmiy saytlarga kirish;
- o‘rganilayotgan axborotning muallifi va tarqatuvchisiga e’tibor qaratgan holda, ishonchliligini aniqlash va farqlash;
- ijtimoiy tarmoqlarda notanish kishilar bilan tanishmaslik, ularga shaxsiy ma’lumotlar, telefon raqamlari va uy manzilini bermaslik;
- ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlardan manbai noma’lum bo‘lgan ijtimoiy ma’ruzalar, qo‘shiqlar (nashidalar), diniy mazmundagi roliklar, xunrezliklar aks etgan video va audiomateriallarni yuklab olmaslik;
- tarmoqdan foydalanish jarayonida yuzaga kelgan savol va muammolar bo‘yicha darhol o‘zidan kattalarga murojaat qilish.

Ijodiy faoliyat

1. Turli xil xabarlar ortida qanday maqsadlar ko‘zlanishi, u faqat bir shaxs rivoji emas, balki jamiyat rivojiga ham bevosita ta’sir qilishi haqida allomalarimizning qaysi asarlarida va qanday manbalarda keltirib o‘tilgan?

2. Quyidagi fikrni mavzuga bog‘lab asoslashga harakat qiling.

“Hozirda tarqalayotgan soxta xabarlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali berib borilayotgan turli xil ma’lumotlar insoniyatni o‘zaro ziddiyatlar girdobiga olib boruvchi, ma’naviyatni qashshoqlashtiruvchi, oxir-oqibatda uni og‘ir fojialarga olib boruvchi yangi “qadriyatlar” shakllanishiga olib kelmoqda”.

3. Bugungi soxta xabarlarning tarqatuvchilari kimlar yoki ular qanday maqsadlarni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Bugungi kunda tobora ommalashayotgan internet mahsulotlari – media-mahsulotlarning yoshlar axloqiy madaniyatiga qanday ta’siri bor?

2. Yoshlar tafakkur tarzini internet vositalari orqali boshqarish mumkinmi?

3. “Axborot kimning qo‘lida bo‘lsa, o‘sha dunyoni boshqaradi” degan fikrni qanday izohlaysiz? Firkringizni asoslang.

IV BOB
MEHNATSEVARLIK, TADBIRKORLIK VA KASBIY KO'NIKMALAR



Respublika ta’lim markazi

22-MAVZU: BAXTLI HAYOT POYDEVORI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Har bir ishning asosi – poydevori bo‘ladi. Poydevorning mustahkam bo‘lishi – binoning ... asos bo‘ladi. Nuqtalar o‘rniga o‘z munosabatingizni qo‘yib, fikrni to‘ldiring.

2. Siz baxtning poydevorini qanday tushunasiz? Baxt poydevori nimadan qo‘yiladi?

3. Tinchlik, xotirjamlik, salomatlik, halollik, sabr, shukronalik so‘zlarini baxt bilan bog‘lab ko‘ring. Ulardan qaysi biri baxtli hayot poydevoriga asos bo‘ladi?

4. Halol mehnat deganda siz nimani tushunasiz?

5. Mehnati bilan shuhrat qozongan insonlardan kimlarni bilasiz?

Mulohaza uchun

Qadim zamonlarda bir kishining uchta o‘g‘li bor ekan. Vaqti-soati kelib, ota qazosi yaqinlashgach, farzandlariga shunday vasiyat qilibdi: “Uyquni shirin qilib uxlanglar, ovqatni shirin qilib yenglar”.

1. Nima deb o‘ylaysiz, otaning vasiyati aslida nima haqida bo‘lgan?
2. Sizningcha, aka-ukalar qanday yo‘l tutgan bo‘lishi mumkin?

Katta va o‘rtancha o‘g‘il supaga joy solib, “Otam aytganiday, uyquni shirin qilish kerak”, “Otam aytganiday ovqatni shirin qilib yeyish kerak”, deb yeb yotaverishibdi.

Bora-bora aka-ukaning yeyishga ovqati-yu kiyishiga kiyimi qolmay, nochor ahvolga tushib qolishibdi.

1. Katta va o‘rtancha o‘g‘illarning harakatini qanday baholaysiz?
2. Uchinchi o‘g‘il otaning vasiyatini qanday tushundi deb o‘ylaysiz?
3. Nima uchun katta va o‘rtancha o‘g‘illarning ahvollari tang bo‘ldi?
4. “Uyquni shirin qilib uxlanglar, ovqatni shirin qilib yenglar”, deganida ota nimani nazarda tutgan?

Kenja o‘g‘il esa temirchilik hunarini o‘rganibdi. U ishlab, horib-charchab kelganida yegan qattiq noni-yu, ichgan suvi borgan sari totli, uyqusi esa shirin tuyulaveribdi. Ustiga-ustak, davlati ham ziyoda bo‘lib ketaveribdi...

1. Nima uchun kenja o‘g‘ilga qattiq noni ham shirindek tuyulaverdi?
2. Otaning nasihatidan so‘ng siz qanday yo‘l tutishni taklif etardingiz?
3. *Baxtli hayot poydevori mustahkamligi quyidagilarga asoslanadi: halol mehnat, ahillik, adolat, muomala, ...* Qatorni to‘ldiring.

Ma’naviyat xazinasidan

Go‘zal va to‘kin hayot kechirish uchun bor imkoniyatni ishga solish, kasb va hunar o‘rganish, g‘ayrat-shijoat bilan mehnat qilish zarur.

Ijodiy faoliyat

1. “Halollik, poklik, ezgulik yo‘lida mehnat qilish, hayot kechirish” deganda nimani tasavvur etasiz, shu asosda so‘zlar ketma-ketligini yozing.
2. Berilgan rasmdan baxtga erishish yo‘llarini ko‘rib chiqing va ifodalang.



Respublika ta’lim markazi

3. Rasmlarga diqqat bilan qarang. Baxt poydevori tushunchasini izohlang.








Ijodiy faoliyat

Kasbim mas’uliyati moddiy manfaatdan ustun



Plastik jarroh Nodir Ibatov jurnalist bilan bo‘lgan suhbatda quyidagi fikrlarni bildirdi: “Inson o‘z kasbini sevishi va uning fidoyisi bo‘lishi kerak. Aks holda, u yaxshi mutaxassis bo‘la olmaydi”.

1. “O‘z kasbini sevish va uning fidoyisi bo‘lish” deganda nimalar nazarda tutilgan?

“Har bir mijoz, har bir jarrohlik amaliyoti o‘ziga xos. Bu jarayonda murakkabliklar ham bor. Jarrohlik shunisi bilan ham qiziq. Sen mijozni tushunishing, uni qo‘llab-quvatlashing kerak. Mijozning sog‘lig‘iga zararli bo‘lgan holatda undan keladigan moddiy manfaatga qiziqib, uni plastik jarrohlikka jalb etmaslik kerak. Ba’zida “yo‘q” deya olish ham kerak”.

2. Halollik, mas’uliyat, fidoyilik, kasbiy mahorat tushunchalari yordamida kelajakdagi kasbingizni ta’riflang.

Ma’naviyat xazinasidan

Komil inson jamiki insonlarning haqiqati, ya’ni odamiylar odamiysidir.

Najmiddin Komilov

Mulohaza uchun

Halollik

Savdogar kechqurun uyiga kelsa, ayoli shikoyat qilibdi:

– Bugun do‘konga chiqib o‘g‘limizga oyoq kiyim sotib oldim. Sotuvchi g‘irromlik qilib qaytimni bermagani uchun qizimizga mo‘ljallagan kiyimni olishga pulim qolmadi. Qizimning xafa bo‘lib yig‘laganidan juda ko‘nglim buzildi.

Savdogar chuqur o‘yga botdi:

– Ey dunyoning ishlari! Kecha do‘konimga kirgan xaridorga nafsim g‘olib kelib, mahsulotni qimmatga sotganimdan qattiq afsusdaman...

1. *Halollik, go‘zal xulq, kamtarlik, andisha, vijdon, oriyat, saxiylik, himmat, muloyimlik, to‘g‘rilik, mehribonlik, odillik, e’tiqodlilik, vafodorlik, insof va diyonatlilik sifatlariga ega bo‘lgan insonni haqiqiy baxtli inson deb ataymiz.*

Shu fikrni izohlang.

2. Savdogar chuqur o‘yga botib, nimalarni his qildi? U nima uchun qilgan ishidan afsuslandi?

3. Hikoyadan olgan xulosangizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.



Ma’naviyat xazinasidan

Qalbingni yo‘ldan ozdiruvchi illatlardan, odamni ko‘r qilib qo‘yadigan holatlardan, ya’ni qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, nopok raqobatdan, ochko‘zlikning quli bo‘lishdan, o‘z ustidan hokimlik uchun kurashishdan ozod bo‘lmog‘ing darkor.

Abu Rayhon Beruniy

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

Yalqovlik inson hayotining, kelajagining zavoli, baxtsizlikka eltuvchi yo‘ldir…

1. “Qalbini yo‘ldan ozdiruvchi illatlar” mavzusida klaster tuzing.
2. Quyidagi matnni o‘qib, xulosalaringizni yozing.

“Ey mo‘minlar, mollaringizni o‘rtalaringizda nohaq (ya’ni o‘g‘rilik, qaroqchilik, sudxo‘rlik, poraxo‘rlik, qimor kabi) yo‘llar bilan yemangiz! Balki o‘zaro rizolik bilan bo‘lgan savdo-sotiq orqali mol-dunyo kasb qilingiz...”

(Qur’oni karim. Niso surasi, 29-oyatdan)

Respublika ta’lim markazi

23–24-MAVZU: ISTE’MOL VA TADBIRKORLIK MADANIYATI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Siz qanday iste’molchisiz? Intellektual mulk iste’molini qanday amalga oshirasiz?

2. Siz ta’lim tizimining asosiy iste’molchisi sifatida o‘z huquq va majburiyatlaringizni bilasizmi? Hech hisoblab ko‘rganmisiz, sizning bir kunlik ta’lim olishingiz uchun qancha mablag‘ sarflanadi? Siz uchun ajratilgan mablag‘larni to‘g‘ri sarflayapsizmi?

3. Boy berilgan imkoniyat deganda nimani tushunasiz?

Mulohaza uchun

Maktab kimniki?



10-sinfda o‘qiydigan Nodir bobosiga maktabi haqida so‘zlab berar ekan, norozi ohangda: “Fizika o‘qituvchimiz nuqul dars qilmaganimiz uchun bizga tanbeh berib: “Esiz senlarga sarflangan shuncha mablag‘”, – deydi, axir maktab tekin bo‘lsa, davlatniki bo‘lsa, ovqatlanish uchun uyga kelsak...” Gap shu yerga yetganida Nodirning gapini bobosi bo‘lib qo‘ydi.

– Iya-iya, bolam, siz xato o‘ylayapsiz...

Ijodiy faoliyat

Savollarga javob yozing. Yozgan javoblaringizni o‘rtoqlaringizning javoblari bilan umumlashtiring.

1. Nima deb o‘ylaysiz, Nodirning bobosi javobini qanday izohlagan bo‘lishi mumkin?

2. Iqtisodiy bilim asoslari fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, soliqlar nimalarga ishlatilishini eslang. “Bepul ta’limning narxi qancha?” degan savolga javob toping.

3. Hech qiziqib ko‘rganmisiz, bozorda maydoni 3 kv. metr bo‘lgan do‘konni ijaraga olish va kommunal to‘lovlarini to‘lash, ozodaligini saqlash uchun qancha mablag‘ sarflanadi?

4. Siz bir kunda maktabingiz sinf xonalari, sport zali va maydonchasi, hojatxonasidan bir yoki bir necha marta foydalanasiz. Bular uchun kim pul to‘laydi?

5. Infografika yordamida boboning javoblarini izohlang.

6. Tasavvur qiling, bozordan kartoshka xarid qilyapsiz. Qanday kartoshka olasiz? Nima uchun?

7. Nima uchun chirigan kartoshkani tekinga ham olmaysiz? Maktabga sifatsiz dars tayyorlab kelishingiz, zarur bo'lgan bilimlarni egallashga e'tiborsizlik qilishingiz xuddi chirigan kartoshka olish kabi bo'lishi mumkin. Taqqoslang va izohlang.

8. O'qituvchingiz bergan bilimlarning qanchasini o'zlashtiryapsiz? Nima uchun?



9. Siz ta'limning iste'molchisisiz, endi ayting-chi, iste'molchi va tadbirkorni nima bog'lab turadi?

10. Tadbirkor qanday xususiyatlarni o'zida mujassam etishi kerak?

11. Darsning boshida bergan javobingizni quyidagi savollarga bergan javobingiz bilan taqqoslang.

Intellektual mulk nima? Intellektual mulk iste'moli madaniyati deganda nimani tushunasiz? Siz bu madaniyatga qanday rioya qilasiz?

Ma'naviyat xazinasidan

Pul ezgulikni tug'dirmaydi, aksincha, ezgulik tufayli odamlar shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladilar.

Suqrot

Respublika ta’lim markazi

Mulohaza uchun

Omadli inson

Bir kuni muxbir omadli fermerdan intervyu olgani kelibdi. Undan bir necha yil mobaynida tanlovlar g‘olibi bo‘layotgani sababini makkajo‘xori yetishtirish sirini so‘rabdi.

Fermer buning hech qanday siri yo‘q ekanini aytib:

– Men har yili atrofimdagi qo‘shnilarimga ekishlari uchun eng sifatli makkajo‘xori urug‘larini tarqataman. Chunki ekinlar gullagan chog‘da shamol atrofdagi dalalardan ham gul changlarini olib keladi. Agar qo‘shnilarimda sifatsiz ekin bo‘lsa, bu mening ham hosilimga ta’sir ko‘rsatadi, – deb javob beribdi.

Ijodiy faoliyat

1. “Kimki omadli bo‘lishni istasa, o‘z yaqinlarining ham omadli bo‘lishiga yordam bermog‘i zarur” degan fikrga qo‘shilasizmi?
2. “Barcha insonlar bir-biri bilan bog‘liq, shuning uchun doim o‘zaro hamjihatlikda yashamog‘i kerak” degan fikrni tadbirkorlik faoliyatiga bog‘lab ko‘ring.
3. “O‘zingga ravo ko‘rmaganingni o‘zgalarga ham ravo ko‘rma” degan naqlni matnga bog‘lang.

Bilasizmi?

Insonning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o‘rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba’zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud. Antik davr faylasuflari bo‘lmish Suqrot va Aflotun, Epikur va Demokrit, Xitoy donishmandi Konfutsiy kabi allomalar bu boradagi nazariy qarashlarida ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, boshqalari moddiy olamni asosiy o‘ringa qo‘yadi. Insonning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o‘zi o‘ta murakkab masala bo‘lsa-da, uni anglashga harakat qilib ko‘ramiz.

Tarixga nazar

– Faoliyating adolat va haqiqatga muvofiqmi?

– Aytgan gaping qilgan ishingga mos bo‘lsin.

“Biznesmenlarning axloq kodeksi”dan, 1913-yil

Mulohaza uchun

Inson faoliyatida ikki muhim omil – moddiy va ma'naviy olam o'zaro uyg'unlashib, qo'sh qanotga aylangan taqdirda shaxs, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi. Moddiy va ma'naviy hayot bir-birini inkor etmaydi. Ular o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Inson o'z orzu-istaklarini amalga oshirishi, baxtli-saodatli yashashi uchun hayotini shu ikki mezonga bog'laydi.

Ijodiy faoliyat

1. Moddiy va ma'naviy hayot deganda nimani tushunasiz? Quyidagi rasmlar orqali fikringizni asoslang.

2. "Ma'naviy hayot", "moddiy ne'mat", "halol inson" tushunchalarini solishtirib, o'xshash jihatlarini ayting.

3. Moddiy va ma'naviy hayotni birdek olib borish uchun yurtimizda qanday islohot amalga oshirilmoqda?

4. Nima deb o'ylaysiz, moddiy hayotning o'zi jamiyat farovonligi va inson baxtini ta'minlay oladimi? Fikringizni asoslang.





5. Jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan asosli misollar keltiring.

6. Gulnoza mahalla guzaridagi do'konga kirib, u-bu narsa xarid qildi, ammo andisha qilib, olgan mahsulotlarining chekini so'ramadi.

– Gulnoza iste'molchi sifatida qoidalarga rioya qildimi?

– Uning bu harakati qanday muammolarga sabab bo'lishi mumkin?

– Siz do'kondan mahsulot xarid qilganingizda chekini so'raysizmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

Ma'naviyat xazinasidan

Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar kuchli bo'ladi.

Respublika
ta’lim markazi

Ijodiy faoliyat

O‘quvchilarning iste’mol madaniyatini sinash uchun ularga narxlari, sifati va tarkibi bir xil bo‘lgan quyidagi mahsulotlarning ro‘yxati berildi. Siz ulardan qay birini olishni maslahat bergan bo‘lardingiz?

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan	Xorijda ishlab chiqarilgan



1. Dilnoza faqat O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan o‘quv-qurollarini xarid qildi.
2. Zokirjon faqat xorijdan keltirilgan shirinliklarni oldi.
3. Dilshod va Saodat bo‘lsa mahsulotlarni aralash oldi.

Siz qaysi mahsulotni xarid qilgan bo‘lardingiz? Nima uchun?

Dilnozaning onasi: “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olsak, pul o‘zimizda qoladi”, – deb qizining ko‘nglini ko‘tardi. Siz bu fikrga qanday qaraysiz?

Mulohaza uchun

2020-yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilandi, ilk bor milliy valyutada 2 trillion so‘mlik davlat yevroobligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi.

Shu yili respublikamizda 197 ta yirik, minglab o‘rta va kichik korxonalar hamda infratuzilma obyektlari barpo etildi...

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, yer maydonlari to‘liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o‘rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi.

Meva-sabzavotchilik, g‘allachilik va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida, pandemiyaning salbiy ta’siriga qaramasdan, 1 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilindi.

Shu yili 91 ming gektar yer maydoni qaytadan foydalanishga kiritildi. 133 ming gektar yoki o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi.

Tadbirkorlikni keng qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab imtiyoz va yengilliklar berildi. Tadbirkorlik subyektlariga 100 trillion so‘m yoki 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p kreditlar ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 29.12.2020-y.

Ijodiy faoliyat

133 ming gektar yoki o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilgan bo‘lsa, bir yilda respublikamizda 197 ta yirik, minglab o‘rta va kichik korxonalar hamda infratuzilma obyektlari barpo etilgan bo‘lsa, bu raqamlarni uch, besh, o‘n yilga ko‘paytirib chiqing. Natijalarni tahlil qiling. Bu jarayonda sizning o‘rningiz qanday bo‘lishi mumkin?

Bilasizmi?

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Ma’naviyat xazinasidan

Eng yaxshi taomingiz o‘z kasbingiz orqali kelganidir. Dovud (a.s.) podshoh bo‘lsa-da, temirchilik bilan shug‘ullangan.

Respublika ta’lim markazi

Ijodiy faoliyat

1. O‘zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yuzaga kelishi uchun qanday omillar sabab bo‘ladi?

2. Quyida berilgan jadvallarni tahlil qiling. Tadbirkorlikka xos xususiyatlarni aniqlang. Tadbirkorlikni rivojlantirishda qanday manfaatdorlik bor?

3. Siz tadbirkorlarni qo‘llash uchun nimalar qila olasiz?



Mulohaza uchun

Odiljon tijorat bilan shug‘ullanish maqsadida qurgan katta do‘koniga birinchi bo‘lib bobosi Qamariddin otani olib keldi. Bobosi chiroyli duo qilib: “Bolam, qo‘lingda qancha ishching bor? Agar malol kelmasa, ularga aytadigan ikki og‘iz gapim bor”, – dedi.

Odiljon tez fursatda do‘konning barcha xodimlarini to‘plab berdi. Qisqagina salomlashuvdan so‘ng bobosi dedi:

– Ota-bobolarimizdan qolgan qoida bor, savdoda ikki tomon – sotuvchi ham, xaridor ham rozi bo‘lmasa, oldi-sotdi halol bo‘lmaydi;

– kishining aldov, xiyonat yo‘li bilan orttirgan boyligi yaxshilikka buyurmaydi;

– molga katta narx qo‘yib, haddan oshmaslik, molning turi, sifati, ishlab chiqarilgan joyi va xarajatlari haqida yolg‘on aralashtirmaslik zarur;

– oluvda ham, sotuvda ham qattiqlik qilmay, moldan, narxdan o‘tib berish kerak;
– savdoda rost bo‘lsa ham qasam ichishdan tiyilish lozim.

Bobosi so‘zini: “Siz ham mana shu o‘gitlarga rioya qila olsangiz, ishlaringizda baraka bo‘ladi”, – deb tugatdi.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi jadvallar ichida berilgan so‘zlardan foydalanib, jamiyatda iqtisodiy islohotlar rivoji haqida kichik esse yozing. Ulardan qaysilari iste’mol va tadbirkorlik madaniyati uchun zarur deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.



Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Agar inson boy-badavlat bo‘lsa-yu, bilimi, foydali kasb-hunari bo‘lmasa, yig‘gan katta boyligi qanchaga yetishi mumkin?
2. Ma’naviyatli insonning topgan boyligidan kimlar manfaat topadi?
3. Bir inson ham boy, ham oqil, ham dono, ham saxiy bo‘la oladimi?
4. “Biznesmenlarning axloq kodeksi”dan olingan qoidalarni iste’mol va tadbirkorlik madaniyati bilan bog‘lash mumkinmi? Fikringizga misol keltiring.
5. Quyidagi fikrni mavzu bilan bog‘lab tushuntiring.

“Boylik bilan kambag‘allik et bilan tirnoq kabi. Faqat ular vaqti-vaqti bilan o‘rin almashadi, xolos. Shu bois boy bo‘lganingdan judayam quvonma, u o‘tkinchidir. Yo‘qlikda ko‘pam qayg‘urma, bu ham o‘tmay qolmas... Agar kishi oqil bo‘lsa, har bir yaxshi-yomon voqea, tasodiflardan o‘ziga kerakli xulosalarni chiqarib oladi”.

Respublika ta’lim markazi

25–26-MAVZU: KASB TANLASH SIRLARI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Zamonaviy kasblar deganda qanday kasb turlari nazarda tutiladi? Bunday kasb turlaridan qanchasini sanab bera olasiz?
2. Bugun odamlar qaysi kasblarni egallashni ko‘proq istayapti? Nima uchun deb o‘ylaysiz?
3. Siz kasb tanlashda nimalarga e’tibor bermoqdasiz? Fikringizni asoslang.

Bilasizmi?

Kasb bu – ma’lum bir shaxsga xos bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar mujassamidir.

Kasb ma’lum bir ko‘nikmalarni egallash orqali qo‘lga kiritiladi. Qolaversa, kasb kishining o‘zini anglashi, qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishiga olib keladigan faoliyat hisoblanadi.

Ma’naviyat xazinasidan

Har kim o‘z sevgan kasbi bilan shug‘ullanishi kerak, shunda kishida mehr, shijoat, ko‘tarinkilik, matonat va mamnunlik kayfiyati doimo sezilib turadi. Jamiyatga bunday insonlardan ko‘p naf yetadi.

Mulohaza uchun

Zamonaviy kasblar uchun zarur bo‘lgan sifat va tamoyillar quyidagilardan iborat:



Mustaqil faoliyat

Kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasbingizga bog‘lab quyidagi savollarga javob bering:



Bilasizmi?

UNICEFning maxsus loyihasi bo‘lgan U-REPORT yoshlar platformasi 2019-yil 13-may kuni yoshlarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazdi. Unda 6300 dan ortiq o‘zbekistonlik yoshlar qatnashdi. Respondentlarning fikriga ko‘ra, kasb tanlashda quyidagi 4 omil ta’sir o‘tkazadi:

shaxsiy qobiliyat (34%);
kasbga muhabbat (20%);
moliyaviy imkoniyatlar (20%);
ota-onalar qarori (11%).

Ishtirokchilarning 82 foizi yoshlarni kasbga yo‘naltirish hukumat tomonidan tashkil qilinishi kerak deb hisobladi.

Respublika ta’lim markazi

Mulohaza uchun

Har birimiz umrimizda bir marta bo‘lsa-da, biz uchun notanish narsalarni tanlash bilan to‘qnashganmiz. Bu esa eng murakkab tanlovdir.

Har bir sotuvchi o‘z foydasini o‘ylagan holda iste’molchini o‘ziga jalb etishga intiladi. Kompaniya o‘z sohasida ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaror qildi.

Plastik deraza romlarini ishlab chiqarish va o‘rnatish mexanizmlarini tushunish uchun eng muhim qadamlaridan biri bu “Rom yig‘ish sohasi” videoblogi bo‘ldi.

Endi deraza romlarni yoki profilni tanlash va o‘rnatishda iste’molchi ushbu jarayonni to‘liq tushunchaga ega bo‘lgan tarzda muhokama qila oladi. Ushbu jarayon katta narxga ega bo‘lgani va 20 yilda bir marta ro‘y bergani uchun ham, har bir qadam muhimdir.

“Rom yig‘ish sohasi” blogi ishlab chiqarish va ta’mirlashda muhim bosqichlar haqidagi ma’lumotlarni berish va bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun yo‘naltirilgan.



Ijodiy faoliyat

Kompaniya iste’molchi bilan ko‘proq ochiq suhbatga intilish uchun qanday ishlarni amalga oshirgan? Sizning xulosangiz qanday?

Siz iste’molchi bilan ko‘proq ochiq suhbatga intilish uchun qanday yo‘l tutar edingiz?

Iste’molchi bilan samimiy muloqot o‘rnatish uchun kompaniya qaysi kasb egalariga murojaat qilgan bo‘lishi mumkin?

Mustaqil faoliyat

Quyidagi matnni o‘qing va tahlil qiling.

Iqtisodchilar ishining bir qismi xatolarning oldini olishdan iborat. Bu esa xatoga yo‘l qo‘yishga qaraganda anchayin qiyin (lekin ancha qiziqarliroq) ishdir.

– Iqtisodchi xatoga yo‘l qo‘yishining oqibati nimaga olib keladi? O‘z strategiyangizni ishlab chiqing.

Ijodiy faoliyat

1. Har biringiz o‘z orzuingizdagi kasbni ayting.
2. Nima uchun aynan bu kasbni egallashni orzu qilasiz?
3. “O‘z kasbining ustasi” deganda nimani tushunasiz?
4. Tanlagan kasbingiz uchun qanday bilim va malakalar talab qilinadi deb o‘ylaysiz? Bu bilim va ko‘nikmalarning qanchasiga egasiz? Jadvalni daftaringizga ko‘chirib to‘ldiring va ro‘yxatni davom ettiring.

T/r.	Tanlagan kasbingiz uchun bilim va malakalar	Sizda shakllangan qismi
1	Menenjer uchun muloqot madaniyati	Tadbirlarni tashkillashtirish-da yordam bera olaman
2		

5. Mavjud bilim va malakalarni rivojlantiring. Yo‘g‘ini qanday shakllantirasiz? Tanlagan kasbingizga erishish uchun nimalar qilish kerakligi haqida infografika ishlab chiqing.

Mulohaza uchun



1976-yilning 16-sentyabrida Shavarsh Karapetyan akasi va murabbiyi bilan ertalabki yugurish mashqlarini bajarayotgandi. Trolleybus Yerevan suv omboriga qulaganini ko‘rgan Shavarsh darhol odamlarni qutqarishga kirishdi – u ko‘rish nol darajada bo‘lgan chuqurlikka sho‘ng‘ib, trolleybus oynasini sindirdi, har bir sho‘ng‘iganida behush odamlarni quruqlikka olib chiqa boshladi. U jami 92 kishidan 46 nafarini olib chiqqan, 20 nafarining hayoti saqlab qolinishiga sababchi bo‘lgan. Shundan so‘ng Shavarsh bir oydan oshiq pnevmoniya bilan og‘rib yotgan...

Ijodiy faoliyat

1. Shavarshni suvga tushishga nima majbur qildi?
2. “Inson kimningdir hayoti o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘lishi mumkin” degan fikrni Shavarshning xatti-harakati bilan bog‘lang.
3. Siz bunday holatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

Respublika ta’lim markazi





Bort kuzatuvchisi Nirdja

1986-yilda Pokistonning Karachi shahrida PANAM-73 samolyoti terrorchilar tomonidan qo‘lga olindi.

Terrorchilar amerikaliklarni qatl qilish uchun barcha yo‘lovchilarning pasportlarini olib kelishni talab qildi. Jasoratli styuardessa AQSH fuqaroligiga ega odamlarning hujjatlarini axlat qutisiga va o‘rindiqlar ostiga yashirdi.

Styuardessa Nirdja o‘zini yo‘qotmadi, samolyot havoga ko‘tarilmasligi uchun darhol uchuvchilarni ogohlantirishga muvaffaq bo‘ldi. Uchuvchilar favqulodda chiqish yo‘lagi orqali samolyotni tark etdilar.

Pokiston politsiyasi hujumga o‘tishi bilan Nirdja yo‘lovchilarni ham favqulodda chiqish yo‘lagi orqali samolyotdan chiqara boshladi. O‘rindiqlar tagiga berkinib olgan ikki bolani olib chiqib ketayotganida, jinoyatchilar ularni o‘qqa tutdi. Bolalarni tanasi bilan to‘sgan Nirdja og‘ir jarohat oldi, bor kuchi bilan bolalarni samolyotdan olib chiqdi...

Ijodiy faoliyat

1. “Kasbga sadoqat”, “inson hayotining qadri” tushunchalarini o‘zaro bog‘lagan holda bort kuzatuvchisi Nirdjaning harakatlari bilan asoslab bering.

Mulohaza uchun



Bittagina maqsadim

O‘quvchilarim orasida olimpiadalarga 12 martalab borgan bolalar bor. Doim aytaman ularga: bilim oling, bilim oling. O‘zimning 7 gektarli bog‘im bor edi. Shu hisobidan ancha yil oldin olimpiadaga borgan yoki tuman va viloyatdagi tanlovlarda g‘olib bo‘lgan o‘quvchilarga stipendiya tashkil etdim. Qaysi bola olimpiadaga qatnashyapti, o‘rin olyapti, qaysi sinfning bolasi o‘rnak bo‘lyapti, har chorak stipendiya berishni kanda qilmadim. Mana, hozirgacha nafaqam hisobidan maktab doirasida g‘olib bo‘lgan o‘quvchiga 50 ming so‘mdan to‘layman, tumandagi tanlovdan o‘tsa, yana beraman. Shu tariqa 100, 150 va 200 ming so‘mgacha oshirib boraman. Har oy oladigan 3 million ikki yuz ming so‘m nafaqamni shu iqtidorli bolalarga tarqataman. Bittagina maqsadim – farzandlarimiz savodli bo‘lishi kerak.

Xosiyat Qarayeva, Denov tumanidagi 1-maktab direktori

Mulohaza uchun

She'rga qo'yilgan haykal



Qoraqalpoq diyorining Ellikqal'a tumaniga xizmat safari bilan bordim. Mahalliy xalq Bo'ston shahrini "Ellik birinchi shahar" deb ham atar ekan. Bu shahar haqida nima uchun so'z boshlaganim sizlarga qiziqdir. Bu yerda o'qituvchiga qo'yilgan haykal borligini eshitdim. Nihoyat o'sha haykal qarshisidaman. Bir quloch daftar qo'ltiqlab, qashqir ta'qibidan qochayotgan o'qituvchi. Go'yoki zulmat va vahshiyliklarga chap berib, bir tutam ziyoni kelajakka eltib borayotgan muallima...

Ijodiy faoliyat

1. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun o'qituvchiga bunday haykal qo'yilgan?
2. Agar sizdan o'qituvchiga haykal qo'yish bo'yicha maslahat so'rashsa, qanday taklif bergan bo'lardingiz? Siz bu haykalni qanday tasvirlaysiz?
3. Yaxshi ko'rgan o'qituvchingizning qaysi xislatlari sizga yoqadi?

Mulohaza uchun

Darsdan so'ng



"Darsdan so'ng" she'rining muallifi Matnazar Abdulhakim

Shu kuni darsda muallim bolalarning cho'ntagidagi gugurt qutisini olib qo'ydi. Ularni chekish sog'liklari uchun zarar ekanligidan ogohlantirdi. Uy vazifasini topshirmagan yetti o'quvchini qattiq koyidi, biroq ikki baho qo'ymadi. Ertaga qayta tekshirish sharti bilan bir quchoq daftarni qo'ltiqlab, uyiga qaytmoqchi bo'ldi. Oqshom cho'kkan, ammo negadir turmush o'rtog'idan darak bo'lmaydi. O'qituvchining uyi qirning ortida edi. Hamkasblari qoling deb qistasa ham, yo'lga otlandi. Yarim yo'ldan o'tgach, ortidan qashqir ta'qib qilayotganini sezdi. Bo'rining olovdan qo'rqishini bilgan o'qituvchi shartta bir daftarni yoqib, ortiga tashladi. Uch-to'rt daftar bo'lsa bas, o'qituvchi uyiga yetardi. Ammo ovulga yetay deb qolganda daftarlar tugadi. Qora tun qo'ynida muallima va qashqir yolg'iz qoldi...

Respublika
ta’lim markazi

Mulohaza uchun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, “Hunarmand” uyushmasining Rishton tumani bo‘limi a’zosi, usta-kulol Alisher Nazirov “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.





Ma’naviyat xazinasidan

Agar siz kasbni muvaffaqiyatli tanlasangiz, ishlasangiz va ruhingizni unga bag‘ishlasangiz, unda baxtning o‘zi sizni topadi.

Konstantin Ushinskiy

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. Quyidagi fikrlarni o‘qing va tahlil qiling.

– Katta kelajagi bor kasblar yo‘q, ammo kelajagi buyuk mutaxassislar bor (Ilya Ilf va Yevgeniy Petrov).

– Inson tabiatida chuqur o‘rnashgan ehtiyojlardan biri bu – kasblarni tanlash erkinligi va ularning xilma-xilligi (A. Bebel).

– Professional kishi bu – o‘z ishini yoqtirmaganida ham qila oladigan odam. Havaskor esa o‘z ishini yoqtirganda ham bajara olmaydigan odam (Jeyms Aigateb).

2. Darsda olgan bilimlaringizga tayangan holda kasblardagi mashaqqatli jihatlarini e’tiborga olib, kasb haqidagi xulosangizni daftaringizga yozing.

27–28-MAVZU: O‘RGANISHDAN TO‘XTAMANG

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Shu kungacha olgan bilimlaringiz va o‘rganganlaringizni sarhisob qilganmisiz? Uning o‘lchovi va miqdori qancha?
2. Nima deb o‘ylaysiz, bu bilimlaringizni rivojlantirish kerakmi? Nima uchun?
3. Bu bilimlardan qanday vaziyatlarda foydalanasiz?
4. O‘rganishdan vaqtincha to‘xtab turish mumkinmi? Nima uchun?

Mustaqil faoliyat

Rasmlarga qarab fikrlab ko‘ring. 1-rasm bilan 3- va 4-rasmlarda qanday bog‘liqlik bor?

3-, 4-, 5-rasmlarni ketma-ketlikda izohlab ko‘ring. Bu rasmlarni nima birlashtiradi?

2- va 4-rasmni umumlashtirib matn tuzing.

Barcha rasmlarni “O‘qib-o‘rganganim sari ojizligimni bilib bordim” degan fikr bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiling.



Respublika ta’lim markazi

Mulohaza uchun

Samarali o‘rganishning yetti siri

Muvaffaqiyatli va raqobatbardosh bo‘lish uchun inson har doim o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashi kerak. Bu jarayonda bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun ishlab chiqilgan samarali metodlar yordam beradi. Bilimlarni samarali o‘zlashtirishni ta’minlash siri nimada?

1-sir – juda qiyin materialni o‘rganishda dastlabki 20 daqiqadan samarali foydalanish, miyani ortiqcha zo‘riqtirmaslik va keyingi daqiqalarda mashg‘ulotning turini o‘zgartirish. Demak, murakkab mavzuni o‘zlashtirishda mashg‘ulot turini o‘zgartirishning ahamiyati katta.

1. Siz turnikda bir soatdan ko‘proq osilib tura olasizmi? Tasavvur qiling, bunda qanday jismoniy jarayon ro‘y beradi? Tanamiz charchoqni his qilishi aniq.



Bu tanamizning himoya mexanizmi, u bizni ortiqcha zo‘riqishlardan himoya qiladi. Xuddi shu holat chet tilini o‘rganishda, grammatika va yangi so‘zlarni o‘zlashtirishda yoki murakkab matematik hisob-kitoblarni bajarishda miyamizda ham sodir bo‘ladi.



Bilasizmi?



Inson faqat dastlabki 20 daqiqa davomida diqqatini yuqori darajada jamlab tura oladi.

Yarim soatdan so‘ng diqqatning bo‘linishi natijasida ma’lumotni qabul qilish 60% gacha, 45 daqiqadan keyin 40% gacha sustlashib boradi. Demak, murakkablik darajasi yuqori bilimni bir soatdan keyin tushunish tobora qiyinlashib boraveradi.

Mulohaza uchun

2-sir – sinfdagi kundalik g'alaba ...

Darsda va darsdan keyin yutuqlaringizni baholab borishni odat qiling. Bunday yondashuv sizga o'rganish jarayonidagi salbiy jihatlarni yo'qotishga, o'quv motivatsiyasi va mustaqilligini oshirishga yordam beradi.

O'zingizning kamchiliklaringizni aniqlang va ularni bartaraf etishga harakat qiling. Bunday mashqni muntazam ravishda bajaring. Shunda o'zingizni nazorat qila boshlaysiz va xato qilish kamayadi.



Mustaqil faoliyat

Darsda va darsdan keyin har doim o'zingizga samarali o'rganishda yordamlashadigan savollar berishni o'rganing. Masalan:

– Bugun men o'rgangan eng muhim narsa nima?

Javobingizni to'g'ridan to'g'ri ish daftaringizga yozing.

– Qaysi savollar menga tushunarsiz bo'lib qoldi?

Ushbu savollarni darhol yozing, iloji bo'lsa, o'qituvchidan so'rang va ularga javob toping.

Mulohaza uchun

3-sir – nazariyani amaliyot bilan bog'lash.

Nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkamlanadi va takomillashadi.

Ba'zan ayrim so'zlar bizga tanish bo'lsada, gap nima haqida ekanini tushunmay qolamiz.

So'zning ma'nosini aniqlay olmaymiz. Sizga bu muammo tanishmi? Miyamiz biz foydalanmaydigan ma'lumotlarni nima qiladi?

To'g'ri, u energiyani behuda sarflamaslik uchun uni "uzoq arxiv"ga joylaydi.



Respublika
ta’lim markazi

Muvaffaqiyatli o‘rganishning uchinchi siri bevosita tajriba orqali bilim olish va malaka oshirishdir. Aynan shu narsa “ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir” ekanligi, ya’ni eng muhimi, o‘rgangan nazariy bilimlarimizni ongli ravishda qo‘llash kerakligini anglatadi.

Bilasizmi?

Mnemonika – eslab qolish san’ati.

Ijodiy faoliyat

Amaliy faoliyatda qo‘llash uchun quyidagi tushunchalardan foydalaning.



1. Bu infografikani yana qanday tajribalar bilan boyitish mumkin?
2. Xato qilmaslik uchun dastlab nima qilgan bo‘lar edingiz? Fikringizni asoslang.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

Gapni to‘ldiring:

1. Men o‘zimning ... ga munosabatimni o‘zgartirdim.
2. Men ... haqida ko‘proq bilib oldim.
3. Meni ... ajablantirdi.
4. Men ... ni his qildim.

1. Avvallari men ... deb o‘ylardim, endi esa ... ni bilaman.
2. Avvallari men ... deb o‘ylardim, endi esa ... ekanini tushundim.
3. Avvallari men ... deb o‘ylardim, endi esa ... ni qo‘llay olaman.

Mulohaza uchun

4-sir – tasavvur qilish.



Tasavvur qilish axborotni idrok etish uchun katta imkoniyatlar berishi sir emas. Biroq u bitta katta kamchilikka ega – uzoq vaqt davomida olingan ma'lumotlarni saqlab qola olmaydi. Miyaning diqqat filtrlari miya energiyasini tejash uchun keraksiz ma'lumotlarni filtrlaydi.

Amerikalik psixolog Jorj Miller "Millerning hamyoni" deb nomlangan nazariya ishlab chiqdi va keyinchalik u "7 ± 2 qoidasi" deb atala boshladi. Qoidaning qisqacha mazmuni insonning qisqa muddatli xotirasi 9 dan ortiq obyektni eslay olmaydi.

Bilasizmi?

Millerning hamyoni

Inson miyasidagi qisqa muddatli xotira yoki o'ziga xos "hamyon" bir vaqtning o'zida har xil qiymatli "yetti tanga"dan ortiq bo'lmagan "pul"ni ushlab turishi mumkin.



Agar ular yettidan yoki to'qqizdan ko'p bo'lsa, miya ularni intuitiv ravishda 5 dan 9 gacha bo'lgan guruhlarga ajratadi. Ishimizning samaradorligi va 7 raqami o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud.

Misol uchun, dars stolingizni ko'z oldingizga keltiring. Agar undagi narsalarning soni yettitadan ko'p bo'lsa, miya uni tartibsizlik deb qabul qiladi. Tajribalarga ko'ra, inson ish stolini tartibga keltirganidan keyin ishining unumi ortadi.

7 ± 2 qoidasiga rioya qilish vaqtni tejash, turli muammolarni hal qilish, ayniqsa, jarayonlarni samaraliroq boshqarishga yordam beradi.

Millerning tajribalari shuni ko'rsatadiki, insonning qisqa muddatli xotirasi o'rtacha holatda to'qqizta ikki xonali, sakkizta ko'p xonali raqamlarni, alifboning yetti harfini, beshta bir bo'g'inli so'zni eslab qola olar ekan.

Internet manbalari asosida

Respublika ta’lim markazi

Mulohaza uchun

5-sir – Herman Ebbingauzning tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, egri chiziqqa asoslangan takrorlash texnikasi.

Ushbu sodda texnikaga amal qilish uzoq vaqt xotirangizni urintirmasdan 4 baravar ko‘p materialni osongina saqlash imkoniyatini beradi.



Ebbingauz unitish egri chizig‘i

Bilasizmi?

Asadbek Ayubjonov – o‘zbekistonlik iste’dodli yosh dirijyor. Uning g‘aroyib iqtidori kichikligidanoq namoyon bo‘lgan. 6 yoshligida bir emas, bir necha banddan iborat 85 ta she’rni yod o‘qirdi.



7 yoshidan musiqa maktabining skripka yo‘nalishiga qatnadi, 8 yoshidan boshlab ko‘plab xalqaro musiqa tanlovlarida, festivallarda qatnashgan, Italiyada bo‘lib o‘tgan skripkachilar tanlovida 1-o‘rinni egallagan.

Asadbek nafaqat O‘zbekistondagi, balki butun dunyodagi eng yosh dirijyorlardan biri hisoblanadi. Taniqli dirijyor Vladimir Spivakovning shaxsan o‘zi termizlik iqtidor egasi Asadbek Ayubjonovni bir necha marta “Moskva do‘stlarni chorlaydi” xalqaro festivaliga taklif etgan.

Mulohaza uchun

Inson miyasi ma’lumotni yetarlicha uzoq vaqt davomida saqlab qolishi uchun ma’lum vaqt oralig‘ida unga bir necha marta murojaat qilish kerak bo‘ladi. Ammo murojaat davrlari orasida dam olish vaqtlari bo‘lishi kerak. Imtihondan bir kecha oldin o‘qilgan ma’lumotlar bizning qisqa muddatli xotiramizda saqlanadi, ammo shu tarzda olingan ma’lumotlar uzoq muddatli xotiraga o‘tmaydi. Aqliy hujum yangi g‘oyani yaratish uchun foydalidir, ammo biron narsani yodlash uchun emas. Miyaning qisqa muddatli, bir martalik harakati natijasida ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyati kam yoki u bunday tezkor o‘zlashtirgan narsasini uzoq vaqt yodda saqlay olmaydi. Axborotni yodlashda uni tushunib, ma’nosini anglab qabul qilish muhimdir.



Ijodiy faoliyat

1. Biron-bir ma'lumot esingizda qolishi uchun siz nima qilasiz? Nima uchun hammaning xotirasi bir xil emas?

2. O'zingiz eng murakkab deb bilgan mavzuni oling va German Ebbinhauz metodikasi asosida o'zlashtirishingizni sinab ko'ring. Tajribangizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

3. O'z qobiliyatlaringizni baholay olasizmi? Muhim ma'lumot va hodisalarni eslab qolish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?

Bilasizmi?

Herman Ebbinhauz xotiraning salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan algoritmlarni aniqladi. Axborotni o'rganish va yodda saqlashning ko'plab usullari uning izlanishlari asosida yaratilgan. Olim poliglotlar tug'ilmaydi, balki shakllanadi degan xulosaga keldi.



Mulohaza uchun

Agar siz juda uzoq vaqt eslab qolishingiz kerak bo'lsa:

birinchi takrorlash dastlabki o'qishdan keyin;

ikkinchi takrorlash birinchi takrorlangandan 20–30 minut o'tgach;

uchinchi takrorlash ikkinchisidan 1 kun keyin;

to'rtinchi takrorlash uchinchisidan 2–3 hafta o'tgach;

beshinchi takrorlash to'rtinchi takrorlashdan 2–3 oy o'tgach bajarilishi zarur.

Shunday qilib, samarali takrorlash usuli an'anaviy usulga qaraganda xotirada to'rt barobar ko'proq yangi ma'lumotni saqlab qolish imkonini beradi.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi tushunchalar nima uchun aynan shunday tartibda berilgan? Ulardan teskari tartibda foydalanish mumkinmi?

Bilish, tushunish, qo'llash;

Tahlil qilish, sintezlash va baholash, loyihalashtirish, konstruksiyalash;

Tadqiq qilish, kashf etish, dunyoni qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni boricha qabul qilish.

Respublika ta’lim markazi

Ma’naviyat xazinasidan

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Abu Rayhon Beruniy

Ijodiy faoliyat

Xotira mashqi

Beshta kichik jamoaga bo‘lining. Har bir jamoa ikki minut davomida berilgan yo‘nalish bo‘yicha o‘n beshtadan nom, faoliyat va turlar (futbol jamoalari, kasblar, davlatlar, zamonaviy brendlar, qomusiy allomalar) ro‘yxatini tuzadi. Flipchartga yozilgan ro‘yxatni har bir jamoa navbat bilan qirq soniya davomida sinfga ko‘rsatib turadi. Qirq soniya o‘tgach, ro‘yxat berkitiladi, guruhlar ro‘yxatda ko‘rsatilgan so‘zlarni tartib bo‘yicha o‘ttiz soniya ichida aytib berishlari kerak. Mashqni bajarishda vaqt me’yorlariga qat’iy rioya qilish talab etiladi.

Mamlakatlar	Futbol jamoalari	Zamonaviy kasblar	Qomusiy allomalar	Mashhur brendlar

Mulohaza uchun

6-sir – muntazam harakatlar.

Yumshoq suv qattiq toshni maydalagani singari sizning mashg‘ulotlaringizni odatiy holga keltiradigan muntazam harakatlardir. Berilgan vazifalarni og‘ishmay bajarish samarali natijaga olib keladi. Vazifani takrorlash orqali o‘zlashtirish – kuch faqatgina bilimda emas, balki maqsad sari harakatlarda ekanini tasdiqlaydi.

7-sir – bilim olishni to‘g‘ri tizimlashtirish.

Daftaringizda yuqoridagi sirlarning barcha minutlarini aniq aks ettirishingiz kerak, ya’ni:

– mashg‘ulotning maqsadini aniq va yaqqol shakllantiring;

– mashqlar va topshiriqlar haqida batafsil ma’lumot oling;

– maqsadli bilim va ko‘nikmalarni shakllantiring, muammoli masalalar aniqlanganda, ularni darhol hal qilishga intiling;

– olingan bilimlarni amalda qo‘llang;

– harakatlar maqsadga muvofiq bo‘lishiga e’tibor bering.

Bilim olishga intiling! Agar maqsadingiz yo‘lida astoydil, qunt bilan harakat qilsangiz, sizga hech narsa to‘sqinlik qila olmaydi!



29–30-MAVZU: IRODA

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. “Iroda” deganda nimani tushunasiz? Inson irodali bo‘lishi uchun nimalarga amal qilishi kerak?
2. “Ruhiy “men”ini uyg‘otish” nimani anglatadi?
3. Siz irodalimisiz? Kuchli iroda egasi ekaningiz qanday holatlarda namoyon bo‘lgan?
4. Irodaning kuchini o‘lchash, ko‘rish va tekshirish mumkinmi? Nima uchun?

Ijodiy faoliyat

1-topshiriq. Daftaringizga “Iroda nima va men uni qanday tushunaman?” degan savolga kamida 5 ta javob yozing. O‘z javobingizni: “Iroda bu – ...” degan so‘z bilan boshlang:

Misol:

Iroda bu – boshlagan ishini sabr bilan oxiriga yetkazish...

2-topshiriq. Chumolining irodasi nimada namoyon bo‘lishini asoslang.



Bilasizmi?

Iroda bu – ichki kuch, maqsadlarni ongli ravishda belgilash hamda yuzaga keladigan tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengib o‘tib, maqsad sari intilish qobiliyati.

Tashqi qiyinchiliklar atrofimizni o‘rab turgan ijtimoiy muhitdan keladigan qiyinchiliklardir. Ichki qiyinchiliklar esa ichimizdagi qiyinchiliklar (qo‘rquv, umidsizlik, g‘azab, darg‘azablik, nafrat, mag‘rurlik, befarqlik, e’tiborsizlik, ayblar, qahr, ochko‘zlik, yolg‘izlik)dir.

Respublika ta’lim markazi

Ijodiy faoliyat

Ichki va tashqi qiyinchiliklar ta’siriga tushganmisiz? Ana shunday vaziyatda nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Qanday qilib ichki qo‘rquv, umidsizlik, nafrat, yolg‘izlik holatiga tushganda to‘g‘ri yo‘lni topish mumkin? O‘z fikringizni asoslang.

Mulohaza uchun

Iroda kuchi insonni ruhlantiradi – maqsadga erishish yo‘lida shaxsni boshqaradi.

Agar insonning ruhiyati mustahkam, o‘zi g‘alabaga qattiq ishonchli, irodali bo‘lsa, maqsadlariga erishadi. Aksincha bo‘lsa, bunday odam imkoniyatlarni emas, maqsadga erishishga to‘sqinlik qiladigan sabablarni qidiradi.

Muvaffaqiyatli odamlarga quyidagi odatlar yordam beradi:

– tiniqib uxlash;
– o‘z vaqtida uyg‘onish;
– sovuq suvda cho‘milish;
– muhim ishlarni vaqtida bajarish;
– katta ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ishlarga o‘zini bag‘ishlash;
– “irodani qayta yuklash” tugmachasini bosish: bir soat ishlagandan so‘ng, biroz sayr qilish, bir stakan sharbat ichish, yana faol ishlash, yana dam olish va yana ishlash;
– katta yutuqqa erishish uchun kichik qadamlar qo‘yish.



Ma’naviyat xazinasidan

Kuchli fe’l-atvor bu – o‘ziga xiyonat qilmaslik. Iroda esa, o‘z-o‘zini yengishdir.

A. Kruglov

Agar iroda kuchli bo‘lsa, ko‘p narsaga erishsa bo‘ladi. Lekin, ayting-chi, irodani qanday qilib shakllantirish mumkin?

J. Renar

Mulohaza uchun



Iroda kuchiga marsiya

Zararli odatlarni tashlash, kechasi ovqatlanmaslik, sport bilan shug‘ullanish yoki ta’lim olish uchun turtki va irodaning yetishmasligiga qanchalik tez duch kelamiz? Biz doimo dushanbadan boshlab yangi hayotni boshlaymiz va haftaning oxiriga kelib yana eski odatlarimizga qaytamiz.

Biroq yaxshi yangilik bor: agar haqiqatan ham xohlasak, barchamiz o‘zgarishimiz mumkin. Har birimizning ichimizda qo‘rquv va shubhalarning zich qatlami ostida yashiringan ichki yadro bor. Uni his eting, shunda hayotingizni yaxshi tomonga burishingiz mumkin bo‘ladi. Umid qilamizki, qiyin paytlarda o‘zining mustahkam fe’l-atvorini namoyon eta olgan insonlar haqida berilayotgan quyidagi hikoyalar to‘g‘ri yo‘nalishni tanlay olishingizga va sizni yangi yutuqlar sari ilhomlantirishga sabab bo‘ladi.

Ijodiy faoliyat

1. Mashaqqatlarni yengishda nimalarga e’tibor bergan bo‘lardingiz?
2. Agar irodangiz mustahkam bo‘lsa-yu, lekin ko‘nglingiz bo‘sh bo‘lsa, qat’iyatlilikni qay darajada namoyon eta olasiz?

Bilasizmi?

Malala Yusufzay – pokistonlik. Tarixda eng yosh Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan qiz. U 17 yoshida qizlarning ta’lim olish huquqini himoya qilish bo‘yicha faoliyati uchun ushbu mukofot bilan taqdirlangan.

Malala, ayniqsa, tolibonlarning qizlarning darslarga borishiga ruxsat bermagan taqiqlariga qarshi edi.



Respublika ta’lim markazi

Mulohaza uchun

Men Malala



“Bugungi kunda dunyoda 57 million bola maktabga bormaydi, ulardan 31 millioni qiz bolalar. Pokistonda va dunyodagi hamma joylarda yoshligida turmush qurishga, oilaviy hayotni boshlashga va ta’lim haqida o‘ylamaslikka majbur bo‘lgan ko‘plab qizlar bor. Biz qizlarning ta’limiga sarmoya kiritishimiz va ta’lim olish huquqi uchun kurashayotganlarni himoya qilishimiz kerak”, – deydi yosh Malala.

2012-yil 9-oktyabrda tolibon jangarisi Malala Yusufzay sinfdoshlari bilan ketayotgan maktab avtobusini to‘xtatdi va: “Malala kim bu yerda? Gapiring yoki hamma o‘ladi”, – deb baqirdi. “Men Malala!” – dedi qiz va oldinga chiqdi. Shu onda o‘q otildi.

O‘q Malalaning boshi, bo‘yni va yelkasi orqali o‘tib ketdi. Qiz og‘ir ahvolda kasalxonaga olib kelindi, lekin hammasi yaxshi bo‘ldi. Hozirgi kunda ham tinimsiz kelib turgan tahdidlarga qaramasdan, Malala inson huquqlarini himoya qilish yo‘nalishidagi faoliyatini davom ettirmoqda.

“Men o‘zimga shunday deb aytdim: Malala, o‘lim bilan yuzma-yuz uchrashgansan. Bu – ikkinchi urinishingiz. Qo‘rqma, agar qo‘rqsang, oldinga siljiy olmaysan”.

Ijodiy faoliyat

1. Gender tenglik nima?
2. Nima uchun Malala Yusufzayning hayotiga suiqasd qilingan?
3. Malalaning “Qo‘rqma, agar qo‘rqsang, oldinga siljiy olmaysan” degan gapiga o‘z munosabatingizni bildiring.



Respublika ta'lim markazi

Mulohaza uchun



Keniyalik yuguruvchi Abel Mutay marra chizig‘iga atigi bir necha metr qolganida belgilarda adashib, manzilga yetib keldim deb o‘ylab, yugurishdan to‘xtadi. Undan keyinda kelayotgan ispaniyalik Ivan Fernandez raqibining xatosini tushunib, keniyalik yengil atletikachiga yugurishni davom ettirishi zarurligini aytib, baqira boshladi. Mutay ispan tilini tushunmagani bois hayron edi.

Fernandez Mutayning oldiga kelib, uni g‘alaba chizig‘i tomon itarib keldi. Bu holatni qiziqish bilan kuzatayotgan muxbirlardan biri Ivandan marraga birinchi bo‘lib yetib kelish o‘rniga nega raqibiga yo‘l berganini so‘radi.

“Men doim bir-birining qo‘lidan tutib, g‘alaba sari borishga yordam beradigan odamlar yashaydigan jamiyatni orzu qilaman”, – deb javob berdi Ivan Fernandez.

“Lekin naq bo‘lib turgan g‘alabani raqibiga tortiq qilish sportchilarga xos emas”, – bo‘sh kelmadi muxbir ham.

“Unga g‘oliblikni men tortiq qilganim yo‘q, zotan, u g‘olib bo‘lib bo‘lgan edi”.

“Qoidaga ko‘ra, sizda ham g‘olib bo‘lish imkoniyati bor edi”, – dedi boshqa muxbir. “Unda mening g‘olibligim nimaga loyiq bo‘lar edi? Unda g‘oliblik medalining qadri qanchalik bo‘lardi? Meni kuzatayotgan onam bu ishimdan qanday holga tushardi? G‘olib bo‘lish yoqimli, ammo xato qilgan odamga ko‘maklashish undan sharafliroq”.

Ivan Fernandez bizga hayotning muhim saboqlaridan birini o‘rgatdi – hech qaysi g‘alaba halollikdan ustun bo‘la olmaydi...

Ijodiy faoliyat

1. Ivan Fernandez to‘g‘ri yo‘l tutdimi? Nima uchun? Siz bunday holatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?
2. “Hech qaysi g‘alaba halollikdan ustun bo‘la olmaydi” deganda nimani tushundingiz?
3. “... xato qilgan odamga ko‘maklashish undan sharafliroq” jumlasini sharhlang.

Respublika ta’lim markazi

Bilasizmi?

Bukilmas iroda

Botir Zokirov 1955-yilda qattiq betob bo‘lib, ahvoli og‘irlashib, rangi za’faronga o‘xshab qolgan, ozib ketgandi. Uni taniqli vrach Vali Majidov uzoq davoladi. Davolash jarayoni murakkab va og‘ir kechdi. Lekin Botir Zokirov ruhiy tushkunlikka tushmadi. Uning hayotga muhabbati, irodasi kuchli edi...



1964-yili Botir Zokirovni Moskvadagi kasalxonaga yotqizishadi. Uning operatsiyadan sog‘-omon chiqishi dargumon edi. Operatsiya sakkiz soat davom etsa-da, yaxshi chiqadi. U operatsiyadan so‘ng rangini oldirgan bo‘lsa-da, biroq ko‘zlari olovday chaqnab turardi. Bular hayotga cheksiz muhabbat va bukilmas irodaning ramzi edi.

Gastrol...

Operatsiyadan ikki yil o‘tgach, birinchi marta gastrolga yana Moskvaga bordi. U konsertga professor L. K. Bogush boshchiligida vrachlar va hamshiralarni taklif qildi. Konsertga yuzlab muxlislar bilet topisholmadi. Konsert tugashi bilan Zokirovni vrachlar o‘rab olishdi...

– Sen qanday qilib qo‘shiq aytding? Sen haqiqatan insonmisan yo sehrgarmisan? Nahotki bu o‘zing bo‘lsang, Botir? – dedi Lev Bogush ko‘zlariga yosh olib. Qarshilarida tirik mo‘jiza turgandek unga qayta-qayta hayrat bilan tikilishardi. Bu haqiqiy va chinakam mo‘jiza edi.

Ro‘y bergan bu ilohiy mo‘jizaga xonandaning o‘zi ham ishonardi...

Ashurali Jo‘raev, “Yurak bo‘ronlari” kitobidan

Ijodiy faoliyat

1. Matndagi “bukilmas irodaning ramzi” degan atama bilan bog‘liq jumlani toping.
2. Siz o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadga yetishish uchun qanday harakat qilasiz? Irodasizlik qanday holatlarda namoyon bo‘ladi? Misollar keltiring.
3. Irodasizlikning oldini olish uchun nima qilish kerak?



Bilasizmi?

2020-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi. Botir Zokirov Mustaqillik bayramining 30 yilligi munosabati bilan «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlandi.



Mulohaza uchun



Jasorat

Ozod akaning irodasi qanday baquvvat ekaniga, uning qalb jasoratiga qoyil qolganman.

1997-yilning yoz oylarida qand kasalligi zo‘rayib, domla og‘ir operatsiyani boshidan o‘tkazadi, vrachlar uning hayotini saqlab qolish uchun bir oyog‘ini kesishga majbur bo‘ladi.

Ammo bu odam shunchalik matonatli ekanki, shunda ham tushkunlikka tushmadi, ilmiy va ijodiy faoliyatdan bir zum bo‘lsin to‘xtamadi. Keyinchalik kasallik yanada kuchayib, Ozod aka ikkinchi oyog‘idan ham judo bo‘ldi. Bu ham yetmagandek, ko‘rish quvvati ham nihoyatda zaiflashib qoladi...

Ana shunday og‘ir sharoitda ham bu inson “Jahon adabiyoti” jurnalining bosh muharriri sifatida o‘z burchiga, e’tiqodiga sodiq qolib, lupa yordamida jurnal materiallarini tahrir qilib borish bilan birga qirqdan ortiq yirik roman va qissalarni o‘zbek tiliga tarjima qilgani, albatta, har qanday odamni ham hayratga solishi tabiiy. Ozod aka bu bilan ham kifoyalanmasdan, respublikamizdagi matbuot nashrlarida, radio-televideniyeda, turli tadbir va anjumanlarda milliy ma’naviyatimizning o‘ziga xos jihatlari, buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi, mustaqillikning ma’naviy asoslarini mustahkamlash haqida ko‘plab chiqishlar qildi...

Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”

Ijodiy faoliyat

1. “Qalb jasorati” deganda nimani tushundingiz?
2. Iroda, jasorat, matonat, sabr kabi so‘zlarni ishlatib jumla tuzing.
3. Ozod Sharafiddinovning jismoniy muammolarni yengib o‘tishiga nima yordam berdi?

Ma’naviyat xazinasidan

Bir dona kitob butun bir jamiyatning ma’naviy hayotini, estetik qarashlarini, badiiyatini yuksak cho‘qqiga ko‘tarib yuborishi mumkin.

Ozod Sharafiddinov

Respublika ta’lim markazi

Mulohaza uchun



Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog‘ida yashagan Zulfiya aya Zokirova Ikkinchi jahon urushida besh o‘g‘lidan – Isoqjon, Ahmadjon, Mamajon, Vahobjon, Yusufjon ismli farzandlaridan judo bo‘lgan. Uning to‘rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo‘lib qolgan.

2020-yili Toshkent shahridagi “G‘alaba bog‘i”ning markazida Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o‘g‘li, sadoqatli kelinlari xotirasiga atab muhtasham haykal o‘rnatildi. Obidaga “Matonat madhiyasi” deb nom berildi.



Bu – O‘zbekistondagi barcha onalarga qo‘yilgan haykal. Ushbu yodgorlik butun xalqimiz uchun qutlug‘ ziyoratgohga, oila, muhabbat, vafo va sadoqat timsoliga aylanib qoldi. Bu yerga kelgan yoshlar millatimizning qonida bo‘lgan fazilatlarni anglab, ularni qadrlab yashashga intiladi.

Darsdan ijobiy saboq chiqarib

1. “Barcha onalarga qo‘yilgan haykal” degan fikrga misollar keltiring.
2. “Millatimizning qonida bo‘lgan fazilatlarni anglash” deganda nimani tushundingiz? Fikringizni misollar bilan izohlang.
3. Inson irodasini mustahkamlashga ta’sir etuvchi omillarning ro‘yxatini tuzing.
4. Quyidagi savollarning javobini daftaringizga yozing:
   – bu hikoyalarda qahramonlarning irodasi qanday namoyon bo‘lgan?
   – hikoya qahramonlarining irodasi qanday shakllangan?
   – atrofingizdagi insonlarning irodasi kuchli deya olasizmi?

Respublika
ta'lim markazi

Tarbiya [Matn]: 10-sinf uchun darslik / N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov, O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuxamedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova
Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

ISBN 978-9943-7519-8-9

UO'K 373:17(075.3)
KBK 87.7ya72

O'quv nashri

N. Ismatova, Z. Zamonov, Z. Islomov, D. Rahimjonov,
O. Maxmudov, D. Ro'ziyeva, S. Shermuxamedova,
S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova

TARBIYA 10

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
10-sinfi uchun darslik

Yangi nashr

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Rassom *Behzod Zufarov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Sahifalovchi-dizayner *Ravshan Malikov*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*

Bosishga 2021-yil 9-sentyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Ofset qog'ozi. "Cambria" garniturasida ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14,88. Nashr tabog'i 12,63.
Adadi 497 888 nusxada. Buyurtma № 950-21.

«Credo Print» MChJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

CREDO PRINT

Respublika
ta'lim markazi

Darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rah-barining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rah-barining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.